TA'LIM DASTURI LOYIHASI

BRITISH COUNCIL

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Malaka talablari bilan

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosida ishlaydigan hamda xalqaro dunyoqarashga ega bo'lgan ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga qaratilgan kompleks ta'lim dasturidir. Mazkur dastur ingliz tili kompetensiyalari, tilshunoslik, adabiyot, tarjimashunoslik, o'qitish metodikasi, pedagogika va ta'limga oid fanlar hamda professional amaliyotni o'zida mujassam etib, bitiruvchilarni turli ta'lim muassasalari va ta'lim kontekstlarida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.



60110900

KELISHUV VARAG‘I

Dastur ishlab chiqaruvchilari, hamkor tashkilotlar hamda manfaatdor tomonlar

HAMKORLIGIDA ISHLAB CHIQILGAN:

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Rektor_____X. Umarova

2026 «____» _____
M.O‘.

Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi

Direktor _____ M. Xolgeyt

2026 «____» _____
M.O‘.

Norwich Institute for Language Education (NILE)

Direktor _____ T. Kiddl

2026 «____» _____
M.O‘.

KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi

Direktor _____

2026 «____» _____
M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi

Direktor _____

2026 «____» _____
M.O‘.

Ushbu bakalavriat ta’lim yo‘nalishi qo‘llanmasida ta’lim dasturi haqida keng qamrovli ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, unda malaka talablari, kasbiy faoliyat profili va imkoniyatlari, bitiruvchilarga qo‘yilgan talablar, o‘quv reja hamda modullar tavsifi va ta’lim natijalari yoritilgan. Mualliflik huquqi ©2026, O‘zMPU. Barcha huquqlar himoyalangan.

Mundarija

1. Kirish.....5

2. Dastur haqida umumiy ma’lumot.....6

2.1 Konsepsiya.....6

2.2 Ta’lim dasturi maqsadlari.....7

2.2 Programme learning outcomes (PLOs).....9

2.3 Dasturning pedagogik tamoyillari.....10

2.4 Baholash strategiyasi.....12

2.5 O‘qitish, o‘rganish va baholashda Sun’iy Intellekt (SI).....15

2.6 Tenglik, xilma-xillik, inklyuziya va barqaror rivojlanish.....16

2.7 Ta’lim sifatini ta’minlash va takomillashtirish.....17

3. Ta’lim dasturi malaka talablari.....18

3.1 Dastur bo‘yicha malaka talablarining qamrovi.....18

3.2 Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....18

3.3 Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....18

3.4 Kasbiy vazifalar.....21

3.5 Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....23

4. Ta’lim dasturi o‘quv rejasi, tuzilishi va mazmuni.....25

4.1 Majburiy modul (fan)lar.....26

4.2 Tanlov modul (fan)lari.....26

4.3 Ta’lim yo‘nalishi o’quv rejasi: asosiy va tanlov modul(fan)lari.....26

4.4 Ta’lim dasturi o‘quv rejasi.....28

4.5 Tanlov modullari katalogi.....32

4.6 Kvalifikatsiya.....33

5. Ta’lim dasturi bo‘yicha me’yoriy talablar va akademik daraja olish shartlari.....34

5.1 Me’yoriy talablarning qo‘llanish doirasi.....34

5.2 Akademik daraja haqida ma’lumot.....34

5.3 Bitiruv talablari.....34

5.4 Pedagogik amaliyot talablari.....35

6. Fanlar tavsifi.....42

6.1 Asosiy fanlar.....42

6.2 Tanlov fanlari.....61

7. Xulosa.....70

8. Atamalar.....71

8.1 Tayanch so‘zlar.....71

8.2 Qisqartma va akronimlar.....75

8.3 Bibliografik ma’lumotlar.....77

Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘rganishni jadallashtirish dasturi (AELLCA) direktori: Jamilya Gulyamova, Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi direktori o‘rinbosari
Loyiha bosh maslahatchilari va taqrizchilari: Rod Bolayto, Tom Kiddl, Norvich til ta’limi instituti (NILE)
Milliy koordinator: Nodira Isamuhamedova, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti

Mualliflar

Nodira Isamuxamedova, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti dotsenti;
Saida Irgasheva, Millat Umidi universiteti katta o‘qituvchisi;
Durdona Sayidazimova, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti kafedra mudiri;
Zamira Abdujabbarova, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori;
Yayra Abdurayimova, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi;
Kamola Alimova, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi;
Nilufar Muhammedova, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti kafedra mudiri;
Dina Mamirbayeva, Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti dotsenti, kafedra mudiri;
Gulnoza Nasirova, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti dotsenti;
Rozaliya Ziryanova, Millat Umidi universiteti o‘qituvchisi.

Minnatdorchilik

Biz O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan barcha oliy ta’lim muassasalariga Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘rganishni jadallashtirish (AELLCA) tadbirlari va tashabbuslarida faol ishtiroki etganliklari, shuningdek, qo‘shgan hissalari va bildirgan fikr-mulohazalari uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga, xususan, Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i Husan Ganiyevga doimiy qo‘llab-quvvatlovi uchun minnatdorchilik izhor etamiz. Shu bilan birga, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetiga, universitet rektori doktor Xilola Umarovaga hamda Transformatsiya ishlari bo’yciha prorektor Raxmonjon Axmadjonovga institutsional qo‘llab-quvvatlovlari uchun alohida tashakkur bildiramiz. Shuningdek, NILE maslahatchilari, Uve Pol, Margit Sestay, Liza Mann va Zarina Subhonga o‘zlarining yuqori malakali ekspertlik maslahatlari va yo‘l-yo‘riqlari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Jamoa nomidan, shuningdek, Britaniya Kengashining doimiy qo‘llab-quvvatlovi uchun, ayniqsa, Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi direktori Maykl Xoulgeytga, loyiha menejeri Sadokat Khojaevaga, loyiha koordinatorlari Nigora Karimova va Mashkura Tursunovaga mazkur loyihani muvofiqlashtirishdagi fidokorona xizmatlari va ko‘rsatgan yordamlari uchun samimiy tashakkur izhor etamiz.

1. Kirish

Mazkur ta’lim dasturi va qo‘llanma Buyuk Britaniya hukumatining xalqaro taraqqiyot departamenti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilayotgan Britaniya Kengashining “Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘rganishni jadallashtirish” (Accelerating English Language Learning in Central Asia - AELLCA) loyihasi doirasida tayyorlangan. Mazkur tashabbus Markaziy Osiyo mamlakatlarida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini sohaviy va muvofiqlashtirilgan islohotlar orqali mustahkamlashga alohida e’tibor qaratadi.

Ushbu qo‘llanma mazkur jarayonning mahsuli hisoblanib, O‘zbekistondagi pedagog kadrlarni tayyorlash sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli maslahatlashuvlar, salohiyatni oshirishga qaratilgan tadbirlar, ta’lim dasturlari va o‘quv rejalari tahlili va institutsional hamkorlik natijalariga tayanadi. Qo‘llanmani tayyyorlash jarayonida 50 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi professor-o‘qituvchilari, kafedra mudirlari va talabalar ishtirokida turli muhokamalar va maslahatlashuvlar tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan muntazam strategik muloqotlar olib borildi. Qo‘llanma milliy ta’lim tizimi xususiyatlari bo‘yicha chuqur bilim va tajribaga ega mahalliy ekspertlar tomonidan Buyuk Britaniyaning Norvich til ta’limi instituti (Norwich Institute for Language Education) xalqaro maslahatchilari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Bu esa mazkur hujjatning xalqaro standartlarga muvofiqligi va mahalliy ehtiyojlarga mosligini ta’minlashga xizmat qildi.

Mazkur qo‘llanma bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarinining zamonaviy ta’lim muhitida faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyalar, pedagogik mahorat va kasbiy qadriyatlar bilan ta’minlashga qaratilgan “Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi dasturini taqdim etadi. Qo‘llanmada ta’lim dasturining tuzilishi, o‘quv rejasi, dasturni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi pedagogik tamoyillari, baholash strategiyalari hamda sifatni ta’minlash mexanizmlari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Ta’lim dasturi ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda an’anaviy filologik ta’limga yo‘naltirilgan modeldan kompetensiyaviy ta’lim va kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tishni nazarda tutadi. Dasturda o‘rganilayotgan til kompetensiyasi, amaliy tilshunoslik va o‘qitish metodikasining o‘zaro integrallashuviga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu jarayon o‘z navbatida bosqichma-bosqich tashkil etilgan pedagogik amaliyot va refleksiv kasbiy rivojlanish bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Ushbu qo‘llanma oliy ma’lumotli pedagog kadrlarni tayyorlash tizimining asosiy manfaatdor tomonlari, xususan, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, kafedra mudirlari, ta’lim muassasalari rahbarlari hamda ta’lim sifatini ta’minlash va baholashga mas’ul vakolatli organlar uchun mo‘ljallangan. U ta’lim dasturini amaliyotga samarali joriy etish va muntazam takomillashtirish bo‘yicha yagona manba vazifasini bajaradi.

Qo‘llanma ta’lim dasturining shaffofligini, izchilligini va u haqida barcha manfaatdor tomonlarda umumiy yakdil tushunchaning shakllanganligini ta’minlashga xizmat qilib, uning samarali amalga oshirilishi va doimiy ravishda takomillashtirib borilishiga ko‘maklashadi.

2. Dastur haqida umumiy ma’lumot

Ushbu bo‘lim “Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi dasturining umumiy tavsifini taqdim etadi va ta‘lim dasturining asosnomasidan boshlanadi. Shundan so‘ng Dastur bo‘yicha ta‘lim natijalari (DTN) keltiriladi; ular bo‘lajak o‘qituvchilar dastur yakuniga qadar egallashi kutilayotgan aniq ko‘nikmalar, bilimlar va kompetensiyalarni belgilab beradi. So‘ng bitiruvchi kompetensiyalari, kasbiy faoliyat imkoniyatlari hamda ta’lim dasturida o‘qishga qabul qilish talablari keltiriladi. 1-bo‘lim dastur bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumotlarni qayerdan olish mumkinligi va tegishli aloqa ma‘lumotlari bilan yakunlanadi.

Daraja	Bakalavr	**Davomiyligi**	4 yil
Ta’lim shakli	Kunduzgi, Kechki		
Bilim sohasi	Ta’lim	**Kodi**	100 000
Ta’lim sohasi	Ta’lim	**Kodi**	110 000
Ta’lim yo‘nalishi	Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili)	**Kodi**	60 110 900
Dastur boshlanishi	2026-2027	**Umumiy kreditlar**	240 ECTS
Akademik bo‘linma			
So‘nggi yangilanish		**Yangilovchi organ**	Universitet kengashi

2.1 Konsepsiya

“Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi dasturi avvalo yuqori malakali, refleksiv mushohada yurituvchi va xalqaro mezonlar asosida faoliyat yurituvchi ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashga qaratilib, bunda ularning tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik sohalari bo‘yicha chuqur akademik bilimga, ko‘nikma va malakalarga ega mutaxassis sifatida oliy ta’limni tamomlashiga alohida e’tibor qaratiladi. Dastur unda tahsil oluvchi talabalarning ingliz tili bo‘yicha yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga (Umumevropa kompetensiyalari (CEFR) bo‘yicha C1 darajani egallashni) ega bo‘lishini ta’minlash bilan bir qatorda ingliz tili tizimi, amaliy tilshunoslik, diskurs tahlili, adabiyot, tarjima nazariyasi va til vositachiligi asoslari bo‘yicha bilimlar majmuini egallashlarini ta’minlaydi. Ushbu komponentlar dasturning asosiy yo‘nalishi hisoblangan til o‘qitish metodikasi, darslarni rejalashtirish, baholash savodxonligi, inklyuziv ta’lim, sinfni boshqarish hamda tadqiqotlarga asoslangan pedagogik amaliyotni qo‘llab-quvvatlaydi.

Dastur ingliz tili ta’limi sohasidagi zamonaviy global tendensiyalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari, ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatidagi o‘rni, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, barqaror rivojlanish tamoyillari, inklyuzivlik va tenglikka asoslangan ta’lim amaliyotlari, shuningdek raqamli hamda sun’iy intellekt texnologiyalari vositalaridan oqilona foydalanish kabi yo‘nalishlar dastur mazmuniga singdirilgan. Dastur nazariy bilimlarni kasbiy amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda pedagogik amaliyot, o‘quv materiallarni yaratish, refleksiv tahlil va hamkorlikda o‘rganish orqali talabalarning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Dasturning maqsadi bitiruvchilarni turli ta’lim muhitlarida ingliz tilini samarali o‘qitish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, tahliliy kompetensiyalar va axloqiy qadriyatlar bilan ta’minlash va shu bilan birga ularni tilshunoslik, tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik hamda xalqaro kommunikatsiya sohalaridagi kasbiy faoliyatga ham

tayyorlashdan iborat.

Dastur tillar bo‘yicha bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash va tilshunoslik sohasida xalqaro miqyosda e’tirof etilgan standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan. Jumladan, dasturni ishlab chiqishda Buyuk Britaniya “O‘qituvchilar standartlari” (Teachers‘ Standards, 2011), “InTASC standartlari” (AQSH) hamda TESOL International tashkilotining ingliz tili o‘qituvchilari uchun belgilangan standartlariga tayanilgan. Shuningdek, dastur Xorijiy tilni bilishning “Umumeyvropa kompetensiyasi: o‘rganish, o‘rgatish, baholash (CEFR)”, jumladan uning Qo‘shimcha jildi (Companion Volume), hamda “Til o‘qituvchilari tayyorlash bo‘yicha Yevropa profili” (European Profile for Language Teacher Education) kabi xalqaro standart, yo‘riqnoma va me’yorlarga murojaat etgan holda yaratilgan.

Dasturda tenglik, xilma-xillik va inklyuzivlik (Equality, Diversity and Inclusion) tamoyillari gender tengligi masalalariga ta’sirchan pedagogika, inklyuziv ta’lim muhitlari va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Dastur, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan ham uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, dastur mazmuni 4-Maqsad – Sifatli ta’lim (SDG 4), 5-Maqsad – Gender tengligi (SDG 5), 10-Maqsad – Tengsizlikni qisqartirish (SDG 10), hamda 4.7-vazifa hisoblanmish, “Global fuqarolik, madaniyatlararo anglashuv va barqaror rivojlanishni targ‘ib qilish” kabi ustuvor yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, dasturni ishlab chiqishda va uni mazmunan boyitishda YUNESKOning bir qator xalqaro hujjatlari va tavsiyalari inobatga olingan. Jumladan, “Global fuqarolik ta’limi (Global Citizenship Education)”, “O‘qituvchilarning AKT bo‘yicha kompetensiyalari modeli (ICT Competency Framework for Teachers)”, “YUNESKOning o‘qituvchilar va talabalar sun’iy intellekt kompetensiyalari modeli (UNESCO AI Competency Frameworks for Teachers and Students)” kabi hujjatlar asosida raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona, inklyuziv va mas’uliyat bilan foydalanish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Dastur, shuningdek, Buyuk Britaniyaning Oliy ta’limda sifatni ta’minlash agentligi (Quality Assurance Agency for Higher Education, UK) ning “Tillar, tilshunoslik va ta’lim fan sohalari bo‘yicha minimal talablari”ga mos tarzda yaratilgan hamda Buyuk Britaniya “Oliy ta’lim malaka darajalari ramkasi (Framework for Higher Education Qualifications – FHEQ)”ning 6-darajasi talablariga muvofiqligi ta’minlangan. Ayniqsa, tanqidiy tahlil, mustaqil izlanish olib borish, kasbiy faoliyatiga oid mustaqil qarorlar qabul qilish va axloqiy mas’uliyatni namoyon etish bilan bog‘liq talablar dasturning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

2.2 Ta’lim dasturi maqsadlari

Ta’lim dasturining maqsadlari (DM): Ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari erishishi nazarda tutilgan keng qamrovli maqsadlar va natijalar.

DM1	**Fan sohasi va pedagogik mazmunga oid bilimlarni chuqur o‘zlashtirish (Ingliz tili hamda tilshunoslik sohasidagi bilimlar)**	Bitiruvchilar CEFRning C1 darajasiga muvofiq ingliz tilini yuqori darajada egallaganligini namoyish etadilar, til tizimlari, diskurs va til qo‘llanilishi bo‘yicha keng qamrovli bilimlarga ega bo‘ladilar hamda ushbu bilimlarni til o‘qitish, kasbiy muloqot, tarjima, tahrir va ta’lim sohalarida samarali qo‘llay oladilar.

DM2	**Pedagogikaga oid bilimlar va pedagogik amaliyot**	Bitiruvchilar dalillarga asoslangan til o‘qitish metodikalarini qo‘llagan holda ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha qiziqarli va samarali ta’lim jarayonlarini rejalashtiradi, amalga oshiradi hamda baholay oladilar.
DM3	**Inklyuziv va moslashuvchan ta’lim materiallarini ishlab chiqish**	Bitiruvchilar shaxsga yo‘naltirilgan, inklyuziv va gender masalalariga ta’sirchan o‘quv materiallari hamda o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular bu jarayonda turli xil ta’limiy ehtiyojlarni hisobga oladi va ingliz tili darslarida barcha ta’lim oluvchilarning teng ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.
DM4	**Kasbiy etika, raqamli fuqarolik va professional mas’uliyat**	Bitiruvchilar o‘z faoliyatida axloqiy xulq-atvor namunasini namoyon etadilar, kasbiy halollik tamoyillariga amal qiladilar, raqamli, media va sun’iy intellekt savodxonligiga ega bo‘ladilar hamda ingliz tili ta’limi jarayonida madaniyatlararo anglashuv va global fuqarolik g‘oyalarini faol targ‘ib qiladilar.
DM5	**Samarali muloqot va ta’lim sohasidagi hamkorlik**	Bitiruvchilar ta’lim oluvchilar, hamkasblari, ota-onalar va mahalla hamjamiyatlari bilan samarali muloqot qiladilar hamda ular bilan qo‘llab-quvvatlovchi va inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish maqsadida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yadilar.
DM6	**Baholash va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish**	Bitiruvchilar ta’lim oluvchilarning rivojlanishini baholashga va sinfda qabul qilinadigan qarorlarni asoslashga xizmat qiluvchi adolatli, ishonchli va maqsadga muvofiq til baholash amaliyotlarini ishlab chiqadilar hamda amaliyotga tatbiq etadilar.
DM7	**Hayot davomida ta’lim olish va refleksiv amaliyot**	Bitiruvchilar o‘zlarining o‘qitish samaradorligini oshirish hamda ingliz tili ta’limi sohasidagi yangiliklar va rivojlanishlardan xabardor bo‘lib borish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlanish va refleksiv amaliyot bilan muntazam shug‘ullanadilar.
DM8	**Ilmiy tadqiqot, izlanuvchanlik va tanqidiy fikrlash**	Bitiruvchilar til va ingliz tilini o‘rganish hamda o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda tadqiqot ko‘nikmalari va tanqidiy fikrlashni qo‘llaydilar hamda kasbiy amaliyotnining takomillashuviga hissa qo‘shadilar.
DM9	**Ta’limda global va mahalliy ehtiyojlarga moslashuvchanlik**	Bitiruvchilar rivojlanishning global tendensiyalari va mahalliy ta’lim ehtiyojlariga javob bera oladilar, ingliz tili bo‘yicha o‘quv rejalari, o‘qitish yondashuvlari va ta’lim materiallarini mahalliy kontekstlarga moslashtirib amalga oshiradilar hamda tildan mas’uliyatli va madaniy jihatdan sezgir tarzda foydalanishni targ‘ib qiladilar.

2.3 Dastur bo‘yicha ta’lim natijalari

DTN 1	Akademik ta’lim, kasbiy muloqot va o‘qitish faoliyatini olib borish uchun ingliz tilini bo‘yicha CEFR C1 darajasida tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini namoyish etish.	DM1, DM5
DTN 2	Tilshunoslik va amaliy tilshunoslik tushunchalari asosida ingliz tilining leksik, grammatik, fonologik va diskurs xususiyatlarini tahlil qilish hamda ushbu bilimlarni til tahlili, til vositachiligi va pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonlarida qo‘llash.	DM1, DM8
DTN 3	Til o‘rganish, pedagogika va ta’lim psixologiyasining asosiy nazariyalari haqida tanqidiy xabardorlikni namoyish etish hamda ularning ta’lim amaliyotiga muvofiqligiga baho bera olish.	DM1, DM2, DM8
DTN 4	Til o‘qitishga oid turli yondashuvlarni baholay olish hamda ularni ta’lim oluvchilarning yoshi, ta’limiy ehtiyojlari va o‘qitish kontekstlariga muvofiq o‘quv materiallarini ishlab chiqish, moslashtirish va baholashda qo‘llash.	DM2, DM3, DM9
DTN 5	Ta’lim natijalari va ta’lim standartlariga muvofiq bo‘lgan mantiqiy izchillikka ega ingliz tili darslari hamda darslar ketma-ketligini rejalashtirish, tashkil etish va ularning samaradorligini baholash.	DM2, DM5
DTN 6	Samarali sinf boshqaruvi, ta’lim oluvchilarni jalb qilish strategiyalari va turli ta’lim ehtiyojlariga ta’sirchan yondashuvlar orqali xavfsiz, inklyuziv, gender masalalariga ta’sirchan va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash.	DM3, DM9
DTN 7	Haqqoniylik, ishonchlilik, adolatlilik va ta’lim natijalariga muvofiqlik tamoyillariga asoslangan holda formativ va summativ baholash topshiriqlarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va ularning samaradorligiga baho berish.	DM6
DTN 8	Global fuqarolik, barqaror rivojlanish va madaniyatlararo kompetensiya tamoyillarini ingliz tilini o‘qitish mazmuni va amaliyotiga singdirish.	DM4, DM9
DTN 9	Raqamli va mediaviy kompetensiyalarni namoyon etish maqsadida ta’lim texnologiyalari, jumladan sun’iy intellektga asoslangan vositalarga tanqidiy baho berish va integratsiya qilish hamda ulardan ta’lim olish, o‘qitish, baholash va kasbiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda oqilona va mas’uliyat bilan foydalanish.	DM4
DTN 10	Ta’imga oid tadqiqot va izlanishlarni amalga oshirish, tegishli ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish hamda o‘zining ta’lim olishi va kasbiy faoliyati bo‘yicha refleksiv mushohada yuritish orqali ta’lim oluvchining mustaqilligini namoyish etish va o‘z uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash.	DM6, DM7, DM8
DTN 11	Hamkorlikka asoslangan kasbiy faoliyatda ishtirok etish, axloqiy va kasbiy me’yorlarga rioya qilish hamda ta’lim hamjamiyatlari va darsdan tashqari faoliyatlarga mas’uliyat bilan hissa qo‘shish.	DM4, DM5, DM7

2.4 Dasturning pedagogik tamoyillari

Mazkur dastur uning tarkibidagi fanlar mazmunini ishlab chiqish, o‘qitish amaliyoti va baholash jarayonlarini yo‘naltirib turuvchi bir qator pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar refleksiv fikrlovchi, mustaqil ta’lim olish qobiliyatiga ega va kasbiy jihatdan yetuk ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Talabalarning mavjud tajribasidan kelib chiqish

Bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim dasturida taxsil olishni boshlar ekan ushbu jarayonga til o‘rganish bo‘yicha avvalgi tajribalari, shuningdek o‘qitish va ta’lim olishga oid o‘z qadriyatlari, qarashlari va e’tiqodlari bilan kirib keladilar. Dasturda talabalarning ushbu tajribalari qimmatli manba sifatida e’tirof etiladi va ko‘pincha muhokama, tahlil hamda kasbiy rivojlanish uchun boshlang‘ich nuqta vazifasini bajaradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi

Dastur shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvni targ‘ib qiladi. Bunda talabalar, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va tajribalari ta’lim jarayonining markaziga qo‘yiladi. Mazkur yondashuv faol ishtirokni, jalb etilganlikni va ta’lim uchun mas’uliyatni rag‘batlantiradi.

Tajribaga asoslangan ta’lim

Ta’lim ko‘pincha shaxsiy yoki jamoaviy tajribadan boshlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar amaliy faoliyatlarda ishtirok etadilar, o‘z tajribalari haqida refleksiv mushohada yuritadilar va ushbu tajribalarini chuqurroq anglab yetishga yetaklovchi xulosalar yasaydilar. Bu jarayon orqali ular yangi pedagogik g‘oyalar va kasbiy bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirib boradilar.

Hamkorlik va birgalikda ta’lim olish

Dasturda hamkorlik va kasbiy hamjihatlikka alohida e’tibor qaratiladi. Mashg‘ulotlarda juft bo‘lib ishlash, guruhda bajariluvchi topshiriqlar va hamkorlikka asoslangan loyihalar kabi turli faoliyat turlaridan qo‘llanilib, talabalarning kelgusi kasbiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tanlov imkoniyatlarini kengaytirish

Talabalar, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilar o‘qitish, o‘rganish va qarorlar qabul qilishning turli yondashuvlarini o‘rganishga rag‘batlantiriladi. Turli nuqtayi nazarlar va strategiyalarni tahlil qilish orqali ular kelgusida o‘z pedagogik faoliyatida asoslangan kasbiy qarorlar qabul qilishda o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytirib boradilar.

Nazariya va amaliyot integrallashuvi

Dastur ta’lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan o‘qitish metodikalariga tayanadi. Unda nazariya va amaliyot o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilar turli o‘qitish yondashuvlarini amaliy jihatdan sinab ko‘radilar, ular haqida refleksiv mushohada yuritadilar va mustahkam nazariy tushuncha hamda asoslangan kasbiy mulohazalarini shakllantiradilar.

Til muloqot vositasi sifatida

Ta’lim dasturi tarkibiga kiruvchi barcha fanlarda o‘rganilayotgan tilga nisbatan qonun-qoidalar tizimi emas balki muloqot vositasi sifatida qaraladi. Dastur talabalarning o‘rganilayotgan tildan mazmunli foydalanishini hamda o‘z kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishga rag‘batlantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ehtiyojlarini hisobga olish

Dasturning maqsadi nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning ingliz tili bo‘yicha kompetensiyasini rivojlantirish, balki ularni o‘qituvchilik kasbining amaliy talablariga ham tayyorlashdan iborat. An’anaviy filologiyaga yo‘naltirilgan ta’lim dasturi va o‘quv rejasidan farqli ravishda, mazkur ta’lim dasturi darslarni rejalashtirish, o‘quv materiallarini ishlab chiqish, sinfni boshqarish va baholash vositalarini yaratish kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga urg‘u beradi. Bu yondashuv bitiruvchilarning samarali pedagogik faoliyat uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Mustaqil ta’lim ko‘nikmalari va ta’lim oluvchi avtonomiyasini rivojlantirish

Dastur mustaqil ta’lim ko‘nikmalari va talaba avtonomiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Talabalarning mustaqil ta’lim oluvchiga aylanishi vaqt talab qilishini hisobga olgan holda, ayrim fanlar ularga o‘z o‘quv faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash strategiyalarini o‘rgatadi hamda maktab ta’limidan OTMdagi akademik faoliyatga o‘tish jarayonini yengillashtiradi. Talabalar bo‘lg‘usi o‘qituvchilar sifatida bu ko‘nikmalarni o‘z o‘quvchilarida ham shakllantirishni o‘rganadilar. Mustaqil ta’lim alohida vazifalar orqali emas, balki kundalik o‘quv faoliyatining ajralmas qismi sifatida rivojlantiriladi.

Refleksiv amaliyot va uzluksiz kasbiy rivojlanish

Mazkur ta’lim dasturi refleksiv amaliyotni o‘qituvchi kasbiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim jarayoni va pedagogik amaliyot davomida o‘z tajribalari haqida muntazam refleksiv mushohada yuritish odatini shakllantiradilar. Refleksiya yakka tartibda yoki hamkorlikda muhokamalar, kundaliklar va maxsus refleksiv topshiriqlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon ularga o‘z tajribalarini tahlil qilish, hamkasblaridan o‘rganish va ilmiy asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Natijada ular butun kasbiy faoliyati davomida o‘z ustida ishlaydigan va uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlarida faol ishtirok etadigan refleksiv amaliyotchilarga aylanadilar.

Inklyuziv va teng imkoniyatli ta’lim

Dastur ta’lim oluvchilarning xilma-xilligini e’tirof etuvchi va qadrlaydigan inklyuziv hamda barcha uchun teng imkoniyatlar yaratuvchi pedagogik amaliyotlarni targ‘ib qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar barcha ta’lim oluvchilar, ularning kelib chiqishi, qobiliyatlari, tili yoki ta’limiy ehtiyojlaridan qat’i nazar hurmat qilinishi, qo‘llab-quvvatlanishi va to‘liq ishtirok etishi mumkin bo‘lgan ta’lim muhitlarini yaratishga o‘rgatiladi. Dastur inklyuziv pedagogika, tabaqalashtirilgan ta’lim va turli ta’limiy ehtiyojlarga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Texnologiyalar va sun’iy intellektdan oqilona va mas’uliyat bilan foydalanish

Dastur ta’limda sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan va tanqidiy foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar sun’iy intellekt bo‘yicha bazaviy savodxonlikka erishadilar hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan darslarni rejalashtirish, o‘quv materiallarini ishlab chiqish va baholash jarayonlarini tashkil etishda foydalanishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, ular sun’iy intellekt imkoniyatlari va cheklovlariga tanqidiy baho bera olish, sun’iy intellekt faoliyatidagi ehtimoliy taasubni aniqlash hamda undan o‘qitish va o‘rganish jarayonini samarali tashkil qilish va takomillashtirish maqsadida oqilona foydalanishni o‘rganadilar.

O‘rganish, o‘qitish va baholashning konstruktiv muvofiqligi

Dasturda o‘quv faoliyati natijalari, o‘qitish va o‘rganish faoliyatlari hamda baholash usullarining o‘zaro konstruktiv muvofiqligi ta’minlanadi. Bunday muvofiqlik yaxlit va izchil ta’lim tajribasini yaratishga xizmat qiladi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quv topshiriqlari va baholash jarayonlarining maqsadini aniq tushunish imkonini beradi.

Baholashga faqatgina o‘quv faoliyati natijalariga erishilganlik darajasini aniqlash vositasi sifatida emas, balki mazmunli qayta aloqa va refleksiya orqali ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi sifatida qaraladi. Shu tariqa baholash talabalarning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini, o‘z faoliyatini tahlil qilishini va keyingi rivojlanishini rag‘batlantiradi.

2.5 Baholash strategiyasi

“Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi dasturining baholash strategiyasi talabalarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim natijalariga erishilganlik darajasini baholash hamda adolatlilik, shaffoflik va akademik halollikni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Baholash topshiriqlari dastur va fanlarning o‘quv faoliyati natijalariga muvofiq holda tuziladi hamda talabalarda tanqidiy fikrlash, o‘rganilayotgan til kompetensiyasi va bilimlarni akademik hamda kasbiy kontekstlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Baholash turlari

Dastur doirasida talabalarning o‘quv faoliyati natijalariga erishganligining turli jihatlarini baholash va ularga o‘z bilim hamda ko‘nikmalarini turli shakllarda namoyon etish imkonini berish maqsadida baholashning xilma-xil usullaridan foydalaniladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Adabiyot tahlillari, lingvistik tadqiqotlar, tahliliy hisobotlar va kichik ko‘lamli tadqiqot loyihalari kabi tadqiqotga asoslangan kurs ishlari.
- Talabalarning gapirish ko‘nikmalari va g‘oyalarni aniq hamda samarali ifodalash qobiliyatini baholashga qaratilgan taqdimotlar va og‘zaki topshiriqlar.
- Tinglab tushunish va integrallashgan tinglab-tushunish–gapirish topshiriqlari, jumladan og‘zaki axborot (masalan, asosiy g‘oyalar, muhim ma’lumotlar, so‘zlovchining munosabati)ni talqin qilish va unga xulosa qilish, og‘zaki taqdimot yoki tuzilgan nutqiy topshiriqlar orqali javob berish imkonini beruvchi topshiriqlar.

- Matn tahlili, qisqacha mazmun bayoni va akademik hamda kasbiy matnlarga tanqidiy munosabat bildirish kabi oʻqish va yozishga asoslangan baholash topshiriqlari.
- Pedagogik tushunchalarni tanqidiy tahlil qilish, oʻqitish yondashuvlari boʻyicha asoslangan fikr yuritish va kasbiy muloqot koʻnikmalarini baholashga qaratilgan debatlar hamda tuzilgan ogʻzaki topshiriqlar.
- Talabalarning yigʻma (kumulyativ) oʻquv faoliyati natijalarini namoyon etish va oʻz akademik rivojlanishi haqida refleksiv mushohada yuritish imkonini beruvchi loyihalar va portfoliolar.
- Tadqiqot natijalarini taqdim etish qobiliyatini rivojlantiruvchi poster taqdimotlari va akademik konferensiya uslubidagi taqdimotlar.
- Talabalarga til koʻnikmalarini real hayotiy muloqot vaziyatlarida qoʻllash imkonini beruvchi podkastlar, multimedia taqdimotlari yoki TED uslubidagi chiqishlar kabi ijodiy va autentik topshiriqlar.
- Kommunikativ kompetensiya va kasbiy muloqot koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan rolli oʻyinlar va simulyatsiyalar.
- Talabalarni oʻz oʻquv faoltyati jarayonlari va tajribalari xususida tanqidiy refleksiv mushohada yuritishga undaydigan refleksiv esseler va oʻquv kundaliklari.
- Talabalarning pedagogik bilimlarni amaliyotda qoʻllash qobiliyatini baholashga qaratilgan darslarni rejalashtirish, oʻquv materiallarini ishlab chiqish va oʻquv faoliyatlarini loyihalash topshiriqlari.
- Talabalarga modellashtirilgan yoki real sinfxona sharoitida darslarni rejalashtirish, tashkil qilish va tahlil qilish imkonini beruvchi mikro oʻqitish (microteaching) mashgʻulotlari va dars namoyishlari.
- Pedagogik onglilik va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan oʻquv qoʻllanmalarini tahlil qilish, dars rejalarini baholash va baholash vositalarini tanqidiy tahlil qilish kabi baholash topshiriqlari.
- Testlar, rubrikalar va CEFR talablariga muvofiq baholash vositalarini ishlab chiqishni oʻz ichiga olgan baholash vositalarini loyihalash topshiriqlari.
- Sinfdagi amaliyotga asoslangan tadqiqotlar va oʻrganish ishlari, jumladan tadqiqot vositalarini ishlab chiqish va pedagogik amaliyot natijalari boʻyicha hisobot tayyorlash.
- Tegishli hollarda pedagogik amaliyot davomida amalga oshiriladigan baholash ishlari va refleksiv hisobotlar.
- Oʻz pedagogik amaliyotini tadqiq qilish qobiliyatini namoyon etuvchi yakuniy bitiruv malakaviy ishi (bakalavr dissertatsiyasi).

Baholashning turli usullaridan foydalanish talabalarning bilimlari, tahliliy fikrlashi, muloqot koʻnikmalari, ijodkorligi va kasbiy faoliyatga tayyorligini qamrab olgan keng koʻlamli kompetensiyalar boʻyicha xolis va har tomonlama baholanishini ta’minlaydi.

Formativ va summativ baholash

Dasturda ta’lim jarayonini qoʻllab-quvvatlash va talabalarning oʻquv faoliyati natijalariga erishganlik darajasini baholash maqsadida formativ va summativ baholash usullarini uygʻunlashtiruvchi tizimdan foydalaniladi.

- Formativ baholash ta’lim jarayoni davomida qoʻllanilib, talabalarning bilim va koʻnikmalarini takomillashtirishga yordam beruvchi qayta aloqani taqdim etishga xizmat qiladi. Formativ baholashga qoralama variantdagi topshiriqlar, auditoriyadagi faoliyatlari, tengdoshlar qayta aloqasi (peer feedback), qisqa testlar va refleksiv

kundaliklar misol bo‘la oladi.

- Summativ baholash fan yoki muayyan o‘quv davri yakunida talabalarning ko‘zlangan o‘quv faoliyati natijalariga qay darajada erishganligini baholash uchun qo‘llaniladi. Bunday baholash shakllariga yakuniy esseler, imtihonlar, taqdimotlar va portfoliolar kiradi.

Mazkur muvozanatli yondashuv baholashning nafaqat o‘quv faoliyati natijalarini o‘lchash vositasi, balki talabalarning uzluksiz ta’lim olishi, rivojlanishi va takomillashishiga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Ta’lim natijalariga muvofiqlik

Baholash topshiriqlari har bir fanning va umuman ta’lim dasturida nazarda tutilgan o‘quv faoliyati natijalariga muvofiq ravishda ishlab chiqiladi. Har bir o‘quv faoliyati natijasi talabalarga tegishli bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni namoyon etish imkonini beruvchi mos baholash usullari orqali baholanadi.

Bunday muvofiqlik o‘qitish, o‘rganish faoliyatlari va baholash jarayonlari o‘rtasidagi izchillikni ta’minlaydi hamda talabalarga baholash topshiriqlarining maqsadi, mazmuni va ulardan kutilayotgan natijalarni aniq tushunish imkonini beradi. Shu tariqa baholash jarayoni o‘quv faoliyati natijalariga erishishni samarali qo‘llab-quvvatlaydi va talabalarning maqsadli o‘quv faoliyatini rag‘batlantiradi.

Baholash tamoyillari

Dasturdagi baholash amaliyoti quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- Adolatlilik va shaffoflik – baholash mezonlari, talablar va baholash tartib-qoidalari talabalarga aniq va tushunarli tarzda yetkaziladi.
- Ishonchlilik va izchillik – baholash natijalarining barqarorligi va xolisligini ta’minlash maqsadida moderatsiya jarayonlari hamda aniq baholash mezonlaridan foydalaniladi. Bu turli fanlar va baholovchilar o‘rtasida baholashning izchilligini ta’minlaydi.
- Validlik (maqsadga muvofiqlik) – baholash topshiriqlari ko‘zlangan ta’lim natijalari va talabalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni baholashga yo‘naltirilgan holda ishlab chiqiladi.
- Hayotiylik – imkoniyat darajasida baholash topshiriqlari tildan foydalanish va akademik faoliyatning real hamda mazmunli vaziyatlarini aks ettiradi. Bu talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini akademik, kasbiy va ijtimoiy muloqotga yaqin bo‘lgan sharoitlarda qo‘llash imkonini beradi.
- Ijobiy ta’sir (Positive Washback) – baholash ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Topshiriqlar talabalarni fan mazmuni bilan faol ishlashga, tildan mazmunli foydalanishga va tanqidiy fikrlashga undaydi, shu orqali baholash ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Jarayonga yo‘naltirilgan baholash – dasturda faqat yakuniy natija emas, balki o‘quv jarayonining o‘zi ham muhim deb qaraladi. Shu sababli talabalar ko‘pincha bosqichma-bosqich bajariladigan topshiriqlar, ishlarning qoralama nusxalari, portfoliolar va refleksiv ishlar orqali baholanadilar. Bu ularning ma’lum vaqt davomidagi rivojlanishini namoyon etish imkonini beradi.
- Chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv – baholash topshiriqlari yuzaki yodlashdan ko‘ra chuqur anglashni rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqiladi.

Talabalar matnlarni tahlil qilish, g‘oyalarni sintez qilish, dalillarni talqin qilish va lingvistik hamda adabiy tushunchalarni tanqidiy baholashga rag‘batlantiriladi.

- Inklyuzivlik – baholash usullari talabalarning turli ehtiyojlarini hisobga oladi hamda barcha ta’lim oluvchilar uchun o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyon etishda teng imkoniyatga ega ekanligini kafolatlaydi.
- Akademik halollik – dastur axloqiy akademik amaliyotlarni targ‘ib qiladi va manbalardan hamda raqamli vositalardan mas’uliyat bilan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi.
- Rivojlantiruvchi qayta aloqa – talabalarga ularning akademik va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi konstruktiv qayta aloqa taqdim etiladi.

Ushbu tamoyillar orqali baholash strategiyasi talabalarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash bilan birga akademik standartlarga rioya qilish va ta’minlashga ham xizmat qiladi hamda bitiruvchilarning dasturda belgilangan kompetensiyalarni muvaffaqiyatli egallashlarini ta’minlaydi.

2.6 O‘qitish, o‘rganish va baholashda Sun’iy Intellekt (SI)

Dastur sun’iy intellektni (SI) o‘qitish, ta’lim olish va baholash jarayonlariga integratsiya qilishda strategik va mas’uliyatli yondashuvni qo‘llaydi. Uning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanuvchi mutaxassislar, balki tanqidiy fikrlaydigan, axloqiy tamoyillarga amal qiluvchi va refleksiv amaliyotchilar sifatida ham tayyorlashdan iborat.

Mazkur yondashuv “YUNESKOning o‘qituvchilar va talabalar sun’iy intellekt kompetensiyalari modeli (UNESCO AI Competency Frameworks for Teachers and Students)” bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lib, unda sun’iy intellekt savodxonligi, axloqiy xabardorlik va mas’uliyatli foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, baholashni loyihalashtirishda sun’iy intellektdan foydalanish darajalarini belgilashga xizmat qiluvchi “AIAS (Baholashda sun’iy intellektdan foydalanish shkalasi - Artificial Intelligence Assessment Scale)” kabi zamonaviy yondashuvlar ham hisobga olinadi. Ta’lim sohasidagi global tendensiyalarga muvofiq ravishda dastur sun’iy intellektni ham pedagogik vosita, ham tanqidiy tahlil obyekti sifatida e’tirof etadi. Bu yondashuv ta’lim oluvchilarga sun’iy intellektning til o‘rganish, muloqot va kasbiy faoliyatga ta’sirini anglash imkonini beradi. Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha xalqaro tavsiyalarga muvofiq, dastur sun’iy intellekt ta’siriga bardoshli va kelajakka yo‘naltirilgan baholash amaliyotlarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu quyidagi yondashuvlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashni nazarda tutadi: cun’iy intellektdan foydalanilmaydigan baholash (AI-free assessment); cun’iy intellekt yordamida bajariladigan baholash (AI-assisted assessment); cun’iy intellekt integratsiya qilingan baholash (AI-integrated assessment). Bunday yondashuv talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, sun’iy intellekt vositalari bilan samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Talabalar sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan natijalarni tanqidiy baholashga, undagi ehtimoliy taasub (bias) va kamchiliklarni aniqlashga, shuningdek, sun’iy intellektdan ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash maqsadida axloqiy va mas’uliyatli tarzda foydalanishga o‘rgatiladi. Bunda sun’iy intellektga ta’lim olishning o‘rnini bosuvchi vosita emas, balki uni boyituvchi va qo‘llab-quvvatlovchi resurs sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv orqali dastur bitiruvchilarni turli ta’lim muhitlarida sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalana oladigan, akademik halollik tamoyillariga amal qiladigan va pedagogik jihatdan asoslangan qarorlar qabul qiladigan mutaxassislar sifatida

tayyorlaydi.

2.7 Tenglik, xilma-xillik, inklyuziya va barqaror rivojlanish

Dastur o‘quv rejasini ishlab chiqish, o‘qitish, ta’lim olish va baholashning barcha jihatlarida tenglik, xilma-xillik va inklyuziyani targ‘ib qilishga sodiq qoladi. U jinsi, tili, madaniy kelib chiqishi, qobiliyati yoki ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan qat’i nazar, barcha talabalarga teng imkoniyatlar yaratish va ta’lim olishda muvaffaqiyat qozonishi mumkin bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi hamda hurmatga asoslangan ta’lim muhitini yaratishni maqsad qiladi.

Dastur gender tenligi masalalariga ta’sirchan va teng imkoniyatlarga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llaydi. Bu esa o‘z navbatida barcha talabalar uchun ta’lim olish imkoniyatlaridan adolatli foydalanishni ta’minlash va ularning faol ishtirokini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dastur mazmuni xilma-xillikka hurmat, madaniyatlararo anglashuv va ta’lim hamda kasbiy faoliyatda inklyuziv muloqot madaniyatini targ‘ib qiladi.

Inklyuziv amaliyotlar dasturning barcha tarkibiy qismlariga singdirilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilar tabaqalashtirilgan ta’lim, moslashuvchan o‘qitish strategiyalari va barcha uchun qulay bo‘lgan o‘quv materiallari orqali o‘quvchilarning turli ta’limiy ehtiyojlarini anglash va ularga munosib javob berishga tayyorlanadilar.

O‘qitish yondashuvlari shaxsga yo‘naltirilgan va ishtirokka asoslangan metodlarga urg‘u beradi. Bu yondashuvlar talabalarning jalb etilganligini, hamkorligini va teng ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi. Baholash amaliyotlari esa adolatli, shaffof va inklyuziv tarzda tashkil etilib, talabalarga o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini namoyon etish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Dastur talabalarni inklyuziv ta’lim va o‘rganish uchun universal dizayn (Universal Design for Learning) tamoyillari bilan tanishtiradi hamda ularni kelgusidagi pedagogik faoliyatida turli ta’limiy ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash strategiyalari bilan ta’minlaydi.

Dastur Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lib, dastur mazmuni quyidagi maqsadlarga erishishga muayyan darajada xizmat qiladi:

- 4-maqsad: Sifatli ta’lim – kompetent, refleksiv va inklyuziv ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash orqali;
- 5-maqsad: Gender tengligi – gender tengligi masalalariga ta’sirchan pedagogik yondashuvlar va teng ishtirokni rag‘batlantirish orqali;
- 10-maqsad: Tengsizlikni qisqartirish – inklyuziv ta’limni rivojlantirish va o‘quvchilarning turli ta’limiy ehtiyojlarni hisobga olish orqali;
- 4.7-vazifa – global fuqarolik, madaniyatlararo anglashuv va barqaror rivojlanish tamoyillarini o‘qitish va ta’lim olish jarayonlariga integratsiya qilish orqali.

O‘quv rejasi va uning tarkibidagi pedagogik amaliyotlar orqali mazkur ta’lim dasturi mahalliy va global kontekstlarda inklyuziv hamda barqaror ta’limning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlay oladigan ijtimoiy mas’uliyatli pedagoglarni tayyorlashga hissa qo‘shadi.

Dastur global fuqarolik va madaniyatlararo samarali muloqot kompetensiyalarini ingliz tilini o‘qitishning muhim tarkibiy qismlari sifatida rivojlantirishni ko‘zlaydi. Talabalar turli nuqtayi

nazarlar bilan tanishishga, madaniyatlardagi farqlar xususida refleksiv mushohada yuritishga va tildan madaniyatlar o‘rtasida mazmunli muloqot vositasi sifatida foydalanishga rag‘batlantiriladi.

Ushbu jihatlar o‘quv mashg‘ulotlari, pedagogik amaliyot va auditoriyadagi faoliyat turlariga integratsiya qilingan bo‘lib, ochiq fikrli, axloqiy ongga ega va globallashuv sharoitida mas’uliyat bilan ishtirok eta oladigan o‘quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

2.8 Ta’lim sifatini ta’minlash va takomillashtirish

“Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim dasturi institutsional sifatni ta’minlash siyosati va oliy ta’limning milliy standartlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Dastur O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimiga muvofiqlashtirilgan bo‘lib, oliy ta’limda sifatni ta’minlashning zamonaviy milliy va xalqaro yondashuvlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Sifatni ta’minlash dasturning butun hayotiy sikliga singdirilgan bo‘lib, dasturni loyihalashtirish, ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonlari aniq belgilangan institutsional tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarga professor-o‘qituvchilar, talabalar, tashqi ekspertlar va boshqa manfaatdor tomonlar jalb qilinib, bu orqali o‘quv rejasining dolzarbligi, akademik jihatdan talabchanligi hamda til ta’limi va adabiyotshunoslik sohasidagi o‘zgarishlarga mosligi ta’minlanadi.

Dastur sifati quyidagi mexanizmlar orqali ta’minlanadi:

- dasturning muntazam monitoringi;
- o‘quv rejasini davriy qayta ko‘rib chiqish;
- talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tahlil qilib borish;
- talabalar qayta aloqasini tizimli ravishda yig‘ish va tahlil qilish.

Shuningdek, bitiruvchilar, ish beruvchilar va hamkor ta’lim muassasalaridan olinadigan qayta aloqa ham hisobga olinadi. Bu dasturning ta’lim sohasi va mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Baholash jarayonlari talabalarning o‘quv faoliyati natijalarini baholashda adolatlilik, shaffoflik va izchillikni ta’minlash maqsadida tashkil etiladi. Baholashni moderatsiya qilish tartiblari va aniq baholash mezonlari baholash qarorlarining ishonchliligini ta’minlaydi hamda fanlar bo‘yicha akademik standartlarni ta’minlashga yordam beradi.

Sifatni uzluksiz takomillashtirish quyidagi chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

- professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi;
- ta’lim dasturini o‘xshash ta’lim dasturlari bilan taqqoslash va qiyoslash;
- til ta’limi va raqamli ta’lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar bilan muntazam tanishib borish va ularni joriy etish.

Mazkur jarayonlar dasturning sohadagi rivojlanishlarga moslashuvchanligini ta’minlaydi hamda o‘qitish va o‘rganish sifati yuqori darajada saqlanishiga xizmat qiladi.

3. Ta’lim dasturi malaka talablari

“Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi dasturi O‘zbekiston Respublikasining Milliy malakalar ramkasi, ish beruvchilar talablari va ehtiyojlariga asoslanadi. Ta’limning barcha shakllari uchun o‘quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi.

“Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarni yuqori darajadagi til kompetensiyasiga, amaliy tilshunoslik bo‘yicha bilimlarga, inklyuziv va gender masalalariga ta’sirchan pedagogik amaliyot, baholash savodxonligiga hamda turli ta’lim muhitlarida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlarni integratsiya qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, refleksiv fikrlaydigan va kasbiy jihatdan yetuk ingliz tili o‘qituvchilari sifatida tayyorlaydi. Shu bilan birga, dastur bitiruvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan muntazam shug‘ullanishlarini ham nazarda tutadi.

3.1 Dastur bo‘yicha malaka talablarining qamrovi

Malaka talabi 60110900-Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

3.2 Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari

Ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari quyidagi asosiy foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

3.3 Kasbiy faoliyatlarning tavsifi

Kasbiy faoliyat sohalari

Bitiruvchilar bir qator yo‘nalishlar va sohalarda kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin, jumladan:

- **Maktabgacha va maktab ta’limi –** Bitiruvchilar davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Ular ingliz tilining asosiy ko‘nikmalari hisoblanmish o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirishni o‘qitadilar, ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ko‘maklashadilar hamda o‘quvchilarni milliy va xalqaro imtihonlarga tayyorlaydilar;

- **Kasbiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim –** Bitiruvchilar akademik litseylar, kollejlar va texnikumlar kabi professional ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishlari mumkin. Bunday muassasalarda ular umumiy ingliz (General English) tilini o‘qitish bilan birga muayyan kasbiy sohalar uchun mo‘ljallangan ingliz tili kompetensiyalarini rivojlantirishga ham ko‘maklashadilar;

- **Ta’lim sohasidagi tadqiqotlar va innovatsiyalar –** Bitiruvchilar universitetlar, tadqiqot markazlari yoki ta’limni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishlari mumkin. Ular tadqiqot assistenti sifatida ma’lumot to‘plash, adabiyotlar tahlilini amalga oshirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va tadqiqot hisobotlarini tayyorlash ishlarida qatnashadilar.

- **Ta’lim materiallari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish –** Bitiruvchilar maktablar, til dasturlari yoki ta’lim loyihalari uchun ingliz tili bo‘yicha o‘quv dasturlari, ta’lim materiallari va o‘quv resurslarini ishlab chiqish va moslashtirish ishlarida ishtirok etishlari mumkin. Bunda bitiruvchilar ularning ta’lim natijalari va ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlashga hissa qo‘shadilar;

- **O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi –** Pedagogik tajribaga ega bo‘lgan bitiruvchilar ta’lim muassasalari yoki rivojlantirish loyihalari tomonidan tashkil etiladigan treninglar, seminarlar va mentorlik dasturlarida ishtirok etib, ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashlari mumkin;

- **Tarjima va til xizmatlari –** Bitiruvchilar ta’lim, institutsional yoki boshqa kasbiy sohalarda tarjimon sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Ular ingliz tili va mahalliy tillar o‘rtasida yozma va og‘zaki muloqotni ta’minlash vazifalarini bajaradilar;

- **Nashriyotchilik, tahrir va kontent yaratish –** Bitiruvchilar nashriyotlar, ommaviy axborot vositalari yoki ta’limiy nashriyotlarda muharrir, musahhih yoki kontent yaratuvchi sifatida ishlashlari mumkin. Ular ingliz tilidagi matnlar va ta’lim materiallarini tahrir qilish, tekshirish va nashrga tayyorlash bilan shug‘ullanadilar;

- **Ta’lim va xalqaro loyihalarni qo‘llab-quvvatlash –** Bitiruvchilar vazirliklar, ta’lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, til markazlari yoki xalqaro tashkilotlarda dastur assistenti yoki koordinator sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Ular manfaatdor tomonlar o‘rtasida muloqotni tashkil etish, o‘quv tadbirlarini muvofiqlashtirish va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash vazifalarini bajaradilar;

- **Korporativ kommunikatsiya va treninglar –** Bitiruvchilar muloqot tili sifatida ingliz tilidan foydalanadigan xususiy kompaniyalar va tashkilotlarda ishlashlari mumkin. Ular til bo‘yicha maslahat va ko‘mak ko‘rsatish, biznes ingliz tili bo‘yicha treninglar o‘tkazish hamda xalqaro hamkorlar bilan muloqot jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash vazifalarini bajaradilar.

Kasbiy faoliyatlarning obyektlari

- umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional ta’lim muassasalari;
- Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi idoralar;
- ta’limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalari;
- davlat boshqaruv organlari;
- nodavlat va notijorat jamoat birlashmalari va tashkilotlari;
- Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi tashkilotlari.

Kasbiy faoliyatlarning turlari:

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bakalavriat ta’lim yoʻnalishi bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir boʻlishi mumkin:

- **Pedagogik faoliyat –** turli ta’lim muassasalarida ingliz tilini oʻqitishni rejalashtirish, tashkil etish va baholash. Bu faoliyat dars rejalarini ishlab chiqish, mos oʻqitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish, kommunikativ ta’limni tashkil etish hamda ta’lim oluvchilarning chet til rivojlanishini baholashni oʻz ichiga oladi;

- **Metodik va oʻquv dasturlarini ishlab chiqish faoliyati –** ingliz tili boʻyicha oʻquv rejalari, fan dasturlari, oʻquv materiallari va baholash vositalarini ishlab chiqish, moslashtirish va ularning samaradorligiga baho berish. Mazkur faoliyat tegishli oʻqitish yondashuvlarini tanlash va ularning ta’lim standartlari hamda ta’lim natijalariga muvofiqligini ta’minlash kabilarni qamrab oladi;

- **Sinfdagi tadqiqot faoliyati –** ingliz tilini oʻqitish, tilshunoslik va ta’lim sohalarida tadqiqotlarni amalga oshirish yoki ularni qoʻllab-quvvatlash. Bu tadqiqot muammolarini aniqlash, ma’lumot toʻplash va tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni oʻrganish hamda tadqiqot hisobotlari yoki ilmiy nashrlarni tayyorlashni oʻz ichiga oladi;

- **Ta’lim va loyihalarni boshqarish faoliyati –** ta’lim muassasalari yoki loyihalar doirasida ta’lim dasturlari, treninglar va akademik tadbirlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish. Bu dasturlarni amalga oshirishni qoʻllab-quvvatlash, ta’lim jarayonlarini monitoring qilish va sifatni ta’minlash jarayonlariga hissa qoʻshishni oʻz ichiga oladi;

- **Kasbiy rivojlanish va trening faoliyati –** oʻqituvchilar va ta’lim sohasi mutaxassislari uchun kasbiy rivojlanish tashabbuslarida ishtirok etish va ularni qoʻllab-quvvatlash. Bu oʻz ichiga seminarlar, treninglar, mentorlik faoliyati va innovatsion pedagogik amaliyotlarni ommalashtirish jarayonlarida ishtirok etish kabilarni oladi;

- **Tarjima va til vositachiligi faoliyati –** ta’lim, kasbiy yoki institutsional muhitlarda yozma tarjima va ogʻzaki tarjimonlik xizmatlarini koʻrsatish, shuningdek turli tillarda soʻzlashuvchilar oʻrtasida samarali muloqotni ta’minlash;

- **Tahrir va kontent ishlab chiqish faoliyati –** nashrlar, ommaviy axborot vositalari yoki raqamli platformalar uchun ingliz tilidagi matnlar va ta’limiy kontentni koʻrib chiqish, tahrir qilish va nashrga tayyorlash. Bunda materiallarning til jihatidan aniqligi, ravonligi va koʻzlangan auditoriyaga mosligi ta’minlanadi;

- **Kommunikatsiya va madaniyatlararo hamkorlik faoliyati –** ingliz tilidan hamkasblar,

ta’lim oluvchilar, xalqaro hamkorlar va tashkilotlar bilan kasbiy muloqotda samarali foydalanish hamda ta’lim va kasbiy muhitlarda madaniyatlararo anglashuvni rivojlantirishga koʻmaklashish.

3.4 Kasbiy vazifalar

60110900-Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yoʻnalishi boʻyicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir boʻlishi lozim:

1. Pedagogik faoliyatda

- DTS va MOʻDlarining maqsadlariga muvofiq oʻquv reja ishlab chiqish, oʻquvchilaming ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib oʻquv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga koʻra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, oʻquv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;
- Ta’lim oluvchilarning tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozish koʻnikmalarini rivojlantirish uchun mos til oʻqitish metodikalarini qoʻllash;
- Grammatika, leksika, talaffuz va diskursni mazmunli kommunikativ kontekstlarda oʻqitish;
- Til rivojlanishi va madaniyatlararo muloqotni shakllantirishni qoʻllab-quvvatlash maqsadida adabiy, madaniy va boshqa autentik matnlardan foydalanish;
- Interaktiv, hamkorlikka asoslangan va shaxsga yoʻnaltirilgan oʻquv faoliyatlarini tashkil etish;
- Ta’lim oluvchilarning rivojlanishini formativ va summativ baholashning turli usullari orqali baholash hamda konstruktiv qayta aloqa berish;
- Ta’lim oluvchilarning motivatsiyasi, tanqidiy fikrlash va mustaqil ta’lim olish koʻnikmalarini rivojlantirish;
- Ta’lim oluvchilarning xilma-xilligini hurmat qiluvchi xavfsiz, inklyuziv va qoʻllab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash;
- Til oʻrganish, baholash va qayta aloqa berish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan vositalardan oqilona va mas’uliyat bilan foydalanish;
- Ta’lim oluvchilarning yutuqlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida hamkasblar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik qilish.

2. Ilmiy-tadqiqot va kasbiy izlanish faoliyatida

- Ingliz tilini oʻqitish, tilshunoslik va adabiyot sohalarida sinfdagi faoliyatga asoslangan hamda amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish;
- Amaliy tilshunoslik, til oʻqitish pedagogikasi va ta’lim texnologiyalari sohasidagi rivojlanishlarni tahlil qilish hamda tegishli natijalarni pedagogik amaliyotga integratsiya qilish;
- xorijiy tillarni oʻrganish jarayoni, oʻquvchi motivatsiyasi va oʻqitish samaradorligiga oid ma’lumotlarni yigʻish, qayta ishlash va tizimli tahlil qilish;
- xorijiy til va adabiyotiga doir tadqiqot natijalarini amaliy dars jarayoniga tatbiq etish va til oʻqitish sifatini oshirishda foydalanish qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- Kasbiy faoliyat samaradorligiga baho berish va takomillashtirish maqsadida refleksiv faoliyat bilan shug‘ullanish;
- Kasbiy muloqotlar, seminarlar, konferensiyalar va ta’limga oid tashabbuslarida faol ishtirok etish hamda ularga hissa qo‘shish.

3. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida

- o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo‘llay olish;
- Ta’lim amaliyotida akademik halollik va kasbiy odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilish;
- Madaniy xilma-xillikka hurmat ko‘rsatish, inklyuzivlik va madaniyatlararo anglashuvni targ‘ib qilish;
- Ta’lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash, mas’uliyat bilan muloqot qilish va akademik halollik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- Ta’lim va tarbiya jarayonlarida raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellektdan oqilona va mas’uliyat bilan foydalanishni targ‘ib qilish;
- Kasbiy xulq-atvor namunalarini ko‘rsatish va ta’lim muhitida o‘zgalarga ijobiy o‘rnak bo‘lib xizmat qilish

4. Tashkiliy, boshqaruv va ta’limiy qo‘llab-quvvatlash faoliyatida

- Ta’lim dasturlari va loyihalarini rejalashtirish hamda amalga oshirish bo‘yicha institutsional jarayonlarda ishtirok etish;
- O‘qitish, ta’lim olish va baholash bilan bog‘liq sifatni ta’minlash jarayonlariga hissa qo‘shish;
- Darsdan tashqari til o‘rganish faoliyatlari, tanlovlar va ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Ta’lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida hamkasblar va ta’lim muassasasining boshqa manfaatdor tomonlari bilan hamkorlik qilish;
- Pedagogik kompetensiyalarni ta’minlash va yanada rivojlantirish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlanish faoliyatida ishtirok etish.

5. Ta’limni loyihalash va o‘quv materiallarini ishlab chiqish faoliyatida

- Ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari va ta’lim kontekstlarini tahlil qilish orqali samarali til o‘rganish faoliyatlarini loyihalash;
- Dars rejalari, sinfda bajariladigan topshiriqlar va o‘quv materiallarini ishlab chiqish hamda moslashtirish;
- Ta’lim natijalariga muvofiq baholash topshiriqlari va ularni qo‘llab-quvvatlovchi hujjatlarni ishlab chiqish;
- O‘quv rejalarini takomillashtirish va til ta’limi dasturlarini rivojlantirish jarayonlariga hissa qo‘shish.

6. Tahliliy va hisobotlar tayyorlash faoliyatida

- O‘qitish strategiyalari va ta’lim faoliyatlarining samaradorligini baholash;
- Pedagogik qarorlarni dalillarga asoslangan holda qabul qilish maqsadida ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish natijalariga oid ma’lumotlarni tahlil qilish;
- Pedagogik amaliyot bo‘yicha tahliliy va refleksiv hisobotlarni tayyorlash;
- O‘qitish, o‘rganish va baholash jarayonlariga oid institutsional hujjatlarni tayyorlash va yuritish ishlariga hissa qo‘shish.

7. Kasbiy amaliyot faoliyatida

- Pedagogik bilimlar va til sohasidagi kasbiy kompetensiyalarni turli ta’lim kontekstlarida samarali qo‘llash;
- O‘qitish yondashuvlarini turli toifadagi ta’lim oluvchilar, ularning tayyorgarlik darajalari va ta’limiy ehtiyojlariga moslashtirish;
- Til o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tegishli ta’lim texnologiyalari va raqamli vositalardan samarali foydalanish;
- Ta’lim muassasasining ichki siyosatlari, milliy ta’lim standartlari va kasbiy-me’yoriy talablarga rioya etilishini ta’minlash.
- O‘qitish, o‘rganish va baholash jarayonlariga oid kasbiy hujjatlarni aniq va to‘g‘ri yuritish.

3.5 Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar

Xorijiy tillar va adabiyot(Ingliz tili) mutaxassisligi bitiruvchisi zamonaviy ta’lim tizimining talablariga javob beradigan yuqori malakali pedagog sifatida shakllanishi uchun quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

Kommunikativ kompetensiya: Umumevropa kompetensiyalarining C1 darajasiga muvofiq og‘zaki va yozma ingliz tilida aniq, to‘g‘ri va ravon muloqot qilishning yuqori darajadagi ko‘nikmalarini namoyish etish, akademik va kasbiy kontekstlarda g‘oyalar, dalillar va kasbiy mulohazalarni samarali ifodalash.

Tilshunoslikka oid xabardorlik va lingvistik kompetensiya: Ingliz tili tizimlari, amaliy tilshunoslik va adabiy matnlar bo‘yicha chuqur bilimlarni namoyish etish hamda ushbu bilimlarni kasbiy faoliyatning barcha jabhalarida qo‘llash.

Pedagogik va psixologik kompetensiya: Ta’lim nazariyalari, ta’lim oluvchilarning fiziologik, psixologik rivojlanishi, motivatsiyasi va individual farqlari tamoyillarini xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi va samarali tashkil etilgan ta’lim muhitini rejalashtirish hamda boshqarishda qo‘llash. Samarali sinf boshqaruvi strategiyalarini namoyish etish va ta’lim oluvchilarning farovonligi, ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki hamda sinfdagi o‘zaro ijobiy munosabatlarini rag‘batlantirish.

Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha metodik kompetensiya: Turli ta’lim kontekstlarida til ko‘nikmalari va til sathlarini samarali o‘qitish uchun ingliz tilini o‘qitishga xos metodikalar va til o‘rganish tamoyillarini qo‘llash. O‘quv rejasi talablari, ta’lim standartlari va ko‘zlangan ta’lim natijalariga muvofiq darslar hamda o‘quv faoliyatlari ketma-ketligini rejalashtirish, loyihalash va tashkil etish. Ta’lim oluvchilar ehtiyojlari va mavjud shart-sharoitlarga mos o‘quv materiallarini ishlab chiqish, moslashtirish va ularning samaradorligiga bahola berish. Ta’lim oluvchilar xususiyatlari, kontekstual omillar va dalillarga asoslangan amaliyotni hisobga olgan holda pedagogik yondashuvlarni tanlash va asoslash orqali mazmunli til rivojlanishini ta’minlash.

Baholash va qayta aloqa berish kompetensiyasi: Ta’limni qo‘llab-quvvatlash, rivojlanishni monitoring qilish va konstruktiv qayta aloqa berish maqsadida adolatli va ishonchli til baholash amaliyotlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va ularning samaradorligiga baho berish.

Inklyuzivlik, madaniyatlararo muloqot va global fuqarolik kompetensiyasi: O‘quvchilarda gender, nogironlik, ijtimoiy-iqtisodiy holati, til va madaniyati bilan bog‘liq xilma-xillikni hurmat qiluvchi hamda hisobga oluvchi inklyuziv, teng imkoniyatlarga asoslangan va madaniy

jihatdan ta’sirchan ta’lim muhitini yaratish. Ingliz tilini o‘qitish amaliyotiga global fuqarolik, barqaror rivojlanish, madaniyatlararo anglashuv, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy adolat tamoyillarini integratsiya qilish orqali ta’lim oluvchilarning mahalliy va global jamiyatlarda faol va mas’uliyat bilan ishtirokini qo‘llab-quvvatlash.

Tadqiqot va refleksiv amaliyot kompetensiyasi: Sinfdagi faoliyatga asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirish, ta’limga oid ma’lumotlarni tahlil qilish va kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida refleksiv amaliyot bilan muntazam shug‘ullanish.

Raqamli va mediaviy kompetensiya: O‘qitish, ta’lim olish, muloqot va kasbiy vazifalarni bajarishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan oqilona, mas’uliyat bilan va samarali foydalanish.

Kasbiy va axloqiy kompetensiya: Kasbiy halollik va axloqiy mas’uliyatni namyish etish, hamkasblar va ta’lim sohasidagi boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik qilish, uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan shug‘ullanish hamda o‘zgarib borayotgan ta’lim standartlari, siyosatlari va ijtimoiy talablarga moslasha olish.

4. Ta’lim dasturi o‘quv rejasi, tuzilishi va mazmuni

Ushbu bo‘limda ta’lim dasturini loyihalash tamoyillari hamda dasturning majburiy va tanlov fanlar kabi tarkibiy qismlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu bo‘limda to‘rt yillik batafsil o‘quv reja keltirilib, unda dasturda taqdim etiluvchi modullarning o‘quv rejasida qanday integratsiyalashgani ko‘rsatiladi.

Taklif etilayotgan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan o‘quv reja ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashning an’anaviy filologik yondashuvidan chekingan holda kasbiy yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan modeliga o‘tishni maqsad qiladi.

O‘quv rejasi ingliz tili o‘qituvchilarida kasbiy o‘zlikning bosqichma-bosqich shakllanishini aks ettiruvchi rivojlantiruvchi va kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan. U spiralsimon tuzilishga ega bo‘lib, bilim va ko‘nikmalar to‘rt yillik ta’lim davomida izchil ravishda tanishtiriladi, qayta takrorlanadi va chuqurlashtiriladi. Bu esa dasturning yaxlitligi va kompetensiyalarning kumulyativ rivojlanishini ta’minlaydi.

Ta’limning birinchi yilda dasturning asosiy e’tibori talabalarning ingliz tili bo‘yicha kompetensiya va akademik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilib, ular o‘quv rejaning taxminan 25 foizini (60 ECTS) tashkil etadi. Ushbu mustahkam poydevor talabalarga yuqori bosqichlarda taqdim etiladigan murakkabroq akademik, lingvistik va pedagogik materiallarni samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mustaqil ta’lim olish va akademik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan modullar talabalarning oliy ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta’limning ikkinchi yilida talabalarning chet til kompetensiyasini rivojlantirish davom ettirilib, pedagogik bilimlarning dastlabki asoslari shakllantiriladi. Talabalar umumiy ta’lim va til o‘rganish jarayonlarida qo‘llaniluvchi pedagogik hamda psixologik nazariyalar bilan tanishadilar. Shuningdek, ular grammatika, leksika va talaffuz kabi til sathlarini kommunikativ maqsadlarda o‘qitish usullari bilan tanisha boshlaydilar. Bu bosqichda, shunigdek, sinfda qo‘llaniladigan til va sinfdagi o‘zaro muloqotga doir asosiy tamoyillari ham o‘rgatiladi, bu esa o‘z navbatida keyingi yillardagi amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim uchun zarur bo‘lgan mustahkam poydevorni yaratadi.

Ta’limning uchinchi yili kasbiy faoliyatga integratsiya va real sinf sharoitidagi vazifalarga tayyorgarlikka bag‘ishlangan bo‘lib, darslarni rejalashtirish, sinfni boshqarish va til ko‘nikmalari integratsiyasi kabi aspektlarni qamrab oladi. Ta’lim jarayonida pedagogik amaliyot markaziy o‘rinni egallay boshlaydi va talabalarga darslarni kuzatish, mustaqil ravishda darslarni tashkil etishga urinib ko‘rish hamda o‘z tajribalari xususida refleksiv mushohada yuritish imkoniyatlari taqdim etiladi. Bu bosqichda asosiy e’tibor nazariyani qo‘llashdan ko‘ra, talabalarning haqiqiy sinf muhitidagi faol ishtiroklari orqali o‘zlarining pedagogik mahorati va amaliy “nou-xau”larini shakllantirishlariga qaratiladi.

Ta’limning to‘rtinchi yili dasturning yakunlovchi bosqichi hisoblanib, bu bosqichdagi materiallar va o‘quv jarayoni talabalarni o‘qituvchilik kasbiga o‘ziga ishonch hissi bilan kirib borishga tayyorlaydi. Bu bosqichda mustaqil dars o‘tish, sinfdagi amaliyotga asoslangan tadqiqotlar va refleksiv amaliyot asosiy o‘rinni egallaydi. Talabalar ta’lim jarayonini rejalashtirish, o‘qitish va baholash uchun to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar hamda tajriba va refleksiv mushohada orqali o‘zlarining shaxsiy pedagogik yondashuvlarini takomillashtiradilar. Bu jarayon bitiruv malakaviy ishi orqali yanada mustahkamlanadi, chunki u talabalarga o‘z amaliyotlarini tadqiq qilish va amaliyotga yo‘naltirilgan izlanishlar olib

borish imkonini taqdim etadi. Mazkur komponentlar bitiruvchilarning ta’lim muassasalarida mustaqil faoliyat yuritishga tayyorgarlligini ta’minlaydi.

Dastur davomida til kompetensiyasini rivojlantirish modullari (~25%) va metodika modullari (24%) ingliz tilida o‘qitiladi. Bu talabalarning o‘rganilayotgan tilda doimiy va mazmunli muloqotini ta’minlab, talabalarning pedagogik mazmunni o‘zlashtirishini ta’minlash bilan bir qatorda til kompetensiyalarini ham rivojlantirishlariga xizmat qiladi. Bunday integrallashgan yondashuv minimal talablardan yuqori natijalarga erishish hamda bitiruv pallasiga kelib ularning o‘rganilayotgan tilni kamida CEFR C1 darajasida egallashlariga ko‘maklashadi.

O‘quv rejasi shuningdek, tilshunoslik va adabiyotga oid modullarni (taxminan 10%) o‘z ichiga oladi. Ular talabalarga zarur sohaviy bilimlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, umumiy va qo‘llab-quvvatlovchi modullar (taxminan 17-18%) talabalarning kengroq akademik, madaniy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bir necha semestr davomida o‘tiluvchi pedagogik amaliyot nazariya va amaliyotning bosqichma-bosqich integrallashuvini ta’minlab, kuzatuvdan mustaqil o‘qitishgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘quv rejasiga inklyuziv ta’lim, raqamli va sun’iy intellekt savodxonligi, global fuqarolik va axloqiy mas’uliyat kabi kesishuvchi ustuvor yo‘nalishlar ham integratsiya qilingan bo‘lib, bu bitiruvchilarni mahalliy va global miqyosdagi zamonaviy ta’lim muammolariga munosib javob bera oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o‘quv rejasining tuzilishi o‘rganilayotgan til kompetensiyasidan pedagogik mahorat va kasbiy amaliyotgacha bo‘lgan muvozanatli hamda izchil rivojlanishni ta’minlab, refleksiv fikrlovchi, malakali va o‘zgaruvchan ta’lim muhitlariga moslashuvchan ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi.

4.1 Majburiy modul (fan)lar

Asosiy (majburiy) fan - bu talabaning muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturi talablarini bajarishi uchun majburiy tarzda o‘zlashtirishi shart bo‘lgan fandir. Asosiy fanlarni joriy etishdan maqsad barcha oliy ta’lim muassasalarida yagona minimal o‘quv mazmunini ta’minlash, shu orqali har bir muassasa yoki universitet umumiy minimal akademik standartlarga rioya qilishini kafolatlashdan iborat.

Shuningdek, mazkur toifadagi fanlar talabalarda muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha egallanishi zarur bo‘lgan fundamental bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

4.2 Tanlov modul (fan)lari

Tanlov fani - bu talaba tomonidan tanlov asosida o‘zlashtiriluvchi fan bo‘lib, u muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki fan sohasiga ixtisoslashtirilgan, chuqurlashtirilgan yoki qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalarni berishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bunday fanlar talabalarga o‘z mutaxassisligi doirasida muayyan sohalar bo‘yicha bilimlarini kengaytirish, boshqa ta’lim yo‘nalishlari, fanlar yoki sohalar bilan tanishish, shuningdek, kasbiy kompetensiyalari, qobiliyatlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

4.3 Ta’lim yo‘nalishi o’quv rejasi: asosiy va tanlov modul(fan)lari

Dasturda Yevropa kredit transfer tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) qo‘llaniladi. Ushbu tizim o‘quv dasturlarini turli universitetlar o‘rtasida tushunarli va taqqoslanadigan holga keltiradi. To‘liq bir o‘quv (akademik) yil 60 kreditga teng bo‘lib, bu

taxminan 1 500-1 800 soatlik o‘quv va amaliyot soatiga teng. Kreditlar nazariy ta‘lim, amaliy tayyorgarlik va tadqiqot faoliyati o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiradi hamda xalqaro miqyosda tan olinishi mumkin.

Modul (fan) kodlari tuzilishi

Barcha modul (fan) kodlari xalqaro standart formatda beriladi: PREFIKS+YIL(1-4)+SEMESTR KODI (10 yoki 11). 10=o‘quv yilining birinchi semestri | 11 = o‘quv yilining ikkinchi semestri. Har bir Fan kodi uchun talab etiladigan prerekvizitlar quyida ko‘rsatilgan. Tanlov fanlari uchun ajratilgan bloklar tasdiqlangan tanlov fanlari katalogidan to‘ldiriladi.

Ushbu ta’lim dasturida qo‘llaniluvchi modul kodlari prefikslari			
Kod	**Modul**	**Kod**	**Modul**
CS	Axborot texnologiyalari/Ta’lim texnologiyalari	**LANG**	Til ko‘nikmalari
DSG	Tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn	**LING**	Tilshunoslik
ED	Ta’lim/pedagogika	**LIT**	Adabiyot
ELEC	Tanlov (semestr kesimida kodlangan)	**RES**	Ilmiy tadqiqot
FLT	Ingliz tili o‘qitish	**SFL**	Ikkinchi xorijiy til
FYP	Bitiruv malakaviy loyiha	**TRAN**	Tarjimashunoslik
HASS	Ijtmioiy-gumanitar fanlar	**PRAC**	Ingliz tili ko‘nikmalari

4.4 Ta’lim dasturi o‘quv rejasi

BIRINCHI O‘QUV YILI: Fundamental bilimlar						
Semestr	**Kod**	**Fan nomi**	**Turi**	**M**	**S/A/L**	**Kredit**
1-semestr	**DSG101**	Tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn	**Majburiy**	3	2	6
	LANG102	O‘qish va yozish amaliyoti 1	**Majburiy**	0	3	4
	LANG101	Og‘zaki nutq va tinglash ko‘nikmalari 1	**Majburiy**	0	5	6
	LANG103	Amaliy gramatika va leksika 1	**Majburiy**	0	3	4
	CS100	Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar	**Majburiy**	2	3	6
	ED110	Ta’lim, jamiyat va madaniyat	**Majburiy**	1	2	4
1-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				6	18	30
2-semestr	**HASS305**	Falsafa	**Majburiy**	3	0	4
	LANG111	Og‘zaki nutq va tinglash ko‘nikmalari 2	**Majburiy**	0	5	6
	LANG112	O‘qish va yozish amaliyoti 2	**Majburiy**	0	5	6
	LANG113	Amaliy gramatika va leksika 2	**Majburiy**	0	5	6
	HASS110	O‘zbekistoning eng yangi tarixi	**Majburiy**	3	0	4
	ED111	O‘qitish va o‘rganish	**Majburiy**	1	2	4
2-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				**7**	**17**	**30**
Birinchi o‘quv yili bo‘yicha jami soatlar/kreditlar miqdori				**13**	**35**	**60**

IKKINCHI O‘QUV YILI: O‘quvchi (bolalarni) va o‘rganishni tushunish						
Semestr	**Kod**	**Fan nomi**	**Turi**	**M**	**S/A/L**	**Kredit**
3-semestr	**LANG201**	Akademik o‘qish va yozish 1	**Majburiy**	0	5	6
	LING201	Diskurs tahlili	**Majburiy**	0	5	6
	FLT201	Til o‘rganishga individual yondashuv	**Majburiy**	1	2	4
	FLT202	Chet tillarni o‘qitishda yondashuvlar va tamoyillar	**Majburiy**	1	2	4
	SFL	Ikkinchi xorijiy til 1	**Majburiy**	0	3	4
	ELEC A	Tanlov A	**Tanlov**	2	3	6
3-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				4	20	30
4-semestr	**LANG211**	Akademik o‘qish va yozish 2	**Majburiy**	0	5	6
	ED251	Inkluziv ta’lim, gospital pedagogika	**Majburiy**	1	2	4

	FLT211	Til tizimlarini o‘qitishda kommunikativ yondashuv	**Majburiy**	0	3	4
	FLT212	Auditoriya (pedagog) nutqi	**Majburiy**	0	3	4
	ED331	Ta‘lim psixologiyasi	**Majburiy**	1	2	4
	SFL	Ikkinchi xorijiy til 2	**Majburiy**	0	3	4
	ELEC B	Tanlov B	Elective	1	2	4
4-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				**3**	**20**	**30**
Ikkinchi o‘quv yili bo‘yicha jami soatlar/kreditlar miqdori				**7**	**40**	**60**

UCHINCHI O‘QUV YILI: O‘qitishni o‘rganish						
Semestr	**Kod**	**Fan nomi**	**Turi**	**M**	**S/A/L**	**Kredit**
5	**LANG301**	Profesional o‘qish va yozish kursi 1	**Majburiy**	0	3	4
	FLT301	Til ko‘nikmalarini o‘qitish va integratsiyalash	**Majburiy**	0	5	6
	FLT302	Darsni rejalashtirish va auditoriyani boshqarish	**Majburiy**	1	2	4
	SFL301	Ikkinchi xorijiy til 3	**Majburiy**	0	3	4
	PRAC301	Malakaviy amaliyot 1	**Majburiy**	0	0	6
	ELEC C	Tanlov C	**Tanlov**	2	3	6
5-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				3	16	30
6	**LANG311**	Profesional o‘qish va yozish kursi 2	**Majburiy**	0	3	4
	HASS201	Amaliy o‘zbek (rus) tili: kasbiy va ilmiy sohalarda qo‘llanilishi	**Majburiy**	0	3	4
	FLT312	Til bilish darajasini aniqlash va baholash	**Majburiy**	1	4	6
	SFL	Ikkinchi xorijiy til 4	**Majburiy**	0	3	4
	ELEC D	Tanlov D	**Tanlov**	2	3	6
	PRAC311	Malakaviy amaliyot 2	**Majburiy**	0	0	6
6-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				**3**	**16**	**30**
Uchinchi o‘quv yili bo‘yicha jami soatlar/kreditlar miqdori				**6**	**32**	**60**

TO‘RTINCHI O‘QUV YILI: O‘qituvchi bo‘lish						
Semestr	**Kod**	**Fan nomi**	**Turi**	**M**	**S/A/L**	**Kredit**
7	**RES401**	Sinfni tadqiq etish	**Majburiy**	1	2	4
	FLT401	Ingliz tilini o‘qitishda global fuqarolikni shakllantirish	**Majburiy**	1	2	4

	TRAN401	Kasbiy tarjima va til vositachiligi	**Majburiy**	1	2	4
	LING401	Ijtimoiy lingvistika va global ingliz tillari	**Majburiy**	1	2	4
	ELEC E	Tanlov E	**Tanlov**	1	2	4
	PRAC401	Malakaviy amaliyot 3	**Majburiy**	0	0	10
7-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				5	10	30
8	**ELT411**	Kichik yoshdagilarga ingliz tilini o‘qitish	**Majburiy**	1	2	4
	LIT410	Adabiyot, madaniyat va tanqidiy talqin	**Majburiy**	1	2	4
	ELEC F	Tanlov F	**Tanlov**	1	2	4
	FYP441	Bitiruv malakaviy ishi	**Majburiy**	0	2	8
	PRAC411	Malakaviy amaliyot 4	**Majburiy**	0	0	10
8-semestr bo‘yicha jami soatlar/kreditlar				**3**	**8**	**30**
To‘rtinchi o‘quv yili bo‘yicha jami soatlar/kreditlar miqdori				**8**	**18**	**60**
Ta’lim dasturi bo‘yicha jami o‘quv soatlari/kreditlari				**34**	**125**	**240**
TA’LIM DASTURI BO‘YICHA JAMI SOATLAR MIQDORI						**7200**

**M. – ma’ruza, S/A/L - seminar, amaliy, laboratoriya mashg‘uloti. Ajratilgan soatlar haftalik bo‘lib, soatlar modul xususiyatlari va talabalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qayta taqsimlanishi mumkin. Biroq modul uchun umumiy ajratilgan soatlar va kredit miqdoriga o‘zgartirish kiritilmasiligi lozim.*

*** Bir kredit bo‘lajak o‘qituvchilar/talabalar yuklamasining 30 akademik soatiga teng.*

**** “Til o‘qitishda tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn” fani til kompetensiyalarini rivojlantirish bloki fanlari qismi sifatida ingliz tilida o‘qitiladi. Umumiy holatda barcha fanlar, imkoni boricha ingliz tilida o‘qitilmog‘i lozim. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi,” “Falsafa,” “Kasbiy maqsadlarda O‘zbek (Rus tili)” va AKT fanlari bundan mustasno.*

***** Mazkur ta’lim yo‘nalishiga o‘qishini 2-o‘quv yilidan ko‘chirib o‘tkazish istagida bo‘lgan talabalardan ingliz tilini bilishning B2 darajasidagi sertifikati talab etiladi.*

Modul mazmuni **Til kompetensiyasi va lingvistik modullari**	70 (ECTS) kredit o‘rganilayotgan til kompetensiyasi va tilshunoslik bilimlar yo‘nalishiga ajratiladi. Bo‘ o‘z ichiga quyidagilarni oladi: Ingliz tili ko‘nikmalari (o‘qish, yozish, tinglash, gapirish, grammatika va leksika), akademik va professional yozish va o‘qish, diskurs tahlili, sotsiolingvistika, kasbiy tarjima va til vositachiligi, adabiyot, madaniyat va tanqidiy talqin.
Pedagogik modullar	16 (ECTS) kredit ta’lim va kasbiy amaliyot sohalariga ajratiladi. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi: ta’lim, jamiyat va madaniyat, o‘qitish va o‘rganishga tanishtiruv, ta’lim psixologiyasi, ingklyuziya va gospital pedagogika.

Ingliz tili o‘qitish metodolgiyasi modullari	40 (ECTS) kredit modulga oid pedagogika va metodologiya sohasi. Bular o‘z ichiga quyidagilarni oladi: Til o‘rganishga individual yondashuv, Chet tillarni o‘qitishda yondashuvlar va tamoyillar,Til tizimlarini o‘qitishda kommunikativ yondashuv, Til ko‘nikmalari integratsiyasi, Tilni darajasini aniqlash va baholash, Ingliz tilini o‘qitishda global fuqarolikni shakllantirish, Kichik yoshdagilarga ingliz tilini o‘qitish.
Pedagogik amaliyot	32 (ECTS) kredit pedagogik amaliyot uchun ajratiladi. Bular o‘z ichiga quyidagilarni oladi: 4 semestr davomidagi pedagogik amaliyot 1, 2, 3 va 4.
Ikkinchi xorijiy til	16 (ECTS) kredit ikkinchi xorijiy til 1, 2, 3, 4 modullari uchun ajratiladi.
Ijtimoiy-gumanitar fanlar	24 (ECTS) kredit umumiy ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun ajratiladi. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi: Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar Mediasavodhonlik va axborot madaniyati, Includes Critical-creative thinking and design, Information systems and digital technologies, History, Philosophy, Uzbek (or Russian) for Academic and Professional Purposes
Ilmiy tadqiqot	12 (ECTS) kredit o‘z ichiga Sinfni tadqiq qilish va Bitiruv malakaviy ishlarini oladi.
Tanlov fanlari	30 (ECTS) kredit tasdiqlangan tanlov modullari katalogidan olinadi. 2-4 o‘quv yili davomida 6 tanlov moduli. Talabalar o‘zlari tanlagan yo‘nalishga tegishli tanlov modullarini olishlari kerak bo‘ladi.

4.5 Tanlov modullari katalogi

Asosiy (majburiy) modullar va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan.

Tanlov fanlari guruhi	Fan kodi	Fan nomi	Kredit
ELEC-A		Zamonaviy ingliz tilshunosligi	6
		*	
		Tilshunoslikka kirish	
ELEC-B		Texnologiyalar vositasida til o‘rganish	4
		*	
		Til o‘qitishda Sun’iy Intellekt (SI)	
ELEC-C		Ingliz tilini o‘qitishda ijodkorlik	6
		*	
		Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar adabiy an’analari	
ELEC-D		O‘quv materiallarini baholash, moslashtirish va yaratish	6
		*	
		Amaliyotni qo‘llab-quvvatlash kursi	
ELEC-E		Ingliz tili o‘qitishda inklyuziya va gender tengligi	4
		*	
		O‘quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	
ELEC-F		Pedagogik yetakchilik, refleksiya va kasbiy rivojlanish	4
		*	
		Fanlararo ingliz tili (CLIL, STEAM, ESP, EMI)	

** Qo‘shimcha tanlov fanlari kiritilishi mumkin.*

4.6 Kvalifikatsiya

Ingliz tili o‘qituvchisi

Ushbu kvalifikatsiya “Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilariga berilib, mazkur kvalifikatsiya bitiruvchining quyidagi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega ekanligini tasdiqlaydi:

- Ingliz tili bo‘yicha yuqori darajadagi til kompetensiyasiga (CEFR C1 darajasi) hamda ingliz tili tizimlari va ularning qo‘llanilishi, jumladan grammatika, leksika, talaffuz va diskurs bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lish.
- Maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim hamda boshqa ta’lim kontekstlarida ingliz tilini o‘qitishni samarali rejalashtirish, tashkil etish va baholash uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilimlar va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
- Kommunikativ til o‘qitish, vazifalarga asoslangan ta’lim va mazmun hamda tilni integrallashgan holda o‘qitish kabi zamonaviy yondashuvlarni qo‘llagan holda inklyuziv, ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirilgan va kommunikativ ta’lim muhitlarini loyihalash qobiliyatiga ega bo‘lish.
- Ta’lim natijalariga mos formativ va summativ baholash amaliyotlarini qo‘llagan holda til o‘rganish jarayonini baholash va monitoring qilish kompetensiyalariga ega bo‘lish.
- Yuzma-yuz, aralash va onlayn ta’lim muhitlarida til o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalar va ta’lim resurslarini samarali integratsiya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
- Ingliz tili ta’limi sohasida refleksiv amaliyot, sinfdagi amaliyotga asoslangan tadqiqotlar va uzluksiz kasbiy rivojlanishni amalga oshirish salohiyatiga ega bo‘lish.
- Turli xil ta’lim muhitlarida kasbiy odob-axloq, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi va inklyuziv ta’lim tamoyillarini tushunish va ularga amal qilish.

Ushbu kvalifikatsiyaga ega bitiruvchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, kollejlar va boshqa ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritish huquqiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ular til ta’limi, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qituvchilarni tayyorlash, ta’lim texnologiyalari, tarjima hamda ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish sohasidagi tadqiqotlar bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim va kasbiy faoliyatni davom ettirish uchun zarur tayyorgarlikka ega bo‘ladilar.

5. Ta’lim dasturi bo‘yicha me’yoriy talablar va akademik daraja olish shartlari

5.1 Me’yoriy talablarning qo‘llanish doirasi

Mazkur qo‘llanmada keltirilgan me’yoriy talablar O‘zbekiston Respublikasi hududidagi oliy ta’lim muassasalarida taqdim etiluvchi barcha “Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilingan barcha talabalarga tatbiq etiladi.
Mazkur qo‘llanmada belgilangan me’yoriy talablar bilan oliy ta’lim muassasasining umumiy akademik qoidalari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, oliy ta’lim muassasasining akademik qoidalari ustuvor hisoblanadi.
Alohida holatlarda ta’lim jarayoni davomida dasturini taqdim etish bilan bog‘liq zarur o‘zgarishlar kiritilishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar semestrlar ketma-ketligi, baholash shakllari yoki fanlarni o‘qitish usullariga taalluqli bo‘lishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’limga oid me’yoriy hujjatlari talablariga muvofiq ravishda bunday o‘zgartishlarni kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.2 Akademik daraja haqida ma’lumot

Ta’lim dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga “Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” mutaxassisligi bo’yicha bakalavr akademik darajasi beriladi.

5.3 Bitiruv talablari

Preservice teachers must meet all the following requirements to graduate:

Talablar	Minimum
Umumiy keridtlar miqdori	**Ta’lim dasturi davomida kamida 240 kreditni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish:** *Har bir semestrda 30 kreditdan 8 semestr davomida. Talabalar ta’lim yo‘nalishini talabalar safiga qabul qilinish yilidan boshlab 8-yil ichida tamomlashlari mumkin (O‘zR VMning 2020-yil 31-dekabrdagi № 824-qaroriga muvofiq).*
Minimal o‘tish bali	*Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tartib-qoidalariga muvofiq har bir modul bo‘yicha 100 balldan kamida 60 ball to‘planganda modul muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan hisoblanadi. Modul bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 60 dan past bo‘lgan hollarda ushbu modul o‘zlashtirilmagan hisoblanadi va uni qayta o‘qish talab etiladi.*
Majburiy modullar	**Barcha majburiy (asosiy) modullar o‘qilishi va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi lozim:** *Talabalar modul bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 60 dan past, ya’ni o‘zlashtira olmagan holatlarda modul qayta o‘qilishi mumkin va bunda qayta urinishlar soniga cheklov kiritilmaydi. Modul qayta o‘qilganda tegishli shartnoma shartlari asosida tegishli miqdorda o‘qish uchun to‘lov talab etilishi mumkin.*

Amaliyot	**32 (ECTS) pedagogik amaliyot:** *Ta’lim dasturida tahsil olish mobaynida 4 ta pedagogik amaliyot real maktab sharoitlarida o‘talishi lozim: Pedagogik amaliyot 1 (6 ECTS), 2 (6 ECTS), 3 (10 ECTS) va 4 (10 ECTS).*
Bitiruv (loyihasi) malakaviy ishi	**Minimum o‘tish bali bilan tamomlanishi lozim:** *Ta’limning so‘ngi yilida FYP441 - 8 (ECTS) kredit o‘zlashtirilishi lozim. Bitiruv malakaviy ish (Loyiha) talabaning ilmiy tadqiqot kompetensiyasi va umuta’lim maktabi sharoitidagi kasbiy refleksiya ko‘nikmalarini namoyish etishi lozim.*
Bitiruv (loyihasi) malakaviy ishi himoyasi	**Bitiruv malakaviy ish (loyihani) imktihon komissiyasi huzurida og‘zaki himoya qilish:** *Talabalar o‘z bitiruv malakaviy ish (loyihasi)ni oliy ta’lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangan imtihon komissiyasi huzurida taqdimotini o‘tkazishlari va himoya qilishlari kerak bo‘ladi.*
O‘rganilayotgan til kompetensiyasi	**Bitiruvchilar quyidagilarni namoyish eta olishlari lozim:** *(1) E’tirof etilgan kvalifikatsiyalar orqali yoki ta’lim dasturidagi ichki baholash orqali ingliz tili bo‘yicha kamida CEFR C1 darajasidagi yuqori til kompetensiyasini namoyish etish va (2) auditoriyada o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish va kasbiy muloqot uchun zarur bo‘lgan darajada o‘zbek va/yoki rus tilini bilishi.*

Qo‘shimcha talablar

- Akademik, pedagogik amaliyot va oliy ta’lim tashkiloti tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni bajarish
- Qoniqarli akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish va bitiruvchilarni baholashga qo‘yilgan talablarga javob berish.

5.4 Pedagogik amaliyot talablari

Amaliyot mazmuni

Pedagogik amaliyot O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida taqdim etiluvchi “Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi dasturining majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash maqsadida maktab bazasida tashkil etilgan bosqichma-bosqich amaliy tajriba hamda OTMdagi refleksiya va kasbiy rivojlanish faoliyatlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyot davlat, nodavlat, ixtisoslashtirilgan va xalqaro ta’lim muassasalari, jumladan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda kasbiy va professional ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Bunday amaliyot bazalari talabalarga turli ta’lim muhitlari bilan tanishish va OTMda egallangan nazariy bilimlarini haqiqiy sinf sharoitida qo‘llash imkonini beradi.

Pedagogik amaliyot bosqichma-bosqich rivojlanish modeli asosida tashkil etilgan bo‘lib, unda talabalar kuzatuvchi sifatida ishtirok etishdan boshlab, o‘quv jarayoniga ko‘maklashish va keyinchalik mustaqil dars o‘tish darajasigacha rivojlanib boradilar.

Dastur quyidagi pedagogik amaliyot bosqichlarini o‘z ichiga oladi:

- Pedagogik amaliyot 1 (5-semestr) – Maktab faoliyatini kuzatish va kasbga yo‘naltirish;
- Pedagogik amaliyot 2 (6-semestr) – Yo‘naltirilgan pedagogik amaliyot;
- Pedagogik amaliyot 3 (7-semestr) – Mustaqil pedagogik amaliyot;
- Pedagogik amaliyot 4 (8-semestr) – Yakuniy (Capstone) pedagogik amaliyot.

Pedagogik amaliyot tuzilishi

Pedagogik amaliyot o‘qitish muddatining to‘rt semestr davomida amalga oshiriladi. U ta’limning 3-bosqichida (5-semestr) boshlanib, 4-bosqichning 8-semestriga qadar davom etadi. Umumiy hisobda, pedagogik amaliyot ta’lim dasturining taxminan ~14-15 foizini tashkil etishi lozim.

Har bir pedagogik amaliyot milliy “4+2” modeli asosida tashkil etiladi. Mazkur model quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Haftasiga 4 kun OTMdagi o‘quv mashg‘ulotlari va kasbiy seminarlar;
- Haftasiga 2 kun ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan pedagogik amaliyot.

Har bir pedagogik amaliyot semestr davomida 15 akademik hafta mobaynida o‘tkaziladi.

Mazkur tuzilma amaliyotchi-talabalarga nazariya va amaliyot o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash, o‘z pedagogik tajribalari yuzasidan muntazam refleksiv mushohada yuritish hamda OTMdan biriktirlgan amaliyot rahbarlari va maktabdan biriktirilgan ustoz-o‘qituvchilardan metodik ko‘mak va maslahatlar olish imkonini beradi.

Qachon	Faoliyat turi
1-7 haftalar	OTMdagi mashug‘lotlar (4 kun) + maktabdagi amaliyot: kuzatuv, o‘qitishda ko‘maklashuv va dars o‘tish (2 kun)
8-hafta	OTM professor-o‘qituvchilari bilan portfolio muhokamasi. Ushbu haftada maktablarga tashrif buyurilmaydi. Talabalar o‘z o‘zlashtirishini tahlil qilishadi va qayta aloqa olishadi.
9-15 hafta	Pedagogik amaliyot davom etadi. O‘qitish bo‘yicha vazifalar va mas’uliyat ortib boradi.
Pedagogik amaliyot yakuni	Talabalar portfoliolarini topshirishadi: dars ishlanmalari, refleksiv bayonlar, maktabdan biriktirilgan ustoz-o‘qituvchi qayta aloqasi va amaliyot hisoboti.

Pedagogik amaliyot maqsadlari

Ta’lim dasturi talabalarga:

- Pedagogik bilimlar, til oʻqitish metodikasi va taʼlim nazariyalarini haqiqiy sinf sharoitida qoʻllash.
- Darslarni rejalashtirish, til koʻnikmalarini oʻqitish, sinfni boshqarish, baholash va inklyuziv taʼlim amaliyoti boʻyicha kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish.
- Tajribali oʻqituvchilar faoliyatini kuzatish hamda sinfdagi oʻzaro muloqot, oʻqitish strategiyalari va taʼlim oluvchilarning ishtiroki xususiyatlarini tahlil qilish.
- Kuzatuv va yordamchi oʻqituvchi bosqichidan mustaqil dars oʻtish hamda taʼlim faoliyati uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish bosqichiga oʻtish.
- Pedagogik tajribalari xususida refleksiv mushohada yuritish va oʻqitish amaliyotini takomillashtirish maqsadida ustoz-oʻqituvchilar va OTMdan biriktirilgan amaliyot rahbarlarining qayta aloqasi hamda tavsiyalaridan samarali foydalanish.
- Oʻqituvchi kasbiy vazifalari va masʼuliyatlarini anglash va oʻqitish faoliyatiga nisbatan refleksiv hamda axloqiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Pedagogik amaliyot natijalari

Pedagogik amaliyot yakunida talabalar quyidagilarni amalga oshira oladilar:

- Oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirilgan va kommunikativ yondashuvlar asosida ingliz tili darslarini rejalashtirish va tashkil etish.
- Taʼlim oluvchilarning tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozish koʻnikmalarini rivojlantirishga koʻmaklashish.
- Inklyuziv, qoʻllab-quvvatlovchi va samarali boshqariladigan taʼlim muhitini yaratish va taʼminlash.
- Taʼlim oluvchilarning til rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash maqsadida formativ baholash usullarini qoʻllash va konstruktiv qayta aloqa berish.
- Amaliyotchi ustoz-oʻqituvchilar va OTM xodimlari bilan samarali hamkorlik qilish.
- Pedagogik tajribalari xususida refleksiv mushohada qilish hamda oʻqitish amaliyotini takomillashtirish maqsadida ustoz-oʻqituvchilar va OTMdan biriktirilgan amaliyot rahbarlarining qayta aloqalari va tavsiyalaridan foydalanish.
- Amaliyot davridagi kuzatuv qaydlari, dars ishlanmalari, oʻquv materiallari, olingan qayta aloqa va refleksiv qaydlarni oʻz ichiga olgan kasbiy pedagogik portfolioni shakllantirish va yuritish.

Pedagogik amaliyot 1 – Taʼlimning uchinchi yili, 5-semestr

Maqsad: Kuzatuv va kasbiy faoliyatga yoʻnaltirish

Talabalar asosan sinfdagi taʼlim jarayonini tizimli kuzatish bilan mashgʻul boʻladilar hamda haqiqiy taʼlim muhitida til oʻrganish qanday amalga oshishini anglash, tahlil qilish va refleksiv mushohada yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Ushbu bosqich faol oʻqitishdan koʻra kasbiy xabardorlikni shakllantirishga qaratilgan boʻlib, keyingi bosqichlardagi pedagogik amaliyot uchun mustahkam asos yaratadi.

- OTMdagi faoliyat (haftasiga 4 kun): til koʻnikmalarini oʻqitish va integratsiya qilish, darslarni rejalashtirish hamda sinfni boshqarish.
- Taʼlim muassasasidagi faoliyat: amaliyotchi ustoz-oʻqituvchilarning darslarini oʻqitish strategiyalari, sinfdagi oʻquvchilar bilan oʻzaro muloqot, taʼlim oluvchilarning ishtiroki

va oʻquv materiallaridan foydalanish jihatlariga qaratilgan tizimli kuzatish; kuzatuv natijalarini hujjatlashtirish; zarur hollarda sinfdagi oʻquvchilar oʻquv faoliyatini tashkillashtirishga koʻmaklashish; kichik guruhlar bilan faqat yordamchi (oʻqituvchilik vazifasini bajarmasdan) sifatida ishlash.

- 8-hafta - Portfolio muhokamasi (oraliq nazorat – ta’lim muassasasiga tashrifsiz):
- Talabalar OTMdan biriktirilgan amaliyot rahbarlari bilan uchrashib, kuzatuv hisobotlarini koʻrib chiqadilar, oʻqitish va ta’lim olish jarayonlari haqida shakllanayotgan xulosalarni muhokama qiladilar hamda sinfdagi amaliyotini tahlil qilish boʻyicha dastlabki tajribalari yuzasidan refleksiv mushohada yuritadilar.
- Amaliyot yakunida quyidagilarni oʻz ichiga olgan kuzatuvga asoslangan portfolio taqdim etiladi:
    - oʻquv mashgʻulotlari kuzatuvi hisobotlari;
    - kuzatilgan darslar tuzilishi tahlili;
    - kuzatilgan pedagogik amaliyotlar boʻyicha refleksiv sharhlar;
    - amaliyotchiga biriktirilgan ustoz-oʻqituvchining qayta aloqasi va tavsiyalari.

Pedagogik amaliyot 2 – Ta’limning uchinchi yili, 6-semestr

Maqsad: Yoʻnaltirilgan pedagogik (oʻqitish) amaliyoti.

Amaliyotchi talabalar ularga biriktirilgan ustoz-oʻqituvchilarning yaqin rahbarligi ostida darslarni rejalashtirish va tashkil etishni boshlaydilar hamda darslarni rejalashtirish, sinfni boshqarish va ta’lim oluvchilar bilan samarali muloqot qilish boʻyicha oʻzlariga boʻlgan ishonchni bosqichma-bosqich rivojlantiradilar. Ushbu bosqich kuzatuvdan yoʻnaltirilgan oʻqitish amaliyoti sari oʻtish davri hisoblanadi.

- OTMdagi faoliyat (haftasiga 4 kun): Pedagogik amaliyotni qoʻllab-quvvatlovchi asosiy fanlar va tanlov fanlari.
- Ta’lim muassasasidagi faoliyat (haftasiga 2 kun):
    - qisqa darslar yoki darsning alohida qismlarini rejalashtirish va tashkil etish
    - kommunikativ til faoliyatlarini tashkil etish va amalga oshirish
    - formativ baholashning asosiy usullarini qoʻllash
    - biriktirilgan ustoz-oʻqituvchilardan muntazam qayta aloqa va tavsiyalar olish.
- Amaliyot yakunida quyidagilarni oʻz ichiga olgan pedagogik portfolio taqdim etiladi:
    - dars ishlanmalari;
    - oʻtkazilgan darslar boʻyicha refleksiv tahlillar;
    - ishlab chiqilgan oʻquv materiallaridan namunalar;
    - biriktirilgan ustoz-oʻqituvchilar va OTMdan biriktirilgan amaliyot rahbarlarining qayta aloqalari;
    - yoʻnaltirilgan pedagogik amaliyot davomidagi kasbiy rivojlanish boʻyicha refleksiv sharh.

Pedagogik amaliyot 3 – Ta’limning toʻrtinchi yili, 7-semestr

Maqsad: Mustaqil pedagogik amaliyot va sinfni tadqiq qilish

Talabalar sinfdagi mustaqil faoliyati borasida kattaroq mas’uliyatni oʻz zimmalariga oladilar hamda sinfga asoslangan tadqiqotlar va refleksiv kasbiy rivojlanish faoliyati bilan

shug‘ullanishni boshlaydilar.

- OTMdagi faoliyat (haftasiga 4 kun): o‘quv materiallarini ishlab chiqish, test va baholash, o‘qitishda sun’iy intellekt va texnologiyalardan foydalanish, ingliz tilini o‘qitishda global fuqarolik masalalari hamda sinfni tadqiq qilishga qaratilgan mashg‘ulotlar. Talabalar elektron portfoliolarini tadqiqot natijalari, dars ishlanmalari va sinf amaliyoti bo‘yicha refleksiv tahlillar bilan muntazam boyitib boradilar.
- Ta’lim muassasasidagi faoliyat (haftasiga 2 kun):
    - darslarni mustaqil ravishda rejalashtirish va tashkil etishda asosiy rolni bajarish;
    - o‘qitish jarayonida uchraydigan muayyan muammolarni hal qilish maqsadida sinfdagi amaliyotga asoslangan tadqiqotlar yoki amaliy tadqiqotlarni (action research) amalga oshirish.
- 8-hafta – Portfolio muhokamasi (oraliq nazorat – ta’lim muassasasiga tashrifsiz):
- Talabalar OTM o‘qituvchilari bilan uchrashib quyidagilarni muhokama qiladilar:
    - mustaqil dars o‘tish va sinfdagi amaliyotlarga asoslangan tadqiqotlar bo‘yicha erishilgan natijalari;
    - dars ishlanmalari, ta’lim oluvchilar ishlaridan namunalar va biriktirilgan ustoz-o‘qituvchilar baholarining tahlili.
- Amaliyot yakunida quyidagilarni o‘z ichiga olgan yakuniy portfolio taqdim etiladi:
    - mustaqil ishlab chiqilgan dars rejalari;
    - sinfdagi amaliyotga asoslangan tadqiqotlar natijalari;
    - biriktirilgan ustoz-o‘qituvchilarning qayta aloqasi;
    - pedagogik amaliyot bo‘yicha refleksiv tahlillar va xulosalar.

Pedagogik amaliyot 4 – Ta’limning to‘rtinchi yili, 8-semestr

Maqsad: Yakuniy o‘qitish amaliyoti va kasbiy tayyorgarlik.

Ushbu pedagogik amaliyot talabalarning o‘qituvchilik faoliyatiga to‘liq tayyorligini namoyon etuvchi yakuniy kasbiy tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

- OTMdagi faoliyat (haftasiga 4 kun):
- kasbiy rivojlanish faoliyatlarida ishtirok etish; kasbiy faoliyatga tayyorgarlik va kasbiy odob-axloq masalalarini o‘rganish; portfolio yaratish va shaxsiy pedagogik falsafani shakllantirish.
- Ta’lim muassasasidagi faoliyat (haftasiga 2 kun):
- sinfdagi o‘qitish jarayoni uchun to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish; fanlararo tashabbus yoki inklyuziv ta’lim rejasi kabi yakuniy pedagogik loyihani (Capstone Teaching Project) ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.
- 8-hafta – Portfolio muhokamasi (oraliq nazorat – ta’lim muassasasiga tashrifsiz):
- universitet rahbarlari bilan yakuniy portfolio muhokamasi o‘tkaziladi. Ushbu uchrashuv quyidagi masalalarga bag‘ishlanadi:
    - shaxsiy pedagogik falsafa, sinfda o‘tkazilgan tadqiqotlari va kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi tahlili va muhokamasi;
    - kasbiy o‘sish va uzluksiz kasbiy rivojlanish xususida refleksiv mushohada yuritish;
    - portfolioni takomillashtirish va o‘qituvchilik faoliyatiga to‘liq o‘tishga tayyorgarlik ko‘rish uchun yakuniy qayta aloqa va tavsiyalar olish.
- Amaliyot yakunida quyidagilarni o‘z ichiga olgan yakuniy kasbiy portfolio taqdim

etiladi:

- shaxsiy pedagogik falsafa bayoni;
- ta’lim oluvchilarning baholash natijalari va ularning tahlili;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish bo‘yicha shaxsiy reja.

Portfolio talablari

Kasbiy portfolio amaliyotchi talabaning kasbiy shakllanish yo‘lini har tomonlama aks ettiruvchi hujjatlar to‘plami hisoblanadi. U shunchaki hujjatlar jamlanmasi emas, balki nazariya va amaliyotni bog‘lash qobiliyatini namoyish etishga xizmat qiluvchi refleksiv vositadir.

Zamonaviy sinfning o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini, xususan, o‘quvchilarda diqqatning qisqa muddatli bo‘lishi va yuqori darajadagi faollik bilan tavsiflanadigan ishtirok shakllarini hisobga olgan holda, portfolio o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan dinamik ta’lim modellaridan foydalanilganligini aniq dalillar bilan ko‘rsati berishi lozim.

Har bir pedagogik amaliyot yakunlanganda amaliyotchi talabalar quyidagi materiallarni o‘z ichiga olgan portfolioni topshirishlari shart:

- Kuzatuv qaydlari: o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va kuchli tomonlarini aniqlashga qaratilgan, yuzaki tavsiflardan tashqariga chiquvchi tizimli kuzatuv qaydlari.
- Faoliyat rejalari va o‘quv materiallari: barcha o‘quvchilar uchun qulaylik va teng ishtirokni ta’minlash maqsadida O‘rganish uchun universal dizayn (UDL) tamoyillarini o‘zida mujassam etgan puxta rejalashtirish dalillari.
- Qayta aloqa va baholash: maktabdan biriktirilgan ustoz-o‘qituvchilar hamda oliy ta’lim tashkiloti amaliyot rahbarlari tomonidan berilgan rasmiy baholash natijalari va norasmiy yozishmalar.
- Tanqidiy refleksiyalar: amaliyotchi talabaning o‘qitishdagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini tahlil qiluvchi, ayniqsa sinfning faolligi va ehtiyojlariga qanday moslashganiga e’tibor qaratilgan haftalik o‘z-o‘zini baholash refleksiv qaydlari.
- O‘quvchilarning o‘rganishiga oid dalillar:
  - *O‘rganish hikoyalari: amaliyotchi talaba tomonidan ishlab chiqilgan va o‘quvchi bilan hamkorlikda shakllantirilgan, o‘quvchi rivojlanishini aks ettiruvchi hikoyaviy tavsiflar.*
  - *Izohlangan media materiallar: o‘quvchi yaratgan ishlarning fotosuratlari yoki videolari hamda ularga ilova qilingan, sodir bo‘layotgan o‘rganish jarayoni va o‘quvchi refleksiyasi bo‘yicha amaliyotchi talaba tahlili.*
  - *Ish namunalari: o‘quvchilar faoliyatining aniq natijalari va ularga biriktirilgan, erishilgan rivojlanish bosqichlari haqidagi amaliyotchi talaba sharhlari.*

Amaliyotchi talabalarning yuqori faollikka ega ta’lim muhitlarida samarali faoliyat yuritishga tayyorligini namoyish etish maqsadida portfolio dinamik o‘qitish modellaridan foydalanilganligini aniq ko‘rsatishi kerak. Ushbu modellar o‘quvchilarni passiv tinglovchilardan faol ishtirokchilarga aylantirish orqali ularning diqqatini saqlab turishga xizmat qiladi.

Amaliyotchi talabalar portfolioga quyidagilarga oid dalillarni kiritishlari shart:

- O‘quv jarayoniga faol jalb etish strategiyalari: o‘quvchilar diqqatining qisqaligini hisobga olgan holda va ushbu muhim rivojlanish davrida jismoniy faoliyat orqali

oʻrganishni qoʻllab-quvvatlash maqsadida harakatga asoslangan oʻrganish, sensor tadqiqotlar va amaliy izlanishlarni oʻz ichiga olgan reja va faoliyat turlari.

- Kuzatish mumkin boʻlgan fikrlash rutinalari: “Koʻr – Oʻyla – Hayratlan” (See–Think–Wonder) kabi fikrlash rutinalaridan foydalanilganligini koʻrsatuvchi hujjatlar. Bunday yondashuvlar oʻrganishni hamkorlikka asoslangan va shaffof jarayonga aylantirib, oʻquvchilarning diqqatini vazifaga qaratilgan holda saqlab turishga yordam beradi.
- Moslashuvchan faoliyat turlari: oʻqitishda foydalaniladigan faoliyat turlari, mashq va topshiriqlarning ta’lim oluvchilar guruhining oʻzgaruvchan ishtirok darajasiga mos ravishda real vaqt rejimida qanday oʻzgartirilgani haqidagi refleksiv qaydlar.
- Oʻquvchi boshchiligidagi izlanish: amaliyotchi talabaning hamkor oʻrganuvchi sifatida faoliyat yuritganligi va oʻquv dasturi oʻquvchilarning spontan savollari hamda qiziqishlari asosida shakllantirilganligini koʻrsatuvchi misollar.

6. Fanlar tavsifi

6.1 Asosiy fanlar

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
1	DSG101	Tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn	Tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn	3	2	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu koʻnikmalar innovatsion oʻqitish va muammolarni hal qilishning asosini tashkil etadi. Talabalar dizayn tafakkuri modellari, ijodiy muammo yechish metodologiyalari va tahliliy fikrlash strategiyalari bilan ishlaydilar. Modul oʻquv dasturini ishlab chiqish, darslarni rejalashtirish va dastur davomida kasbiy qarorlar qabul qilish jarayonlarining asosini tashkil etuvchi tafakkur odatlarini shakllantiradi. Shuningdek, modul talabalarning akademik koʻnikmalarini rivojlantirishga ham qaratilgan.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Haqiqiy ta’limiy muammoni hal qilish uchun dizayn tafakkurining bosqichlarini, empatiya bildirish, muammoni aniqlash, gʻoyalar ishlab chiqish, prototip yaratish va sinovdan oʻtkazishni qoʻllash.
- Gʻoyalarni yaratish va baholash uchun “aqliy hujum”, aql xaritalari va lateral fikrlash kabi tizimlashtirilgan ijodiy fikrlash vositalaridan foydalanish.
- Konvergent va divergent fikrlash oʻrtasidagi farqni ajratish hamda ularni akademik va kasbiy kontekstlarda maqsadga muvofiq qoʻllash.
- Argumentni tanqidiy baholash, uning asosidagi taxminlarni va mantiqiy xatolarni aniqlash hamda yaxshi asoslangan muqobil nuqtayi nazarni shakllantirish.
- Oʻzining fikrlash uslublari xususida refleksiv mushohada yuritish hamda ijodiy moslashuvchanlik va intellektual ochiqlikni rivojlantirish strategiyalarini aniqlash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
1,2	LANG101, LANG111	Til koʻnikmalari	Ogʻzaki nutq va tinglash koʻnikmalari 1,2	0	5	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul til bilishning B1+ darajasidagi talabalarga ogʻzaki nutqni tushunish va aniq, ishonchli hamda mantiqiy tuzilgan taqdimotlar qilish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi. Modul talabalarning tinglab tushunish koʻnikmalari va nutq ravonligini takomillashtirish bilan birga, shaxsiy qiziqishlari bilan bogʻliq mavzular doirasida samarali verbal va noverbal muloqot koʻnikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, modul ta’lim oluvchilarga turli xil ogʻzaki matnlar bilan ishlash, tanish mavzularda suhbatni davom ettirish, oʻz fikrlari va tajribalarini ifoda etish hamda norasmiy va yarim rasmiy muloqot vaziyatlarida toʻgʻri talaffuz va maqbul intonatsiyadan foydalanish imkonini beradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Tanish mavzularga oid turli xil tinglab tushunish matnlarini anglash uchun samarali

strategiyalardan foydalanish.

- Tanish muloqot vaziyatlarida suhbatda ishtirok etish va uni davom ettirish.
- Tajribalarni tasvirlovchi, voqealarni hikoya qiluvchi va o‘z nuqtayi nazarini asoslovchi qisqa nutqlar hamda taqdimotlar bilan chiqish qilish.
- Aniq va tushunarli talaffuzni namoyish etish, jumladan urg‘u va intonatsiyadan o‘rinli foydalanish, shuningdek, og‘zaki muloqot jarayonida ma’noni ishonchli yetkazish uchun samarali verbal va noverbal muloqot vositalarini qo‘llash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
1	LANG102	Til ko‘nikmalari	O‘qish va yozish amaliyoti 1	0	3	4
2	LANG112	Til ko‘nikmalari	O‘qish va yozish amaliyoti 2	0	5	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul Umumevropa til bilish kompetensiyalariga muvofiq ravishda B1+ darajasidagi integrallashgan o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar asosiy g‘oyalarni aniqlash, ma’lumotlarni talqin qilish va aniq hamda mantiqiy tuzilgan yozma matnlar yaratish qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida akademik va noakademik matnlarning turli ko‘rinishlari bilan ishlaydilar. Birinchi semestrda asosiy e’tibor akademik o‘qish va yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Ikkinchi semestrda esa talabalar mazkur kompetensiyalarini ijodiy va multimodal yozuv topshiriqlari orqali yanada kengaytiradilar. Modul shuningdek talabalarda tanqidiy fikrlash, akademik halollik va akademik faoliyatda sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Til bilishning B1+ darajasidagi matnlarning asosiy g‘oyalari va muhim ma’lumotlarini aniqlash.
- Umumiy mazmunni tushunish uchun tezkor o‘qish (skimming) va aniq ma’lumotlarni topish uchun tanlab o‘qish (scanning) kabi mos o‘qish strategiyalarini qo‘llash.
- Aniq tuzilmaga ega, mantiqiy bog‘langan paragraflar va qisqa esseler yaratish.
- Matnlarning mazmunini qisqacha bayon qilish (summary) va qayta ifodalash (paraphrase) ko‘nikmalarini to‘g‘ri qo‘llash.
- Ijodiy va multimodal matnlar yaratish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
1	LANG103	Til ko‘nikmalari	Amaliy gramatika va leksika 1	0	3	4
2	LANG113	Til ko‘nikmalari	Amaliy gramatika va leksika 2	0	5	6

Fanning qisqacha mazmuni: Amaliy grammatika va leksika moduli grammatikani aniq, ishonchli va samarali muloqot qilish imkonini beruvchi muhim vosita sifatida talqin qiladi hamda talabalarga grammatik shakllardan ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Umumevropa til kompetensiyalari deskriptorlariga muvofiq ishlab chiqilgan qiziqarli va kontekstga asoslangan mashqlar orqali talabalar grammatikaning maʼno ifodalash va kommunikativ taʼsirni shakllantirishdagi oʻrnini chuqurroq anglaydilar. Shu bilan birga, ular oʻz rivojlanishini kuzatish va baholash boʻyicha amaliy strategiyalarni oʻzlashtirish orqali mustaqil taʼlim koʻnikmalarini rivojlantiradilar.

Modul shuningdek talabalarning lugʻat boyligini kengaytiradi va soʻzlarning kontekstda qanday qoʻllanilishini, jumladan ularning maʼnosi, shakli, birikish xususiyatlari (kollokatsiya) va uslubiy qoʻllanishini (registr) chuqurroq tushunishga yordam beradi. Kommunikativ faoliyatlar va kontekstlashtirilgan topshiriqlarda ishtirok etish orqali talabalar leksik birliklarni anglash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Natijada ular akademik va kundalik hayotda ingliz tilidan foydalanishda ishonch, moslashuvchanlik va mustaqillikni namoyon eta oladigan til foydalanuvchilariga aylanadilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Shakl va funksiya oʻrtasidagi munosabatlar, grammatik kategoriyalar hamda sintaktik tuzilmalarni oʻz ichiga olgan ingliz grammatikasining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish va ushbu bilimlarni turli janrlar hamda uslubiy registrlarda kontekstga muvofiq qoʻllash.
- B1-B2 darajasidagi lugʻat birliklari, jumladan keng qoʻllaniladigan kollokatsiyalar, soʻz yasalishi qoidalari va muayyan mavzularga oid leksik birliklar haqidagi bilimlarni namoyon etish hamda ulardan turli ogʻzaki va yozma muloqot vaziyatlarida maqsadga muvofiq foydalanish.
- Grammatika va lugʻat boyligini mustaqil rivojlantirish maqsadida lugʻatlar, grammatik maʼlumotnomalar, korpuslar va sunʼiy intellektga asoslangan vositalar kabi turli oʻquv strategiyalari va resurslaridan samarali foydalanish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
1	CS100	Kompyuter ilmi	Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar	2	3	6

Fanning qisqacha mazmuni: Mazkur modul bugungi kunda tez surʼatlarda oʻzgarib borayotgan biznes muhitida axborot tizimlari va raqamli texnologiyalarning oʻzaro bogʻliqligini har tomonlama oʻrganishga qaratilgan dinamik modul hisoblanadi. Ushbu modul tashkilotlarning axborotni samarali boshqarish, qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish va innovatsiyalarni ragʻbatlantirish maqsadida raqamli texnologiyalardan qanday foydalanishini oʻrganadi.

Modul davomida talabalar maʼruzalar, muhokamalar, amaliy mashgʻulotlar va loyihalar orqali axborot tizimlari va raqamli texnologiyalarga oid tushuncha hamda amaliyotlarni chuqur oʻzlashtiradilar. Modul yakunida talabalar globallashgan raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes sohasidagi muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish uchun raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishga zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalarga ega boʻladilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Matn muharrirlari, elektron jadvallar va taqdimot dasturlari kabi asosiy mahsuldorlik

vositalaridan ishonch bilan foydalanish hamda kasbiy ta’lim hujjatlarini yaratish.

- Internetdan xavfsiz va samarali foydalanish, onlayn axborotning ishonchliligini baholash hamda akademik maqsadlar uchun raqamli tadqiqot koʻnikmalarini qoʻllash.
- Axborot tizimlarining ishlashining asosiy tamoyillarini, jumladan apparat ta’minoti, dasturiy ta’minot va tarmoq komponentlarini tushuntirish.
- Shaxsiy va kasbiy faoliyatda raqamli xavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligi tamoyillarini qoʻllash hamda ushbu tushunchalarni sinf oʻquvchilariga izohlab berish.
- Raqamli muloqot vositalaridan kasbiy tarzda foydalanish hamda maktab muhitida texnologiyalardan maqbul va nomaqbul foydalanish holatlarini ajratib koʻrsatish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
1	ED110	Ta’lim/pedagogika	Taʻlim, Jamiyat va Madaniyat	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul ta’lim, jamiyat va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklarni oʻrganadi. Unda ijtimoiy tuzilmalar, madaniy me’yorlar va texnologik oʻzgarishlarning ta’lim tizimlari hamda ta’lim berish amaliyotiga ta’siri tahlil qilinadi. Modulning asosiy mavzulari qatoriga madaniy xilma-xillik, tenglik, inklyuzivlik va ta’limda texnologiyalardan axloqiy foydalanish masalalari kiradi. Talabalar ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning ta’lim muhitini shakllantirishdagi oʻrnini tahlil qiladilar hamda oʻqituvchilarning kengroq ijtimoiy vazifalari va mas’uliyatlari haqida refleksiv mushohada yuritadilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ta’lim, jamiyat va madaniyatning bir-biriga qanday ta’sir koʻrsatishini tushuntirish.
- Asosiy nazariy tushunchalarni maktab va sinf hayotiga oid sodda misollarga tatbiq etish.
- Ijtimoiy, madaniy va texnologik omillarning ta’lim tizimlari hamda sinf amaliyotini qanday shakllantirishini tahlil qilish.
- Madaniy xilma-xillik, tenglik va inklyuzivlikka oid masalalarni modulda oʻrganilgan gʻoya va tushunchalar asosida baholash.
- Ta’limiy va ijtimoiy muammolarni anglash uchun turli yondashuvlarni uygʻunlashtirgan holda asosiy tahliliy nuqtayi nazarlarni shakllantirish.
- Zamonaviy jamiyatda oʻqituvchining ijtimoiy roli, kasbiy mas’uliyati va axloqiy majburiyatlari haqida refleksiv mushohada yuritish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
2	HASS110	Ijtmioiy-gumanitar fanlar	Oʻzbekiston eng yangi tarixi	3	0	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarda Oʻzbekistonning mustaqillikdan keyingi zamonaviy tarixi, siyosiy taraqqiyoti va milliy transformatsiyasi haqidagi bilimlarni shakllantiradi. Talabalar zamonaviy Oʻzbekistonning shakllanishiga ta’sir koʻrsatgan asosiy voqealar, siyosatlar va ijtimoiy oʻzgarishlarni oʻrganadilar. Modul ularda ijtimoiy fanlarni tarixiy va ijtimoiy kontekstda oʻqitish uchun zarur boʻlgan tarixiy kompetensiyalarni rivojlantiradi

hamda ularga o‘qituvchi sifatida faoliyat boshlaydigan ta’lim islohotlari muhitini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi asosiy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini tavsiflash hamda ularning zamonaviy o‘zbek jamiyati uchun ahamiyatini tushuntirish.
- Yangi O‘zbekiston davridagi asosiy ta’lim islohotlarini tushuntirish hamda ularni ushbu dastur asosini tashkil etuvchi xalqaro standartlar va ramkalar bilan bog‘lash.
- O‘zbekistonning milliy rivojlanishiga oid birlamchi tarixiy manbalarni tegishli tarixiy fikrlash ko‘nikmalari asosida tahlil qilish.
- O‘zbekiston tarixi va jamiyati haqidagi bilimlarni maktablarda o‘qitiladigan ijtimoiy fanlar va fuqarolik ta’limi o‘quv dasturi bilan bog‘lash.
- O‘zbekistonning milliy rivojlanish maqsadlari kontekstida o‘qituvchi sifatida o‘z rolini aniq tushuntirib berish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
2	HASS305	Ijtmioiy-gumanitar fanlar	Falsafa	3	0	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni falsafaning asosiy sohalari hisoblangan mantiq, epistemologiya, metafizika va etika bilan tanishtiradi hamda ularni kasbiy va akademik faoliyatda zarur bo‘lgan qat’iy va asoslangan fikrlash vositalari sifatida o‘rganish imkonini beradi. Talabalar argumentlarni tuzish va baholashni, bilim va haqiqatning tabiatini tahlil qilishni hamda axloqiy mulohaza yuritishni o‘rganadilar. Modul dastur davomida ta’lim, psixologiya, ijtimoiy fanlar va kasbiy etikani o‘rganish uchun zarur bo‘lgan falsafiy bilim va tushunchalarni shakllantiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Falsafaning asosiy sohalari hisoblanmish mantiq, epistemologiya, metafizika va etikani tushuntirish hamda har bir sohada qanday savollar o‘rganilishini tavsiflash.
- Mantiqiy argumentlarni tuzish va baholash, keng tarqalgan mantiqiy xatolarni aniqlash hamda asosli fikrlashni noto‘g‘ri mulohazalardan ajratish.
- Epistemologiyaning asosiy yo‘nalishlari hisoblangan empirisizm, ratsionalizm va konstruktivizmni tushuntirish hamda ularning ta’limda bilim qanday yaratilishi va shakllanishini anglashdagi ahamiyatini baholash.
- Konsekvensializm, deontologiya va fazilatlar etikasi kabi axloqiy mulohaza yuritish modellarini kasbiy va kundalik hayotdagi axloqiy dilemmalarni tahlil qilishda qo‘llash.
- Bilim, haqiqat va axloq haqidagi o‘z qarashlari xususida tanqidiy refleksiv mushohada yuritish hamda ushbu qarashlar o‘qitishga va kasbiy qaror qabul qilishga bo‘lgan yondashuvini qanday shakllantirishini tushuntirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
2	ED111	Ta’lim/pedagogika	O‘qitish va o‘rganish	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni samarali oʻqitish va oʻrganishning asosini tashkil etuvchi muhim gʻoyalar bilan tanishtiradi. Talabalar oʻquvchilar qanday oʻrganishini, oʻqitishni samarali qiluvchi omillarni hamda ijobiy va samarali sinf muhitini qanday shakllantirishni oʻrganadilar. Modul dasturning barcha yoʻnalishlarida oʻqituvchilarni tayyorlash jarayonini qoʻllab-quvvatlovchi mustahkam nazariy va amaliy asosni shakllantiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Bixeviorizm, konstruktivizm va ijtimoiy oʻrganish nazariyasi kabi asosiy oʻrganish nazariyalarini tushuntirish hamda ularni kundalik sinfda qabul qilinadigan qarorlar bilan bogʻlash.
- Samarali oʻqitishning asosiy tarkibiy qismlarini, jumladan aniq koʻrsatmalar berish, oʻquvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va oʻz vaqtida hamda mazmunli fikr-mulohaza berishni aniqlash.
- Oʻquv maqsadlari, oʻqitish faoliyatlari, differensiatsiya va baholash strategiyalarini oʻz ichiga olgan tuzilmalashtirilgan yondashuv asosida dars rejasini ishlab chiqish.
- Ijobiy sinf muhiti oʻquvchilarning motivatsiyasi, xulq-atvori, akademik hamda har tomonlama rivojlanishiga (jismoniy, emotsional va ijtimoiy) qanday ta’sir koʻrsatishini tavsiflash.
- Oʻzining ta’lim olish tajribasi xususida refleksiv mushohada yuritish hamda ushbu tajriba oʻqituvchi sifatida shakllanayotgan kasbiy oʻzligini qanday ta’sirlantirayotganini tushuntirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3	LANG201	Til koʻnikmalari	Akademik oʻqish va yozish 1	0	5	6
4	LANG211	Til koʻnikmalari	Akademik oʻqish va yozish 2	0	5	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul til bilishning B2+ darajasiga ega talabalarning oʻqish, yozish va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar turli janrlarga mansub matnlar bilan ishlaydilar. Ular dalillash va argumentlar yaratish hamda tushunish, sabab va oqibat munosabatlarini tahlil qilish, muammo va yechimlarni oʻrganish, shuningdek matnlarni qisqacha bayon qilish koʻnikmalarini egallaydilar. Bu jarayon talabalarga mantiqiy fikrlash va oʻz gʻoyalarini ingliz tilida aniq hamda samarali ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Turli xil matnlarni oʻqib tushunish va ularning asosiy gʻoyalari, muhim ma’lumotlari hamda asosiy izohlarini aniqlagan holda qisqacha mazmunini bayon etish.
- Matnlarni taasub, muallif fikri va nuqtayi nazari jihatidan tanqidiy baholash hamda faktlarga asoslangan ma’lumotlarni talqin va shaxsiy munosabatdan farqlay olish.
- Argumentativ va fikr bildiruvchi insholar kabi turli xil insho turlarini yozish, bunda asosiy dalillarga urgʻu berish va ularni tegishli misollar hamda qoʻllab-quvvatlovchi ma’lumotlar bilan asoslash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3	LING201	Tilshunoslik fanlari	Diskurs tahlili	0	5	6

Fanning qisqacha mazmuni: “Diskurs tahlili” moduli tilni gap darajasidan yuqori bo‘lgan birlik sifatida o‘rganadi va og‘zaki hamda yozma muloqotda ma’no qanday shakllanishini tahlil qiladi. Talabalar og‘zaki va yozma diskursni qiyoslash, turli yozma janrlarning asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda suhbat jarayoniga xos bo‘lgan kommunikativ xususiyatlarni tanib olish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, modul grammatik, leksik, fonologik va sotsiolingvistik omillarning autentik muloqot sharoitlarida ma’no, kogeziya (cohesion) va yaxlitlik (coherence)ni shakllantirishdagi o‘rni haqidagi tushunchalarni chuqurlashtiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Diskurs tahlilining asosiy tushunchalarini izohlash, og‘zaki va yozma diskursni farqlash hamda tahlilni qo‘llab-quvvatlash uchun korpus va sun’iy intellektga asoslangan vositalardan foydalanish.
- Yozma diskurs xususiyatlarini, jumladan janr, kogeziya, kogerentlik, registr hamda auditoriya va maqsadga bog‘liq holdagi grammatik va leksik tanlovlarni tahlil qilish.
- Og‘zaki diskurs xususiyatlarini, jumladan nutq turlari va funksiyalari, og‘zaki nutqda grammatikaning qo‘llanilishi, fonologik va suhbatga xos xususiyatlarni tahlil qilish.
- Diskursning sotsiolingvistik jihatlarini, jumladan navbat bilan so‘zlashish (turn-taking), genderga xos til qo‘llanilishi va noverbal muloqot xususiyatlarini o‘rganish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3	FLT201	Chet tilini o‘qitish	Til o‘rganishga individual yondashuv	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni ikkinchi tilni o‘zlashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy kognitiv, ijtimoiy va affektiv omillar bilan tanishtiradi. Talabalar ta’lim oluvchilarda tillararo interferensiya qanday shakllanishini hamda tillararo ko‘chish (transfer) va rivojlanish bosqichlari kabi jarayonlarning o‘rganuvchi tilining shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadilar. Ular xatolar tahlilining asosiy tamoyillarini qo‘llab, ta’lim oluvchilar xatolarini aniqlash va talqin qilishni o‘rganadilar hamda nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan bog‘laydilar. Modul shuningdek talabalarni o‘z til o‘rganish tajribalari haqida tanqidiy refleksiya qilishga, qo‘llayotgan o‘rganish strategiyalarini tahlil qilishga va ularning samaradorligini baholashga undaydi. Bu jarayon ularning keyingi shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ikkinchi tilni o‘rganishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy kognitiv, ijtimoiy va affektiv omillarni tushuntirish.
- Xatolar tahlilining asosiy tamoyillari (masalan, tillararo nazariyasi (interlanguage), tillararo interferensiya va rivojlanish bosqichlari asosida ta’lim oluvchilar nutqidagi xatolarni aniqlash va tahlil qilish.

- O‘z til o‘rganish tajribalari haqida refleksiv mushohada yuritish, qo‘llayotgan o‘rganish strategiyalarini aniqlash va ularning keyingi shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish uchun samaradorligini baholash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3	FLT202	Chet tilini o‘qitish	Chet tillarni o‘qitishda yondashuvlar va tamoyillar	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul ingliz tilini o‘qitishdagi asosiy yondashuvlar va metodlar haqida umumiy tasavvur beradi, ularning nazariy asoslari va tarixiy rivojlanishini o‘rganadi. Modul an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni qamrab olib, ularning bugungi ta’lim muhitidagi ahamiyati va qo‘llanilish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, modul talabalarga turli yondashuvlarni tanqidiy baholash, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash hamda turli ta’lim kontekstlari uchun asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ingliz tilini o‘qitish sohasidagi asosiy nazariyalar, tamoyillar va tarixiy rivojlanish bosqichlari bo‘yicha bilim va tushunchalarni namoyon etish.
- Turli til o‘qitish yondashuvlarini muayyan ta’lim va madaniy kontekstlar nuqtayi nazaridan tanqidiy baholash.
- Til o‘qitish yondashuvlari haqidagi bilimlarni qisqa sinf faoliyatlari yoki dars fragmentlarini loyihalashtirish va o‘tkazishda qo‘llash hamda o‘z pedagogik tanlovlarini aniq asoslash.
- Inklyuziv ta’lim, global yondashuvlar va texnologiyalar bilan boyitilgan amaliyotlarning ingliz tilini samarali o‘qitishni qo‘llab-quvvatlashdagi imkoniyatlarini aniqlash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3			Ikkinchi xorijiy til 1	0	3	4
4			Ikkinchi xorijiy til 2	0	3	4
5			Ikkinchi xorijiy til 3	0	3	4
6			Ikkinchi xorijiy til 4	0	3	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarning ikkinchi xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar lug‘at boyligi, grammatika va talaffuz bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni egallaydilar hamda kundalik hayotning turli vaziyatlarida og‘zaki va yozma nutqni tushunish va yaratish qobiliyatlarini izchil ravishda kengaytiradilar. Modul tinglash, gapirish, o‘qish va yozish

ko‘nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishni nazarda tutadi hamda talabalarning muloqot qilishdagi ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, modul madaniy amaliyotlar, muloqot me’yorlari va vaziyatga mos til qo‘llanishi bilan tanishtirish orqali madaniyatlararo xabardorlikni rivojlantiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- O‘rganilayotgan xorijiy tilda boshlang‘ich-elementar darajaga mos lyeksika va grammatik tuzilmalardan foydalanish.
- Tanish va kundalik mavzular bo‘yicha og‘zaki va yozma muloqotlarda tobora ortib boruvchi ishonch bilan ishtirok etish.
- O‘rganilayotgan tildagi qisqa va o‘rtacha hajmdagi og‘zaki hamda yozma matnlarni tushunish.
- Real hayotdagi muloqot vaziyatlarida ma’noni anglash va yetkazishni qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy kommunikativ strategiyalardan foydalanish.
- O‘rganilayotgan tilga xos madaniy amaliyotlar, qarashlar va muloqot me’yorlari haqida xabardorlikni namoyon etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
4	ED331	Psixalogiya	Ta’lim psixologiyasi	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni o‘qitish va ta’lim olish jarayonlarining nazariy asosini tashkil etuvchi asosiy pedagogik nazariyalar va psixologik yondashuvlar bilan tanishtiradi. Modulda ta’lim olish, motivatsiya va rivojlanishga oid asosiy nazariyalar o‘rganiladi hamda kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning ta’lim oluvchilarning o‘qish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Talabalar pedagogik va psixologik nazariyalarning sinf amaliyoti, o‘qitish strategiyalari va ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarida qanday qo‘llanilishini ko‘rib chiqadilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ta’lim va rivojlanishga oid asosiy pedagogik hamda psixologik nazariyalarni tushuntirish.
- Kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning ta’lim oluvchilarning o‘qish jarayoniga ta’sirini tahlil qilish.
- Sinfdagi vaziyatlar va ta’lim jarayonlarini tushunish uchun asosiy nazariy tushunchalarni qo‘llash.
- Pedagogik nazariya, psixologiya va sinf amaliyoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida refleksiya qilish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
4	ED251	Ta’lim/pedagogika	Inkluziv ta’lim, gospital pedagogika	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni inklyuziv ta’lim tamoyillarini tushunish va qo‘llashga tayyorlaydi. Talabalar har bir o‘quvchiga, jumladan maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan, turli til muhitidan kelgan yoki o‘ziga xos o‘rganish xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarga sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydigan huquqiy asoslar, ta’lim nazariyalari

va sinf amaliyotlari haqida bilimlarga ega bo‘ladilar. Modul O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020) hamda Bola huquqlari to‘g‘risidagi BMT Konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlarga asoslanadi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Inklyuziv ta’lim tamoyillarini tushuntirish hamda barcha bolalarning ta’lim olish huquqini qo‘llab-quvvatlovchi O‘zbekistondagi qonunchilik va ta’lim siyosati asoslarini tavsiflash.
- O‘qituvchilar tez-tez duch keladigan turli o‘rganish xususiyatlari va maxsus ta’lim ehtiyojlarini, jumladan disleksiya, autizm, diqqat bilan bog‘liq qiyinchiliklar va jismoniy nogironliklarni aniqlash hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini tushuntirish.
- Inklyuziv sinflar uchun dars rejalarini baholash va moslashtirishda O‘rganish uchun universal dizayn (UDL) tamoyillarini qo‘llash.
- Qo‘shimcha yordamga ehtiyoji bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlashda sinf o‘qituvchisining rolini tavsiflash hamda O‘zbekiston maktab tizimida mavjud bo‘lgan yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tushuntirish.
- Nogironlik, farqlilik va me’yoriylik haqidagi o‘z qarashlari xususida refleksiv mushohada yuritish hamda ushbu qarashlar ularning pedagogik amaliyotiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushuntirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
4	FLT211	Chet tilini o‘qitish	Til tizimlarini o‘qitishda kommunikativ yondashuv	0	3	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul kommunikativ yondashuv doirasida grammatika, leksika va fonologiyani o‘qitishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganadi. Talabalar til tizimlarining mazmunli muloqotni ta’minlashdagi o‘rni haqida aniq tushunchaga ega bo‘ladilar hamda shakl–ma’no–qo‘llanish (form–meaning–use), anglab yetish (noticing), leksik rivojlanish, tushunarli talaffuz (pronunciation for intelligibility) va aniqlik hamda ravonlik (accuracy and fluency) o‘rtasidagi muvozanat kabi muhim tushunchalarni tahlil qiladilar. Modul o‘quv materiallarini baholash va yaratish jarayonlarini ham qamrab oladi. Bunda sun’iy intellekt va texnologiyalar bilan boyitilgan hamda til korpuslariga asoslangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi va talabalar an’anaviy hamda raqamli ta’lim amaliyotlariga tanqidiy yondashishni o‘rganadilar. Tajribaga asoslangan ta’lim, vazifaga asoslangan faoliyatlar, refleksiya va materiallar yaratish jarayoni orqali talabalar muayyan o‘quvchilar konteksti uchun mos bo‘lgan kommunikativ o‘quv materiallarini tahlil qilish, moslashtirish va ishlab chiqishni o‘rganadilar hamda nazariy bilimlarni pedagogik qarorlar qabul qilish jarayoni bilan bog‘laydilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Til o‘qitishning kommunikativ yondashuvi doirasida grammatika, leksika va fonologiyaning o‘rni hamda ahamiyatini aniq tushunganligini namoyon etish.
- Grammatika, leksika va fonologiyani o‘qitishga qaratilgan o‘quv materiallarini, jumladan sun’iy intellekt va texnologiyalar bilan boyitilgan resurslarni, tegishli nazariyalar va pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan baholash.
- Muayyan o‘quvchilar konteksti uchun grammatika, leksika va/yoki fonologiyani samarali integratsiya qiluvchi kommunikativ o‘quv materiallarini loyihalashtirish hamda zarur hollarda raqamli vositalar, til korpuslariga asoslangan resurslar yoki

sun’iy intellekt yordamidagi texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
4	FLT212	Chet tilini o‘qitish	Auditoriya (pedagog) nutqi	0	3	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarda auditoriyadagi muloqot va sinfni boshqarish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar sinf tilining lingvistik, madaniy va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganadilar, bu esa ularga sinfdagi turli xil o‘zaro muloqot jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Modul doirasida talabalarga haqiqiy sinf muhitidan olingan autentik auditoriya tili namunalari, shuningdek, ularning o‘zlari real sinflardan to‘plagan materiallar taqdim etiladi. Ushbu materiallar asosida talabalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan qo‘llaniladigan tilni tanqidiy tahlil qilish va ular xususida refleksiv mushohada yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Auditoriyada muloqotni rag‘batlantirish maqsadida savol berish, javob berishga undash (eliciting), ko‘rsatmalar berish va boshqa o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish va qo‘llash.
- Auditoriyada qo‘llaniladigan tilni tanqidiy tahlil qilish va refleksiya qilish, jumladan nutqning aniqligi hamda noverbal muloqot vositalarining o‘qitish samaradorligi va o‘quvchilarning darsdagi faolligiga ta’sirini baholash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
5	LANG301	Til ko‘nikmalari	Profesional o‘qish va yozish kursi 1	0	3	4
6	LANG311	Til ko‘nikmalari	Profesional o‘qish va yozish kursi 2	0	3	4

Fanning qisqacha mazmuni: “Professional o‘qish va yozish kursi” moduli bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi (B2-C1) akademik va kasbiy savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Modul talabalarning turli xil hajmli kasbiy matnlarni o‘qib tushunish va ulardagi yashirin ma’nolarni anglash qobiliyatini takomillashtiradi. Shuningdek, u akademik tadqiqot yozuvi, refleksiv yozuv, kasbiy va stipendiya dasturlariga ariza yozish hamda kengroq ta’lim auditoriyasi uchun materiallar tayyorlash kabi yozuv kompetensiyalarini rivojlantiradi. Talabalar tahrir qilish va o‘zaro taqriz (peer review) berish ko‘nikmalarini ham egallaydilar hamda yuqori sifatli kasbiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida sun’iy intellekt va amaliy raqamli vositalardan axloqiy va samarali foydalanishni o‘rganadilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Turli xil hajmli kasbiy matnlarni o‘qib tushunish hamda ulardagi yashirin ma’nolarni anglash.
- Kasbiy mavzular bo‘yicha aniq, mantiqiy tuzilgan va yaxshi tashkil etilgan yozma matnlar yaratish.
- O‘qish va yozish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida raqamli vositalar va

sun’iy intellekt texnologiyalaridan axloqiy, mas’uliyatli va samarali foydalanishni namoyon etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
5	FLT301	Chet tilini o‘qitish	Til ko‘nikmalari integratsiyasi	0	5	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul til ko‘nikmalarini o‘qitish va integratsiyalash usul hamda vositalari bilan tanishtiradi. Modul til o‘qitish nazariyalarining amaliy jihatlariga va innovatsion metodika bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratadi. U o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini o‘qitishga doir o‘qitish va o‘rganish usullari hamda yondashuvlari, shuningdek ta’lim jarayonida autentik materiallar va texnologiyalardan foydalanish hamda o‘quv materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha umumiy tasavvurni shakllantiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Autentik materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda til ko‘nikmalarini integrallashgan yondashuv asosida o‘qitish uchun samarali usullar va ilg‘or amaliyotlarni aniqlash hamda baholash.
- Mavjud o‘rganish va o‘qitish materiallarini baholash, ularni turli ta’lim kontekstlariga moslashtirish va qo‘shimcha materiallar bilan boyitish.
- Ikki yoki undan ortiq til ko‘nikmalarini integratsiya qiluvchi dars faoliyatlari va topshiriqlarini ishlab chiqish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
5	FLT302	Chet tilini o‘qitish	Darsni rejalashtirish va auditoriyani boshqarish	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul ikki asosiy yo‘nalish “Darslarni rejalashtirish” va “Sinfni boshqarish” atrofida tashkil etilgan bo‘lib, talabalarni darslarni samarali loyihalashtirish va tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Nazariy bilimlar va amaliy strategiyalarni uyg‘unlashtirgan holda, modul talabalarga qiziqarli va shaxsga yo‘naltirilgan dars rejalarini ishlab chiqish hamda ijobiy va samarali ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiluvchi boshqaruv usullarini qo‘llashni o‘rgatadi. Modul yakunida talabalar darslarni mantiqiy tuzish, sinfdagi o‘zaro munosabatlar va jarayonlarni samarali boshqarish hamda qo‘llab-quvvatlovchi va inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha mustahkam kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Mavjud dars rejalarining muayyan ta’lim kontekstiga mosligini baholash va ularni zarur hollarda moslashtirish.
- Muayyan ta’lim muhiti va o‘quvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars rejasini ishlab chiqish.
- Mantiqiy tuzilgan va samarali darslarni o‘tkazish uchun maqsadga muvofiq sinfni boshqarish usullari va strategiyalarini tanlash hamda qo‘llash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
5	PRAC301	Amaliyot	Amaliyot 1	0	0	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarga ularga biriktirilgan ustoz-oʻqituvchilar rahbarligi ostida maktab muhitidagi birinchi tizimli pedagogik amaliyot tajribasini taqdim etadi. Talabalar sinf muhitini kuzatadilar, ta’lim jarayonlarida ishtirok etadilar va pedagogik bilimlarini real sinf sharoitlarida qoʻllashni boshlaydilar. Amaliyot darslarni rejalashtirish, sinfni boshqarish va ta’lim oluvchilarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha boshlangʻich koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Kuzatuv, ishtirok va refleksiya jarayonlari orqali talabalar oʻqituvchilik kasbining mazmuni va amaliyoti haqidagi kasbiy tushunchalarini shakllantirib boradilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Sinfdagi amaliyotni, jumladan oʻqitish usullari, sinfni boshqarish strategiyalari va oʻquvchilarning ishtirokini kuzatish va tahlil qilish.
- Ustoz-oʻqituvchilar rahbarligi ostida darslarni tayyorlash va sinf faoliyatlarida ishtirok etish.
- Oʻquvchilarning ta’lim natijalarini baholash va ularning ta’lim jarayonidagi ishtirokini qoʻllab-quvvatlashning asosiy yondashuvlarini aniqlash.
- Oʻz pedagogik tajribasi haqida refleksiv mushohada qilish hamda amaliyot portfoliosi orqali kasbiy rivojlanishini hujjatlashtirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
6	HASS201	Ijtmioiy-gumanitar fanlar	Amaliy oʻzbek (rus) tili: kasbiy va ilmiy sohalarda qoʻllanilishi	0	3	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarning oʻzbek (rus) tilidan akademik va kasbiy kontekstlarda foydalanish boʻyicha kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yozma va ogʻzaki muloqot koʻnikmalariga alohida e’tibor qaratgan holda, modul oʻzbek (rus) tilining ta’lim, boshqaruv, ommaviy axborot vositalari, huquq, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kabi turli sohalardagi funksional qoʻllanilishini oʻrganadi. Talabalar autentik matnlar, rasmiy yozuv topshiriqlari, taqdimotlar va muayyan sohalarga oid kasbiy leksika bilan ishlaydilar. Shuningdek, modul rasmiy yozishmalar, akademik yozuv, ommaviy nutq va kasbiy muloqot boʻyicha amaliy mashgʻulotlarni oʻz ichiga olib, turli kasbiy va akademik vaziyatlarda samarali hamda maqsadga muvofiq muloqot qilish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Oʻz ta’lim yoki kasbiy faoliyat sohasiga oid maxsus terminologiya va kasbiy leksikani qoʻllash.
- Hisobotlar, rasmiy xatlar va taqdimotlar kabi kasbiy hujjatlarni tushunish va tayyorlash.
- Adabiy oʻzbek tili me’yorlariga muvofiq ravishda rasmiy muhokamalar, suhbatlar va yigʻilishlarda faol ishtirok etish.
- Kasbiy muloqotda til uslubi, nutq ohangi va madaniy me’yorlarni hisobga olish va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish.

- Akademik va ish joyi muhitlarida rasmiy o‘zbek tilidan to‘g‘ri va samarali foydalanish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
6	FLT312	Chet tilini o‘qitish	Til bilish darajasini aniqlash va baholash	1	4	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni baholashdan maqsadli va samarali foydalanishga tayyorlaydi. Talabalar baholashning tamoyillari va maqsadlari haqidagi tushunchalarni, shuningdek baholash topshiriqlarini rejalashtirish, natijalarni talqin qilish va baholash ma’lumotlaridan o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Modul baholashni alohida o‘quvchi, sinf va maktab darajalarida ko‘rib chiqadi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Baholashning turlari (masalan, diagnostik, shakllantiruvchi, yakuniy va autentik baholash)ning maqsadlari va tamoyillarini tushuntirish hamda ularning kontekstga muvofiq qo‘llanilishini baholash.
- O‘rganish jarayoni haqida amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlar taqdim etuvchi shakllantiruvchi baholash topshiriqlarini, jumladan dars yakunidagi qisqa savollar (exit tickets), nazorat varaqalari va tengdoshlar baholashi faoliyatlarini ishlab chiqish.
- To‘plangan baholash ma’lumotlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning yutuqlari, tushunmovchiliklari va o‘rganish ehtiyojlaridagi umumiy tendensiyalarni aniqlash.
- O’quvchilariga aniq, rivojlanishga yo‘naltirilgan va keyingi o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi samarali yozma va og‘zaki fikr-mulohazalar berish.
- Baholashning axloqiy jihatlarini, jumladan adolatlilik, xolislik, yuqori ahamiyatga ega testlar (high-stakes testing) va baholashning o‘quvchilarning o‘zini anglashiga ta’siri bilan bog‘liq masalalarni baholash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
6	PRAC311	Amaliyot	Amaliyot 2	0	0	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarning pedagogik mahoratini ularga biriktirilgan ustoz-o‘qituvchilar rahbarligi ostida maktablarda amalga oshiriladigan amaliyot jarayonida rivojlantiradi. Talabalar darslarni rejalashtiradilar va tashkil etadilar, sinfni boshqarish strategiyalarini qo‘llaydilar hamda turli ehtiyojlarga ega ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tabaqalashtirilgan ta’lim yondashuvlaridan foydalanadilar. Pedagogik amaliyot refleksiv yondashuv, kasbiy hamkorlik va pedagogik bilimlarni real sinf sharoitlarida qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi. Talabalar o‘z tajribalari va kasbiy rivojlanish jarayonini pedagogik amaliyot portfoliosi orqali hujjatlashtiradilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Mos o‘qitish strategiyalaridan foydalangan holda darslarni tobora mustaqil ravishda rejalashtirish va o‘tkazish.
- Turli ehtiyojlarga ega ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida sinfni boshqarish va tabaqalashtirilgan ta’lim yondashuvlarini qo‘llash.
- Pedagogik amaliyotni tahlil qilish va takomillashtirish maqsadida mentor-o‘qituvchilar

va hamkasblar bilan hamkorlik qilish.
- Pedagogik amaliyot portfoliosi orqali o‘zining kasbiy rivojlanishini hujjatlashtirish va refleksiv mushohada qilish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
7	RES401	Research and Inquiry	Sinfni tadqiq qilish	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: “Sinf tadqiq etish” moduli bo‘lajak o‘qituvchilarni tadqiqot faoliyati bilan o‘qitish va o‘quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tizimli, amaliyotga asoslangan yondashuv sifatida tanishtiradi. Modul sinf tadqiqoti davomida dalillarni to‘plash va talqin qilish orqali tizimli va mazmunli refleksiyani hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni qanday qo‘llab-quvvatlashini namoyish etadi. Talabalar sinfdagi faoliyatga asoslangan tadqiqot asosnomasini tayyorlashni, shuningdek tadqiqotning to‘liq siklini o‘zlashtiradilar: sinfdagi muammoni aniqlash va amaliy tadqiqot savolini shakllantirishdan tortib, harakatlar rejasini ishlab chiqish va ma’lumot to‘plashning maqbul usullarini tanlashgacha; ma’lumotlarni yig‘ish (masalan, maqsadli kuzatuvlar, intervyular va so‘rovnomalar orqali), natijalarni tahlil qilish hamda dalillarga asoslangan sinf tadqiqoti hisobotini amaliy tavsiyalar bilan tayyorlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni o‘rganadilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- O‘qitish yoki ta’lim olishga doir dolzarb muammosini aniqlash, aniq va tadqiq etish mumkin bo‘lgan savollarni shakllantirish hamda tadqiqot kontekstini maqsadga muvofiq tavsiflash orqali yaxlit sinf tadqiqoti loyihasini ishlab chiqish.

- Tadqiqot savollariga mos keluvchi ma’lumot to‘plash vositalarini (masalan, kuzatuv varaqalari, suhbat savollari, so‘rovnomalar va boshqa tadqiqot instrumentlari) loyihalashtirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
7	FLT401	Chet tilini o‘qitish	Ingliz tilini o‘qitishda global fuqarolikni shakllantirish	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modulda talabalar ingliz tilini o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish va barqaror taraqqiyot haqidagi xabardorlikni oshirishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini o‘rganadi. Modul bo‘lajak o‘qituvchilarni til ta’limi orqali o‘zaro hurmatga asoslangan madaniyatlararo muloqot va mas’uliyatli global tafakkurni rivojlantirishga tayyorlashga qaratilgan. Modul talabalarning o‘z madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, pedagogik faoliyati davomida o‘quvchilarida madaniyatlararo anglashuv va barqaror taraqqiyotga oid xabardorlikni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan amaliy strategiyalar bilan ta’minlaydi. Asosiy e’tibor madaniyatlararo muloqot va Barqaror rivojlanish maqsadlarining (SDGs) ayrim yo‘nalishlarini kommunikativ til o‘qitish jarayoniga yosh xususiyatlari va ta’lim kontekstiga mos ravishda integratsiya qilishga qaratiladi. Talabalar o‘quv materiallarini tahlil qiladilar, turli madaniy nuqtayi nazarlar haqida refleksiv mushohada yuritadilar hamda til o‘rganish bilan bir vaqtda global mas’uliyatni ham rivojlantiruvchi sinf faoliyatlari va topshiriqlarini ishlab chiqadilar. Bunda atrof-muhitni muhofaza qilish,

mas’uliyatli iste’mol va jamoatchilik faolligi kabi barqaror taraqqiyot mavzulariga alohida e’tibor qaratiladi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ingliz tilini o‘qitish kontekstida madaniyatlararo kompetensiya va barqaror taraqqiyot uchun ta’lim bilan bog‘liq asosiy tushunchalarni tushuntirish.
- Darslarni rejalashtirish jarayoniga madaniyatlararo xabardorlikni rivojlantiruvchi elementlarni integratsiya qilish va ularning sinfdagi muloqotga ta’sirini hisobga olish.
- Ingliz tilini o‘qitish materiallarini madaniyatlararo ifodalanish va barqaror taraqqiyot mavzularining aks ettirilishi nuqtayi nazaridan baholash.
- Madaniyatlararo anglashuvni hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) haqidagi xabardorlikni rivojlantiruvchi kommunikativ til topshiriqlarini loyihalashtirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3 ELEC A			Ijtimoiy lingvistika va global ingliz tillari	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni tilning ijtimoiy kontekstdagi o‘rganilishi bilan tanishtiradi hamda ingliz tilining global xilma-xilligini o‘rganadi. Unda til qo‘llanilishining turli ijtimoiy guruhlar, hududlar va madaniy muhitlar kesimida qanday farqlanishi, shuningdek o‘zlik (identity), hokimiyat (power) va madaniyat kabi omillarning muloqotga ta’siri tahlil qilinadi. Talabalar, shuningdek, global ingliz tili (World Englishes)ning shakllanishi va rivojlanishini hamda ingliz tilining xalqaro muloqotda global til sifatidagi o‘rnini o‘rganadilar. Modul til variantlari, lingvistik xilma-xillik va Global ingliz tillarining muloqot hamda ta’lim sohasi uchun ahamiyati haqida tanqidiy fikr yuritishni rag‘batlantiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Sotsiolingvistika sohasidagi asosiy tushunchalar va yondashuvlarni tushuntirish.
- Ijtimoiy va madaniy omillarning til qo‘llanilishi hamda til variantlariga ta’sirini tahlil qilish.
- Dunyo bo‘ylab qo‘llaniladigan ingliz tilining turli variantlari rivojlanishi va xususiyatlarini tavsiflash.
- Lingvistik xilma-xillik va ingliz tilining global muloqotdagi o‘rni haqidagi xabardorlikni namoyon etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
7	TRAN401	Tarjimashunoslik	Kasbiy tarjima va Til vositachiligi	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni kasbiy tarjima va til vositachiligi (language mediation)ning asosiy tamoyillari hamda amaliyotlari bilan tanishtiradi. Unda tillar o‘rtasida ma’noni uzatish strategiyalari lingvistik, madaniy va kontekstual farqlarni hisobga olgan holda o‘rganiladi. Talabalar turli xil matnlarni tarjima qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar hamda tillar va madaniyatlar o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlash usullarini o‘zlashtiradilar. Shuningdek, modul tarjima strategiyalari, ekvivalentlik (equivalence) va madaniyatlararo muloqot kabi muhim nazariy tushunchalarni ham qamrab oladi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Tarjima va til vositachiligiga oid asosiy tushunchalar hamda tamoyillarni tushuntirish.

- Turli tillardagi matnlar bilan ishlashda asosiy tarjima strategiyalarini qo‘llash.
- Tarjima va talqin qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi lingvistik va madaniy omillarni tahlil qilish.
- Yozma yoki og‘zaki muloqot jarayonida tillar o‘rtasida ma’noni samarali yetkazish qobiliyatini namoyon etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
7	PRAC401	Amaliyot	Amaliyot 3	0	0	10

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul maktabda o‘tadigan pedagogik amaliyotning yuqori bosqichini tashkil etib, unda talabalar darslarni mustaqil rejalashtirish, tashkil etish va baholash bo‘yicha tobora ko‘proq mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar. Talabalar real sinf sharoitida ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish strategiyalari, sinfni boshqarish usullari va inklyuziv ta’lim amaliyotlarini qo‘llaydilar. Pedagogik amaliyot, shuningdek, refleksiv faoliyat va o‘qitish hamda ta’lim olish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan kichik ko‘lamli sinf tadqiqotlarini ham o‘z ichiga oladi. Talabalar o‘zlarining kasbiy rivojlanishi va pedagogik tajribalarini keng qamrovli pedagogik portfolio orqali hujjatlashtiradilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Mos o‘qitish va baholash strategiyalaridan foydalangan holda darslarni mustaqil rejalashtirish, tashkil etish va baholash.
- Sinf sharoitida turli ehtiyojlarga ega ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida inklyuziv va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qo‘llash.
- O‘qitish yoki o‘rganish jarayonidagi muayyan muammoni hal etishga qaratilgan kichik ko‘lamli sinf tadqiqotini o‘tkazish.
- O‘z pedagogik amaliyoti haqida tanqidiy refleksiv mushohada qilish hamda kasbiy rivojlanishini pedagogik portfolio orqali hujjatlashtirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
8	FLT411	Chet tilini o‘qitish	Kichik yoshdagilarga ingliz tilini o‘qitish	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Mazkur modul talabalarni boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi 5-12 yoshli bolalarga ingliz tilini o‘qitishning asosiy tamoyillari va amaliyotlari bilan tanishtiradi. Unda bolalarning rivojlanish xususiyatlari va ularni o‘qitish usullari, sinfni boshqarish, o‘quv materiallari hamda baholash jarayonlariga ta’siri o‘rganiladi. Modulda o‘yinlar, qo‘shiqlar, hikoyalar aytib berish, harakatga asoslangan faoliyatlar va raqamli resurslar kabi boshlang‘ich sinflarda til o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy strategiyalarga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, talabalar o‘quv materiallarini moslashtirish va yosh o‘quvchilar uchun qisqa, yosh xususiyatlariga mos o‘quv faoliyatlarini loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Yosh o‘quvchilarning xususiyatlari va bolalarning tillarni qanday o‘zlashtirishi haqidagi bilim va tushunchalarini namoyish etish.
- Yosh o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan asosiy tamoyillar va strategiyalarni aniqlash hamda tushuntirish.
- Yosh o‘quvchilar uchun mos bo‘lgan qisqa sinf faoliyatlarini loyihalashtirish va

namoyish etish.
- Turli sinf sharoitlarida yosh o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularga o‘quv materiallari va faoliyatlarni moslashtirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
8	LIT410	Adabiyot	Adabiyot, madaniyat va tanqidiy talqin	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni adabiyot va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bilan tanishtiradi hamda ularda tanqidiy o‘qish va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar turli tarixiy davrlar va madaniy kontekstlarga mansub ingliz tilidagi adabiy asarlarni o‘rganib, adabiyotning ijtimoiy qadriyatlar, madaniy o‘ziga xoslik va tarixiy tajribalarni qanday aks ettirishini tahlil qiladilar. Shuningdek, modul talabalarni adabiy tahlil va tanqidning asosiy yondashuvlari bilan tanishtiradi hamda ularning matnlarni tahlil qilish va turli nuqtayi nazarlar bilan muloqotga kirishish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Adabiyot, madaniyat va adabiy talqin bilan bog‘liq asosiy tushunchalarni tushuntirish.
- Adabiy matnlarni ularning madaniy va tarixiy konteksti bilan bog‘liq holda tahlil qilish.
- Adabiy tahlil va tanqidiy talqinning asosiy yondashuvlarini qo‘llash.
- Adabiy matnlarga oid g‘oyalar va talqinlarni yozma va og‘zaki shakllarda aniq hamda asosli tarzda ifoda etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
8	FYP441		Bitiruv malakaviy ishi (loyihasi)	0	2	8

Fanning qisqacha mazmuni: Bitiruv malakaviy loyiha bakalavriat ta’lim yo‘nalishi dasturining yakuniy akademik ishi hisoblanadi. Ushbu modul doirasida talabalar maktabdagi pedagogik tajribalari asosida yuzaga kelgan muammo yoki savolga bag‘ishlangan mustaqil, kichik ko‘lamli tadqiqotni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. Loyiha bitiruvchining kasbiy muammoni aniqlash, tegishli adabiyotlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni axloqiy tamoyillarga rioya qilgan holda yig‘ish va tahlil qilish hamda amaliyot uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini namoyon etadi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Aniq tadqiqot savoli, mos metodologiya, tadqiqot etikasi va realistik vaqt jadvalini o‘z ichiga olgan mustaqil kichik ko‘lamli tadqiqot loyihasini ishlab chiqish.
- Tta’limga oid mavzu bo‘yicha tizimli adabiyotlar sharhini o‘tkazish, manbalarni tanqidiy baholash va natijalarni yaxlit argument shaklida sintez qilish.
- Maktab muhitida tegishli sifat yoki miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalangan holda ma’lumotlarni yig‘ish, tashkil etish va tahlil qilish.
- Tuzilishi, dalillardan foydalanishi, argumentatsiyasi va manbalarga havola berish talablari bo‘yicha akademik standartlarga javob beradigan 5000-7000 so‘zli tadqiqot hisobotini tayyorlash.
- Tadqiqot loyihasini attestatsiya komissiyasi huzurida og‘zaki himoya qilish, mavzu bo‘yicha chuqur bilimga egaligini hamda tanqidiy savollarga asosli javob bera olish

qobiliyatini namoyon etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
8	PRAC411	Amaliyot	Amaliyot 4	0	0	10

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul pedagogik amaliyotning yakuniy bosqichi bo‘lib, unda talabalar maktab muhitida ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va baholash uchun to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar. Talabalar o‘zlariga biriktirilgan ustoz-o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlagan holda pedagogik bilimlari va amaliy o‘qitish ko‘nikmalarini mustaqil ravishda qo‘llaydilar. Pedagogik amaliyot refleksiv yondashuv, inklyuziv o‘qitish strategiyalari va kasbiy hamkorlikka alohida e’tibor qaratadi. Talabalar o‘zlarining pedagogik kompetentligi va o‘qituvchilik kasbiga tayyorligini namoyish etuvchi keng qamrovli pedagogik portfolioni tayyorlaydilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Samarali o‘qitish, baholash va sinfni boshqarish strategiyalaridan foydalangan holda darslarni mustaqil rejalashtirish, o‘tkazish va baholash.
- Turli ehtiyojlarga ega ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida inklyuziv va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvlarini qo‘llash.
- Maktab jamoasida kasbiy mas’uliyat va hamkorlikni namoyish etish.
- Pedagogik kompetentlik va o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorligini aks ettiruvchi keng qamrovli pedagogik portfolioni tayyorlash va taqdim etish.

6.2 Tanlov fanlari

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3 ELEC A		Tilshunoslik fanlari	Zamonaviy ingliz tilshunosligi	2	3	6

Fanning qisqacha mazmuni: shbu modul talabalarni zamonaviy ingliz tilshunosligining asosiy sohalari, jumladan fonologiya, grammatika, semantika, pragmatika va kognitiv yondashuvlar bilan tanishtiradi. Talabalar til tovushlarining qanday tashkil etilganligini, grammatik tuzilmalarning qanday faoliyat ko‘rsatishini hamda ma’noning turli kontekstlarda qanday yaratilishi va talqin qilinishini o‘rganadilar. Shuningdek, modul tilning kognitiv jarayonlar va kommunikativ maqsadlarni qanday aks ettirishini tahlil qiladi. Ingliz tilining autentik namunalarini tahlil qilish orqali talabalar zamonaviy muloqotda tilning tuzilishi va qo‘llanilishi haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Zamonaviy ingliz tilshunosligidagi asosiy tushunchalar va yondashuvlarni tushuntirish.
- Ingliz tili fonologiyasi, grammatikasi, semantikasi va pragmatikasining xususiyatlarini tahlil qilish.
- Turli kommunikativ kontekstlarda ma’no qanday shakllanishi va anglanishini talqin qilish.
- Til va muloqotga doir kognitiv yondashuvlar haqidagi xabardorlikni namoyon etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
3 ELEC A			Tilshunoslikka kirish	2	3	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni tilshunoslik fanining asosiy bo‘limlari hisoblanmish fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika bilan tanishtiradi hamda muammolarni hal qilishga asoslangan amaliy faoliyatlar orqali lingvistik tahlilning turli usullari haqida dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Kurs tilshunoslikning fundamental tushunchalariga alohida e’tibor qaratar ekan, talabalarni tilning kundalik hayotdagi qo‘llanilishini kuzatish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Modul doirasida talabalar tilning turli xususiyatlari, ularning tavsiflanishi, nazariy jihatdan izohlanishi va tadqiq qilinishiga oid asosiy bilimlarni egallaydilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Tilning fonologik, morfologik, sintaktik va semantik tuzilmalari haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish.
- Tilshunoslikning asosiy atamalarini (masalan, til, grammatika, fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika) ta’riflash.
- So‘zlar, tovushlar va gap tuzilmalarining sodda namunalarini tahlil qilish orqali til sathlari va tarkibiy qismlarini aniqlash.
- Til ma’lumotlarini tavsiflashning asosiy tahliliy modelini qo‘llash, jumladan til shakllari, ma’nolari va qo‘llanish kontekstlarini farqlash.
- Tilning qanday o‘zgarishi va turlicha namoyon bo‘lishini tildan kundalik hayotda foydalanish namunalaridan olingan dalillar asosida tushuntirish (masalan, hududiy farqlar, rasmiylik darajalari, o‘zlashma so‘zlar va tilning vaqt o‘tishi bilan rivojlanishi).

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
4 ELEC B			Texnologiya vositasida til o‘rganish	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarda til ta’limida texnologiyalarning o‘rni haqidagi tushunchani nazariy yondashuvlar va amaliy faoliyatlar uyg‘unligi asosida rivojlantiradi. Talabalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), onlayn vositalar va yangi rivojlanayotgan texnologiyalarning imkoniyatlari va kamchiliklari, shuningdek ularning hamkorlikni, ijodkorlikni va o‘quvchilar avtonomligini qo‘llab-quvvatlash salohiyatini o‘rganadilar. Modul texnologiyalar bilan boyitilgan til o‘rganish bo‘yicha amaliy tajriba beradi hamda talabalarni asosiy tamoyillarni o‘zlarining kelgusi kasbiy faoliyatlarida qo‘llashga undaydi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Tilni o‘rganish va o‘qitish jarayonida texnologiyalarning o‘rnini, shu jumladan ularning imkoniyatlari va qiyinchiliklarini aniqlash.
- Til o‘rganish faoliyatlari uchun maqsadga muvofiq raqamli vositalar va resurslarni tanlash.
- Til o‘rganishni va o‘quvchilar avtonomligini rag‘batlantiruvchi texnologiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
4 ELEC-B			Til o‘qitishda Sun’iy Intellekt (SI)	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarda ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilim va tushunchalarni rivojlantiradi. U bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini sun’iy intellektga asoslangan vositalar va raqamli platformalarni pedagogik jihatdan asoslangan, axloqiy me’yorlarga muvofiq va ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirilgan tarzda ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan bilim hamda amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

Modul sun’iy intellektning avtomatlashtirilgan baholash, kontent yaratish va shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyalari orqali gapirish, yozish, o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o‘rganadi. Shuningdek, modul topshiriqlar loyihalashtirish, promptlar yaratish (prompt engineering) va sun’iy intellekt vositalari yordamida interaktiv hamda kommunikativ o‘quv faoliyatlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratadi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida sun’iy intellektga asoslangan vositalarni integratsiya qiluvchi pedagogik jihatdan asoslangan o‘quv faoliyatlarini loyihalashtirish.
- Gapirish, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida sun’iy intellekt asosida ishlovchi vositalarni integratsiya qilgan, pedagogik jihatdan asoslangan til o‘rganish faoliyatlarini ishlab chiqish.
- Ta’lim kontekstlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining samaradorligi, axloqiy

jihatlari va cheklovlarini baholash, jumladan ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik og‘ish (bias) va akademik halollik bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilish.

- Ta’lim oluvchilarning ishtirokini oshirish, qayta aloqa (feedback) berish, baholash va tabaqalashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlash maqsadida sun’iy intellekt vositalaridan mas’uliyatli foydalanish orqali raqamli savodxonlik va kasbiy kompetentlikni namoyon etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
5 ELEC-C			Ingliz tilini o‘qitishda ijodkorlik	2	3	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’lim sohasidagi faoliyati uchun zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalarni, xususan boshqalarni tushunish, ularga hamdardlik ko‘rsatish va hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi sinf madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Modul talabalarda adabiyot, teatr va san’atga mehr uyg‘otib, ularni kitoblar va muzeylardagi materiallar bilan ijodiy ishlashga ilhomlantiradi. Modul nafaqat talabalarning til kompetensiyalarini mustahkamlaydi, balki ularga o‘zlaridagi boshqa iqtidorlarni, masalan, liderlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini kashf etish va rivojlantirish imkonini ham beradi. Ushbu ko‘nikmalar dars jarayonlarida ham, sinfdan tashqari tarbiyaviy va ijodiy faoliyatlarda ham samarali qo‘llanilishi mumkin. Modul yakunida talabalar ingliz tilida ijodiy va badiiy mahsulotlar yaratishga xizmat qiluvchi turli usullar va amaliy faoliyatlarni qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Turli darajadagi ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda keng qamrovli interaktiv faoliyatlardan foydalanish.
- Maktab va/yoki oliy ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan turli tadbirlar uchun maqbul materiallarni tanlash.
- Sahna ko‘rinishi, spektakl yoki boshqa ijodiy chiqishlar uchun ssenariyni ishlab chiqish yoki mavjud ssenariyni ijodkorona tarzda moslashtirish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
5 ELEC C			Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar adabiiy an’analari	2	3	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni ingliz tilida so‘zlashuvchi dunyoning asosiy adabiy an’analari bilan tanishtiradi hamda Buyuk Britaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va boshqa ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarga mansub turli adabiy asarlarni o‘rganishni qamrab oladi. She’riyat, nasr, dramaturgiya va badiiy adabiyot namunalarini o‘rganish orqali talabalar adabiyotning madaniy qadriyatlar, tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy o‘zgarishlar va inson tajribasining xilma-xil jihatlarini qanday aks ettirishini tahlil qiladilar. Modul talabalarni asosiy adabiy janrlar, adabiy oqimlar, yozuvchilar va mavzular bilan tanishtirish bilan birga, yaqin o‘qish, matn tahlili, talqin qilish va tanqidiy muhokama ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Turli ovozlar va nuqtayi nazarlarni o‘zida mujassam etgan adabiy asarlar bilan ishlash orqali

talabalar ingliz tilida so‘zlashuvchi dunyo adabiyotining boyligi va rang-barangligini qadrlashni o‘rganadilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ingliz tilida so‘zlashuvchi dunyoga xos asosiy adabiy janrlar, davrlar va adabiy an’analarni aniqlash.
- Tanlangan adabiy asarlar, mualliflar va ularning madaniy kontekstlari haqida bilimlarni namoyon etish.
- Matnlarni tahlil qilishda adabiyotshunoslikka oid asosiy tushunchalar va atamalarni qo‘llash.
- Adabiy asarlarning lingvistik, madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatlarini hisobga olgan holda ularni talqin qilish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
6 ELEC-D			O‘quv materiallarini baholash, moslashtirish va yaratish	2	3	6

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni o‘quv materiallarini ishlab chiqishning asosiy tamoyillari, muhim yondashuvlari va zamonaviy tendensiyalari bilan tanishtiradi. Talabalar mavjud o‘quv resurslarini tanlash va baholash bo‘yicha tan olingan mezonlar hamda modellar asosida tahlil qilish, baholash va moslashtirishni o‘rganadilar.

Modul yakunida talabalar o‘quv materiallarining kuchli va zaif tomonlarini tanqidiy aniqlay olish va ularni ta’lim oluvchilar ehtiyojlariga yaxshiroq moslashtirish maqsadida qayta ishlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ular tilni o‘zlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan original va qiziqarli o‘quv materiallarini yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Modul davomida talabalar asosiy nazariy tushunchalar bilan tanishadilar, tegishli pedagogik tajribalarni muhokama qiladilar hamda o‘z bilimlarini modellashtirilgan yoki real ta’lim vaziyatlarida qo‘llaydilar. Jamoalarda ishlash orqali ular ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish (EFL) uchun o‘quv materiallarini hamkorlikda ishlab chiqadilar.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish (EFL) uchun mavjud o‘quv materiallarini materiallarni tanlash va baholash bo‘yicha tegishli mezonlar hamda tan olingan modellar asosida baholash va moslashtirish.
- O‘quv materiallarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali ularni tanqidiy takomillashtirish hamda ta’lim oluvchilar ehtiyojlari va o‘quv maqsadlariga yaxshiroq javob berishi uchun ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish.
- Modellashtirilgan yoki real ta’lim kontekstida jamoa tarzida original o‘quv resurslarini ishlab chiqish, bunda materiallarning qiziqarli bo‘lishi va tilni o‘zlashtirish jarayonini samarali qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
6 ELEC-D			Amaliyotni qo‘llab-quvvatlash kursi	2	3	6

Fanning qisqacha mazmuni: “Amaliyotni qo‘llab-quvvatlash kursi” moduli ta’lim dasturining nazariy va metodik tayyorgarligi bilan talabalarning ta’lim muassasalaridagi amaliy tajribasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi. Asosan OTM muhitida olib boriladigan mazkur modul davlat, xususiy, ixtisoslashtirilgan va xalqaro ta’lim muassasalari, jumladan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda kasbiy va professional ta’lim muassasalarida o‘tayotgan pedagogik amaliyot jarayonida talabalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.

Modulning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga o‘tish jarayonini yengillashtirish hamda o‘qish davomida egallangan bilim, ko‘nikma, munosabat va kasbiy odatlarni amaliyotga tatbiq etishlariga ko‘maklashishdan iborat. Modul orqali talabalar maktab tizimi haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradilar, o‘z fan sohasi bo‘yicha kompetensiyalarini mustahkamlaydilar va ta’lim oluvchilarning xususiyatlari hamda ehtiyojlari haqida kengroq tasavvur hosil qiladilar. Shuningdek, ular muayyan ta’lim kontekstlariga mos darslarni rejalashtirish va tashkil etish bo‘yicha kompetensiyalarni rivojlantiradilar hamda kasbiy rivojlanish maqsadida dars kuzatuvlarini o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantiradilar

OTMdagi o‘qitish amaliyoti

Talabalar ushbu modul doirasida OTMdagi mashg‘ulotlarda ishtirok etadilar va pedagogik amaliyot davomidagi tajribalari yuzasidan refleksiv mushohada hamda muhokamalar olib boradilar. Universitetdagi ushbu darslar va seminarlar ikki bosqichdan iborat bo‘ladi:

- Moslashuv (oriyentatsiya) bosqichi (birinchi ikki hafta). Ushbu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar maktab muhiti, shu jumladan ular biriktiriladigan fanlar va sinflar bilan tanishtiriladi. Talabalarga pedagogik amaliyot uchun shaxsiy va kasbiy maqsadlarni belgilash bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi, shuningdek amaliyot davomida o‘z faoliyatini refleksiv mushohada yuritish va baholash strategiyalari o‘rgatiladi. Bundan tashqari, ular ustoz-shogird tizimi bilan tanishtirilib, zarur hollarda qanday qilib maslahat va yordam olish mumkinligi tushuntiriladi.

- Pedagogik amaliyotni faol qo‘llab-quvvatlash bosqichi. Ushbu bosqich talabalarga o‘z bilimlarini mikroo‘qitish (microteaching) orqali amaliyotda qo‘llash uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Talabalar qisqa darslarni rejalashtiradilar, takshil etadilar va tahlil qiladilar, hamkasblaridan hamda o‘qituvchilardan tizimli qayta aloqa olib, o‘z pedagogik mahoratini takomillashtiradilar. Shuningdek, ular maktab amaliyoti davomida real sinf sharoitida sinab ko‘rish mumkin bo‘lgan samarali o‘qitish usullari va sinfni boshqarish strategiyalarini muhokama qiladilar.

Maktabdagi Amaliyot

Bo‘lajak o‘qituvchilar PRESETT dasturi amalga oshirilayotgan oliy ta’lim muassasasida mavjud imkoniyatlarga qarab mahalliy davlat va xususiy maktablarda yoki til markazlari kabi boshqa ta’lim muassasalarida amaliy tajriba orttiradilar. Maktabdagi amaliyot asosan semestr davomida haftaning belgilangan kunlarida tashkil etiladi. OTMning turiga (masalan, davlat yoki xususiy) va uning joylashuv hududiga qarab, amaliyot yakuniy semestrda bir necha oy davom etadigan uzluksiz shaklda ham tashkil etilishi mumkin.

Ushbu davr mobaynida talabalar haqiqiy sinf sharoitida tajribali o‘qituvchilarni kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lib, samarali o‘qitish amaliyoti va til o‘rganish muhitining xususiyatlari haqida qimmatli tajriba to‘playdilar. Shuningdek, ular o‘zlari ishlab chiqqan til o‘rganish faoliyat turlari, dars rejalari va baholash topshiriqlarini haqiqiy o‘quvchilar bilan amalda sinab ko‘rish

imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ularga qo‘llab-quvvatlovchi muhitda muhim amaliy tajriba orttirish imkonini beradi (batafsil ma’lumot uchun “Pedagogik amaliyot dasturi”ga qarang).

Eslatma. Ta’limning integratsiyalashgan xususiyatini ta’minlash maqsadida “Amaliyotni qo‘llab-quvvatlash kursi” moduli va pedagogik amaliyotning o‘zi parallel ravishda tashkil etilishi juda muhim hisoblanadi. Masalan, ayrim me’yoriy hujjatlarda belgilangan 2+4 modeli asosida talabalar haftasiga 4 kun OTMda va 2 kun maktabda faoliyat olib borishlari mumkin. Bu nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uzviy bog‘lashga xizmat qiladi.

Modul yakunida talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ta’lim dasturi doirasida ta’lim-tarbiya faoliyatlarini rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha kompetensiyalarni namoyon etish, jumladan darslarni samarali loyihalashtirish va o‘tkazish ko‘nikmalarini qo‘llash.
- O‘z pedagogik amaliyoti haqida tanqidiy refleksiv mushohada yuritish hamda bakalavr darajasini tamomlagandan keyin kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan shaxsiy kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
7 ELEC-E			Ingliz tilini o‘qitishda inklyuziya va gender tengligi	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarda ingliz tilini o‘qitishda inklyuziv ta’lim va genderga tengligini rag‘batlantiruvchi yondashuv tamoyillari haqidagi tushunchalarni rivojlantiradi. U bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘rganish uchun universal dizayn (Universal Design for Learning – UDL) tamoyillariga asoslangan holda turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega ta’lim oluvchilar uchun moslashuvchan, qiziqarli va barchaga uchun teng imkoniyatlar yaratuvchi til o‘rganish tajribalarini loyihalashtirishga tayyorlaydi. Modulda neyroxilma-xillikka (neurodiversity) ega ta’lim oluvchilar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, til bilish darajasi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar, turli ta’limiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan kelgan ta’lim oluvchilar, shuningdek gender tengligi va genderga masalalariga ta’sirchan pedagogika masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, modul ingliz tili darslarida ishtirok etish va o‘quv faoliyati natijalariga erishishga to‘sqinlik qiluvchi individual hamda tizimli to‘siqlarni, jumladan gender me’yorlari, ifodalanish va ishtirok shakllari bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish masalalarini qamrab oladi. Bu jarayon orqali modul hamkorlik, kasbiy empatiya va pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirib, o‘qituvchilarni barcha ta’lim oluvchilar to‘liq ishtirok eta oladigan va muvaffaqiyat qozonadigan qo‘llab-quvvatlovchi hamda adolatli ta’lim muhitini yaratishga tayyorlaydi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ingliz tili ta’limida inklyuzivlik va gender tengligini ta’minlashning asosiy tushunchalarini, jumladan inklyuziv pedagogika, o‘rganish uchun universal dizayn (UDL), nogironlik, neyroxilma-xillik (neurodiversity) va gender tengligini ta’minlovchi pedagogik yondashuvlarni tavsiflash.
- Ingliz tili darslarida ishtirok etish va o‘quv faoliyati natijalariga erishishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni, shu jumladan gender masalalari bilan bog‘liq to‘siqlarni tahlil qilish hamda inklyuziv sinf boshqaruvi va ijobiy xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlash

strategiyalarini qo‘llash.
- Barcha ta’lim oluvchilar uchun qulaylik va maqbul darajadagi o‘quv murakkabligini ta’minlash maqsadida UDL tamoyillari asosida til o‘rganish faoliyatlari va baholash topshiriqlarini loyihalashtirish hamda moslashtirish.
- Inklyuziv va gender masalalariga ta’sirchan pedagogik qarorlarni yozma va og‘zaki shakllarda aniq, asosli va kasbiy tarzda ifoda etish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
7 ELEC-E	ED461	Ta’lim/pedagogika	O‘quv dasturlarini ishlab chiqish metodikasi	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul talabalarni o‘quv dasturlarini ishlab chiqishning asosiy tamoyillari, jarayonlari va modellari bilan tanishtiradi. Unda o‘quv maqsadlari qanday tanlanishi, ta’lim mazmuni qanday tashkil etilishi hamda o‘qitish, o‘rganish va baholash jarayonlarining o‘quv dasturi doirasida qanday uyg‘unlashtirilishi o‘rganiladi. Talabalar milliy, institutsional va sinf darajalaridagi o‘quv dasturlarini loyihalashtirish masalalarini tahlil qiladilar hamda ijtimoiy, madaniy va texnologik omillarning o‘quv dasturiga oid qarorlarga ta’sirini ko‘rib chiqadilar. Turli misollar, muhokamalar va amaliy loyihalashtirish vazifalari orqali talabalar o‘quv dasturining asosiy tarkibiy qismlarini o‘qish, talqin qilish va yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, modul talabalarni o‘quv dasturi haqidagi shakllanayotgan tushunchalari va uning o‘qitish hamda ta’lim olish jarayonidagi o‘rni haqida refleksiya qilishga undaydi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- a’lim dasturlarini ishlab chiqishning asosiy tushunchalari, modellari va bosqichlarini tavsiflash.
- O‘quv maqsadlari, ta’lim mazmuni, o‘qitish va baholashning o‘quv dasturi doirasida qanday o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritishini tushuntirish.
- Ta’lim dasturini ishlab chiqish tamoyillarini maktab fanlari yoki ta’lim kontekstlaridan olingan sodda misollarga nisbatan qo‘llash.
- Ijtimoiy, madaniy va texnologik omillarning o‘quv dasturiga oid qarorlarga ta’sirini tahlil qilish.
- Tanlangan ta’lim dasturi modellari yoki tarkibiy qismlarining kuchli va zaif tomonlarini baholash.
- O‘quv natijalari yoki sodda modul/mavzu rejalari kabi ta’lim dasturi elementlarini yaratish hamda ular o‘rtasidagi aniq muvofiqlikni ta’minlash.
- Ta’lim dasturi haqidagi o‘z tushunchalari yuzasidan refleksiya qilish va uning kelajakdagi o‘qituvchilik faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini anglash.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
8 ELEC-F			Pedagogik yetakchilik, refleksiya va kasbiy rivojlanish	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul pedagogik yetakchilik (liderlik)ning asosiy tushunchalari va nazariyalarini hamda ularning maktab va boshqa ta’lim muassasalari kontekstida qo‘llanilishini o‘rganadi. Talabalar transformatsion yetakchilik, o‘qitishga

yo‘naltirilgan yetakchilik, taqsimlangan yetakchilik va xizmat qiluvchi yetakchilik kabi turli yetakchilik uslublarini tahlil qiladilar hamda o‘qituvchilar sinf ichida va undan tashqarida liderlikni qanday namoyon etishlari mumkinligini ko‘rib chiqadilar. Shuningdek, modul refleksiv amaliyot va uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD) ko‘nikmalarini rivojlantirib, kelajakdagi o‘qituvchilarni o‘z kasbiy rivojlanishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, maktabni takomillashtirish jarayonlariga hissa qo‘shishga va hamkorlikka asoslangan o‘rganish madaniyatini qo‘llab-quvvatlashga tayyorlaydi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Pedagogik yetakchilikning asosiy nazariyalari va uslublarini baholash hamda ularning o‘qitish, o‘rganish va maktabni rivojlantirish jarayonlariga ta’sirini tahlil qilish.
- Hamkorlikni, innovatsiyalarni va ta’limdagi ijobiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishda o‘qituvchi yetakchilikning rolini tahlil qilish.
- Kasbiy tajribalarni baholash va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun refleksiv amaliyot modellarini qo‘llash.
- Umr davomida o‘rganishni, yetakchilik salohiyatini va kasbiy faoliyatda o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydigan kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish.

Semestr	Fan kodi	Fan sohasi	Fan nomi	M	S/A/L	Kredit
8 ELEC-F			EFanlararo ingliz tili	1	2	4

Fanning qisqacha mazmuni: Ushbu modul bo‘lajak o‘qituvchilarni asosiy e’tiborni maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishga (English for Specific Purposes – ESP) qaratgan holda, shuningdek ingliz tili vositasida o‘qitish (English-Medium Instruction – EMI), STEAM va mazmun hamda tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish (CLIL) kabi yondashuvlar bilan bog‘liq ta’lim kontekstlarida ishlashga tayyorlaydi. Modul talabalarda kasbiy va akademik muhitlarni tahlil qilish, ta’lim oluvchilarning hozirgi yoki kelajakdagi maqsadli vaziyatlarda ingliz tilidan qanday maqsadlarda foydalanishi lozimligini aniqlash hamda shu asosda o‘quv materiallarini tanlash, baholash va moslashtirish bo‘yicha asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Modulda ehtiyojlar tahlilini (needs analysis) o‘tkazish, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ta’limni loyihalashtirish va ESP ta’limida sun’iy intellektdan yordamchi vosita sifatida tanqidiy va mas’uliyatli foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Fanni o'qib yakunlagach talabalar quyidagilarni bajara oladilar:

- Ingliz tili akademik yoki kasbiy maqsadlarda qo‘llaniladigan ta’lim kontekstlarini tahlil qilish va ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini aniqlash.
- O‘quv materiallarini muayyan ta’lim oluvchilar ehtiyojlari va ta’lim kontekstlariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholash.
- Hamkorlikdagi ta’lim tajribasi haqida refleksiv mushohada yuritish, turli kontekstlarda ingliz tilining o‘rni haqidagi tushunchasi kelajakdagi pedagogik amaliyotiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish.

7. Xulosa

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bakalavriat ta’lim dasturi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini zarur pedagogik bilimlar, fan sohasi bo‘yicha chuqur bilim va amaliy o‘qitish ko‘nikma va malakalari bilan ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, dastur talabalarda chet til o‘qitish metodikalari, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, til o‘rganuvchilarni baholash amaliyotlari hamda inklyuziv ta’lim bo‘yicha tushunchalarini shakllantiradi. Shuningdek, dastur talabalarning tanqidiy fikrlash, refleksiv amaliyot va qiziqarli hamda samarali ta’lim tajribalarini loyihalashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quv jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ilmiy asoslangan metodikalar va maktablarda mavjud keng qamrovli pedagogik amaliyotlarga tayanadi. Fanlarni o‘zlashtirish, hamkorlikda ta’lim olish va pedagogik amaliyot orqali talabalar darslarni rejalashtirish, sinfni boshqarish, bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash hamda turli ta’limiy ehtiyojlarga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘ladilar. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari turli ta’lim kontekstlarida ingliz tilini samarali o‘qitish va til ta’limi sifatini oshirishga hissa qo‘shishga tayyor bo‘ladilar.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim sifati bo‘yicha Milliy kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, kodeksda keltirilgan asosiy tamoyillar va talablar asosida amaliyotga joriy etilishi nazarda tutiladi. Bu akademik standartlar, ta’lim natijalari va baholash amaliyotlarining milliy malaka ramkalari hamda xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlaydi. Dasturni loyihalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarida professor-o‘qituvchilar, talabalar va ta’lim sohasidagi hamkorlar kabi asosiy manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkaziladi. Bu o‘z navbatida ta’lim dasturining mavjud oliy ta’lim tizimi ehtiyojlariga mosligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim dasutrini amalga oshirish va taqdim etish sifatini uzluksiz takomillashtirish, doimiy monitoringini yuritish va dasturni davriy tahlildan o‘tkazish, talabalar qayta aloqasi va ta’lim natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish, shuningdek tashqi ekspertlar va tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish orqali ta’minlanadi. Ushbu jarayonlar ta’lim dasturi, unda nazarda tutilgan o‘qitish metodikalari va baholash amaliyotlarining muntazam takomillashuviga xizmat qiladi hamda dasturning ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligini va yuqori akademik standartlarga mosligini ta’minlaydi.

Ta’lim dasturi bitiruvchilari milliy va xalqaro standartlarga mos kasbiy kompetensiyalarga, yuqori darajadagi muloqot va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalariga hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga intiluvchan mutaxassis sifatida tayyorgarlikdan o‘tadilar. Ular inklyuziv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini qo‘llab-quvvatlovchi, refleksiv amaliyotchi va yangiliklarga intiluvchi pedagog xodimlar sifatida faoliyat yuritishga hamda mamlakatimiz va xalqaro miqyosda ta’lim rivojiga ijobiy hissa qo‘shishga tayyor bo‘ladilar.

8. Atamalar

8.1 Tayanch so‘zlar

Tayanch so‘zlar	Mazmuni
Davlat ta’lim standarti (DTS)	Bu mamlakatdagi barcha o'quv yurtlari uchun majburiy bo'lgan qoidalari va talablar to'plami. U har bir o'quvchi bilishi va bajara olishi kerak bo'lgan bilim darajasini belgilab beradi.
Baholash	O‘quvchilar nimalarni o‘zlashtirganliklarini tekshirish. Ushbu qo‘llanmada uch tur baholash haqida gap boradi: formativ, summativ va diagnostik baholash.
Bakalavr akademik darajasi	Bo‘lajak o‘qituvchilar 4-yillik o‘quv dasturini muvaffaqiyatli tamomlagach beriluvchi akademik daraja.
Bola psixologiyasi	Yosh til o‘rganuvchilarning fikrlash, his qilish va voyaga yetish tarzini o‘rganuvchi fan. Ushbu fan o‘qituvchilarga o‘quvchilarini yaxshiroq anglash imkonini beradi.
Sinfni boshqarish	O‘qituvchilar tomonidan auditoriyada o‘quvchilar faoliyatini tashkil qilish, ijobiy muhit yaratish va o‘qib-o‘rganish uchun tayyor holatga kelitirishda qo‘llanadigan ko‘nikmalar majmui.
Asosiy modullar	Bo‘lajak o‘qituvchilar, talabalar ta’lim dasturida o‘zlashtirishi shart bo‘lgan modullardir. Ular majburiy modul deb ham yuritiladi.
O‘quv dasturi	Ta’lim dasturi tarkibidagi modullar va ta’lim natijalarining to‘liq rejasi.
Dizayn jarayoni	O‘quvchilar texnologiya darslarida amal qiladilan bosqichlar: g‘oya haqida o‘ylash, uni rejalashtirish, amalga oshirish va baholash.
Tabaqalashtirilgan o‘qitish	Bir sinfda tahsil oluvchi o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlariga darsni moslashtirish.
Raqamli kompetensiya	Raqamli vositalarni tushunish va ulardan foydalana olish qobiliyati. Vositalarga kompyuterlar, internet va ta’limiy dasturiy ta’minotlar kiradi.
Tanlov modullari	Talabalar ta’lim dasturi va o‘quv rejasida o‘z qiziqishlari va karerasiga mos ravishda tanlashi mumkin bo‘lgan modullar.
FLT	Foreign Language Teaching – chet til o‘qitish
Jismoniy tajribaga asoslangan o‘rganish	Bu aql va tana o‘rtasidagi ajralmas bog‘liqlikni e’tirof etuvchi pedagogik yondashuv bo‘lib, jismoniy harakat va hissiy tajribalar o‘rganish jarayonining muhim qismi ekanligiga urg‘u beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarni passiv kuzatuvchilar sifatida emas, balki murakkab tushunchalarni chuqurroq anglashlari uchun faol va kinestetik ishtirokchilar sifatida jalb qiladi.

Tadqiqotga asoslangan pedagogika	O‘quvchilar savollar qo‘yadigan va ularga javoblarni izlanish, tadqiq qilish hamda dalillarni o‘rganish orqali topadigan o‘qitish yondashuvidir.
Elektron portfolio	Pedagogik amaliyot davomidagi dars rejalariga berilgan qayta aloqa, refleksiyalar va milliy standartlar bilan bog‘liq tahlillarni o‘z ichiga olgan, talabaning kasbiy rivojlanishini o‘zida aks ettiruvchi raqamli portfolio. Bunday portfolio talabaning pedagogik falsafasi, o‘qitish strategiyalari, baholash amaliyoti va pedagogik amaliyot davomidagi yutuqlarini samarali namoyish etadi.
Dalillarga asoslangan ta’lim	Ilmiy tadqiqot natijalari bilan dalillangan va samara berishi ilmiy isbotlangan o‘qitish metodlari.
Formativ baholash	O‘quvchilarning o‘zlashtirishidagi rivojlanishni tekshirish uchun amalga oshiriladigan amaliyot. Bunday faoliyatlar odatda baholanmaydi va asosan o‘qib-o‘rganishni yaxshilashga xizmat qiladi.
Bitiruvchi kompetensiyalari	Dasturni muvaffaqiyatli tamomlagan har bir talaba egallashi lozim bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar va kasbiy sifatlar majmuasi.
Har tomonlama rivojlanish	Bolaning kognitiv, jismoniy, emotsional, ijodiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini bir butun holda qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuv.
Inklyuziv ta’lim	Har bir o‘quvchining, xususan, maxsus ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirokini ta’minlash.
Pedagogik amaliyot	Talabalarning real maktab sharoitida ustoz-o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlovi bilan o‘qitish bo‘yicha amaliyot o‘tashi.
PRESETT	Pre-service teacher training – Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash
‘IRIS Center‘ (Vanderbilt Peabody College)	“IRIS Center” AQSHda joylashgan, dunyo miqyosida tan olingan tashkilot bo‘lib, tug‘ilganidan 21 yoshgacha bo‘lgan barcha bolalarning, ayniqsa nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim natijalarini samarali, dalillarga asoslangan pedagogik amaliyotlar va intervensiyalar orqali yaxshilashga bag‘ishlangan.
Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	O‘quvchilarning ehtiyojlariga asoslangan ta’lim yondashuvi bo‘lib, bunda o‘quvchilarga ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi.
Darslarni rejalashtirish	Mashg‘ulot, darsning maqsadlari, faoliyat turlari va o‘rganishni baholashga bo‘lgan yondashuv va usullarini o‘z ichiga olgan yozma yo‘riqnomasi.
Savodxonlik	Samarali o‘qib tushunish, yozish, gapirish va tinglab tushunish qobiliyati.
Ustoz o‘qituvchi	Amaliyotchi talaba yoki talabalar guruhiga maktab tomonidan biriktirilgan tajribali o‘qituvchi.

Mikro-o‘qitish yoki mikrodars	Talabalar tomonidan qisqa muddatli (odatda 10–15 daqiqalik) darsni kichik guruhdagi tengdoshlariga o‘tkazadigan maqsadli va kichik ko‘lamli pedagogik amaliyot. U muayyan pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda talabalarga nazorat qilinadigan va bosim nisbatan past bo‘lgan muhitda yangi usullarni sinab ko‘rish, qayta aloqa olish va o‘z o‘qitish mahoratini takomillashtirish imkoniyatini beradi.
Hisob-kitob savodxonligi	Kundalik va kasbiy vaziyatlarda sonlar bilan ishlash, hisob-kitob qilish va miqdor ko‘rsatkichli ma’lumotlarni tushunish qobiliyati.
Fonika	Harflar va ular ifodalaydigan tovushlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgatish orqali o‘qish va yozishni rivojlantirish usuli.
O‘yinga asoslangan pedagogika	O‘yinlardan ta’lim jarayonida, ayniqsa erta ta’lim bosqichida foydalanish.
Portfolio	Talabaning kasbiy rivojlanishini namoyish etuvchi ishlar to‘plami bo‘lib, unga milliy standartlar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan dars rejalari, o‘qitish va o‘rganish jarayoniga oid refleksiv qaydlar hamda boshqa kasbiy faoliyat natijalari kiradi. Portfolio talabaning bilimlari, ko‘nikmalari, yutuqlari va kasbiy o‘sish dinamikasini hujjatlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.
Amaliyot	Real maktab sharoitidagi amaliy o‘qitish tajribasi hisoblanib, ta’lim dasturi bo‘yicha akademik darajaning majburiy komponenti hisoblanadi.
Bo‘lajak o‘qituvchi	Oliy ta’lim tashkilotining bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga ixtisoslashgan ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan va hali o‘qituvchi kvalifikatsiyasiga ega bo‘lmagan talaba.
Kasbiy rivojlanish	O‘qituvchining karerasi davomida o‘qib-o‘rganishi, o‘z ustida ishlashi.
Loyihaga asoslangan ta’lim yondashuvi	O‘quvchilar ma’lum vaqt davomida haqiqiy hayot bilan bog‘liq, qiziqarli va murakkab savol yoki muammoni tadqiq qilish hamda unga yechim izlash orqali bilim va ko‘nikmalarni egallaydigan ta’lim yondashuvidir. Ushbu jarayonda o‘quvchilar hamkorlikda ishlab, o‘zlari o‘rgangan va kashf etgan bilimlarni namoyon etuvchi amaliy mahsulot, loyiha yoki taqdimot yaratadilar.
Refleksiv amaliyot	O‘z pedagogik faoliyati davomida unda nima ish berganligini va nimalarni takomillashtirish zarurligi xususida doimiy mushohada yuritish.
Summativ baholash	Bo‘lim yoki fan yakunida o‘quvchining o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘tkaziladigan test, topshiriq yoki boshqa baholash shaklidir. U odatda ball yoki baho qo‘yish bilan yakunlanadi va o‘quv natijalariga erishilganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi.
Suqrot metodi	O‘quvchilarni chuqurroq fikrlashga, o‘z qarashlarini asoslashga va javoblarni mustaqil topishga undaydigan ochiq va yo‘naltiruvchi savollardan foydalanish usuli.

O‘qitish falsafasi	O‘qituvchining ta’lim va o‘rganish jarayoni haqidagi shaxsiy qarashlari, qadriyatlari va e’tiqodlari majmui bo‘lib, u qanday o‘qitishni maqsad qilishi va o‘z pedagogik amaliyotini qanday tashkil etishini aks ettiradi.
Ko‘rinadigan fikrlash	“Ko‘rinadigan fikrlash” bu Garvard universitetining Project Zero loyihasi tomonidan ishlab chiqilgan, tadqiqotlarga asoslangan pedagogik yondashuv bo‘lib, u “fikrlash rutinalari” (thinking routines) deb ataluvchi qisqa va muntazam qo‘llaniladigan tuzilmalardan foydalanadi. Ushbu rutinalar o‘quvchilarga o‘z fikrlash jarayonlarini tashqi shaklda ifoda etish, tushuntirish va boshqalar bilan baham ko‘rish imkonini beradi. Yondashuv o‘quv mazmunini chuqurroq o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning o‘rganish odatlari va metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham qaratilgan. https://pz.harvard.edu/projects/visible-thinking
Farovonlik	O‘quvchilar va o‘qituvchilarning jismoniy, emotsional, ijtimoiy va ruhiy salomatligini qamrab oluvchi yaxlit holatdir. U insonning o‘zini xavfsiz, qo‘llab-quvvatlangan, qobiliyatli va ta’lim jarayoniga faol jalb etilgan his qilishi bilan bog‘liq. Farovonlik o‘qib-o‘rganishdagi muvaffaqiyat, ijobiy xulq-atvor va sog‘lom maktab muhitining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Farovonlikka alohida e’tibor qaratish bolalarda barqarorlik, o‘z kuchiga ishonch va maktabda ham, undan tashqarida ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
Baholash	O‘quvchilar nimalarni o‘zlashtirganliklarini tekshirish. Ushbu qo‘llanmada uch tur baholash haqida gap boradi: formativ, summativ va diagnostik baholash.
Bakalavr akademik darajasi	Bo‘lajak o‘qituvchilar 4-yillik o‘quv dasturini muvaffaqiyatli tamomlagach beriluvchi akademik daraja.

8.2 Qisqartma va akronimlar

Qisqartma	To‘liq shakli	Mazmuni
BA	**Bachelor of Arts**	G‘arb mamlakatlari oliy ta’lim tashkilotlarida ijtimoiy-gumanitar sohalar bo‘yicha bakalavr akademik darajasi nomlanishi.
CEFR	**Common European Framework of Reference**	Til bilishning Umumevropa kompetensiyalari ramkasi. O‘z ichiga til bilishning A1 (boshlang‘ich) darajasidan S2 (ekspert) darajasigacha bo‘lgan darajalarni oladi. Ushbu ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirish uchun B1 darajada ingliz tilini bilish talab etiladi.
CS	**Computer Science/ EdTech**	Kompyuter ilmi. Texnologiya va kompyuter ilmi bilan bog‘liq modullar uchun berilgan kod.
CPD	**Continuing Professional Development**	Uzluksiz kasbiy rivojlanish. Doimiy emas. Ushbu o‘qituvchilarni tayyorlash dasturida uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD) konferensiyalar va malaka oshirish kurslari kabi alohida tadbirlarga qaratilgan tor doiradagi yondashuvdan voz kechib, hamkasblarning mashg‘ulotlarini kuzatish va qayta aloqa berish, pedagogik amaliyotni tadqiq qilish kabi rivojlanishga yo‘naltirilgan turli faoliyatlarni qamrab oluvchi keng qamrovli yondashuv sifatida talqin etiladi.
DSG	**Design and Creative Thinking**	Tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn moduli uchun berilgan kod.
ECTS	**European Credit Transfer and Accumulation System**	Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa modeli. Ta’lim dasturida qo‘llanilgan kredit-modul tizimi bo‘lib 60 kredit bir yillik kunduzgi ta’limga teng.
ED	**Education/Pedagogy**	Ta’lim, Pedagogika/psixologiya. Pedagogika va o‘qitish metodikasiga oid modullar kodi.
ELEC	**Elective**	Tanlov. Tanlov fan (modul)lar katalogidan talabalar tanlashi mumkin bo‘lgan modullarga berilgan kod.
HASS	**Humanities and Social Sciences**	Gumanitar va ijtimoiy fanlar. Til, adabiyot, tarix hamda ijtimoiy fanlarga berilgan kod.
ICT	**Information and Communication Technology**	Axborot kommunikatsion texnologiyalar. Ta’limda foydalaniluvchi kompyuter, dasturiy ta’minot va internet kabi raqamli vositalar.
IELTS	**International English Language Testing System**	Xalqaro ingliz tilini baholash tizimi. Ushbu ta’lim yo‘nalishida o‘qishga kirishda abituriyentlardan

		qabul qilinishi mumkin bo‘lgan ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi muqobil sertifikat.
Lab	**Laboratory**	Laboratoriya ishi bu bo‘lajak o‘qituvchilar egallagan nazariy bilimlarini amaliy topshiriqlarni tajriba qilib ko‘rish, kuzatish va amaliyot orqali qo‘llashi mumkin bo‘lgan ta’lim muhiti hisoblanadi. Seminar mashg‘ulotlari muhokama va muammolar yechimini aniqlashga qaratilsa, laboratoriya ishlarida ma’lum vositalar va metodlarni qo‘llashni o‘rganishga urg‘u beradi.
MATH	**Mathematics**	Matematika. Ta’lim yo‘nalishi dasturida berilgan matematikaga oid modullar kodi.
NPUU	**National Pedagogical University of Uzbekistan**	O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti. Mazkur ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yiluvchi oliy ta’lim tashkiloti.
OECD	**Organisation for Economic Co-operation and Development**	IHRT - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. Ta’limga oid tadqiqotlar, jumladan PISA bo‘yicha hisobotlarni nashr etuvchi tashkilot.
PE	**Physical Education**	Jismoniy tarbiya. Ushbu qo‘llanmada jismoniy tarbiya, sog‘liq va farovonlikka oid modullar uchun ishlatilgan kod.
PISA	**Programme for International Student Assessment**	Xalqaro o‘quvchilar bilimini baholash dasutri. O‘qish, matemtika va aniq fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilimini baholovchi xalqaro test.
PLO	**Programme Learning Outcome**	DTN. Dastur ta’lim natijalari ushbu ta’lim dasturi yakunida talabalar erishishlari kutilayotgan aniq maqsadlar.
PRAC	**Practicum/ Internship**	Amaliyot. Maktab sharoitida tashkil qilinuvchi pedagogik amaliyot modullari kodi.
PRESETT	**Pre-Service English Teacher Training**	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash. Ushbu qo‘llanmada mazkur atama O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayrlash dasturi, jarayoni uchun qo‘llanilgan.
PSY/PSYC	**Psychology**	Psixologiya. Ushbu dasturda ta’lim psixologiyasiga oid modullarga nisbatan qo‘llanilgan kod.
SCI	**Science and Environment**	Fan va atrof-muhit. Ushbu ta’lim dasturida fan va atrof-muhitga oid modullarga nisbatan qo‘llanilgan kod.

SEL	**Social–Emotional Learning**	Ijtimoiy-emotsional ta’lim. O‘quvchilarga o‘z hissiyotlarini, munosabat va tanlovlarini tushunishga yordam berishga qaratilgan ta’lim yondashuvi.
SEN	**Special Educational Needs**	Maxsus ta’limiy ehtiyojlar. O‘quvchiga ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha yoki o‘zgacha qo‘llab-quvvatlov.
SOC	**Social Studies**	Ijtimoiy fanlar. Dasturda ijtimoiy fanlarga oid modullarga nisbatan qo‘llanilgan kod.
STEAM	**Science, Technology, Engineering, Arts and Mathematics**	Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Amaliy o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘langan loyihalar orqali mazkur beshta sohani qamrab oluvchi yondashuv.
TIMSS	**Trends in International Mathematics and Science Study**	Matematika va aniq fanlar bo‘yicha ko‘nikmalarni baholash tizimi bo‘lib, mazkur qo‘llanmada PISA qatorida tilga olinadi.
UDL	**Universal Design for Learning**	O‘rganish uchun universal dizayn. O‘quv jarayoni va darslarni rejalashtirishning shunday yondashuviki bunda barcha o‘quvchilarga o‘rganish uchun imkoniyat yaratiladi. UDL veb sahifasi: https://udlguidelines.cast.org/
UNESCO	**United Nations Educational, Scientific and Cultural Organisation**	Birlashgan millatlar tashkilotining xalqaro ta’lim standartlarini belgilovchi organi.
BA	**Bachelor of Arts**	G‘arb mamlakatlari oliy ta’lim tashkilotlarida ijtimoiy-gumanitar sohalar bo‘yicha bakalavr akademik darajasi nomlanishi.
ZPD	**Zone of Proximal Development**	The ideal learning zone – just beyond what a learner can do alone. From Vygotsky, referenced in the handbook.

8.3 Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 42:371.3

Guruh T 55

OKS 01.040.01

BRITISH COUNCIL

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

TA'LIM DASTURLARI LOYIHALANMASI

www.npuu.uz
info@npuu.uz

2026